ISSN: 2181-3035
15.06.2022
№ 5



TALQIN VA TADQIQOTLAR

respublika ilmiy-uslubiy jurnali

- Aniq fanlar
- Tabiiy fanlar
- Tibbiyot fanlari
- Texnika fanlari
- Iqtisod fanlari
- Filologiya fanlari
- Pedagogika fanlari
- Ijtimoiy-gumanitar fanlar
- Psixologiya fanlari
- San'at va madaniyat fanlari
- Jismoniy tarbiya va sport

talqin@bk.ru
+99891-152-93-14
www.talqinva tadqiqotlar.uz
@TALQINVATADQIQOTLAR

TALQIN VA TADQIQOTLAR

RESPUBLIKA
ILMIY - USLUBIY JURNALI

BARCHA SOHALAR BO‘YICHA

5-son 1-qism
15.06.2022

Talqin va tadqiqotlar

ilmiy-uslubiy jurnal

scientific-methodical journal

научно-методический журнал

Bosh muharrir:
I.I.Abdumannonov

Mas'ul muharrir:
O.S.Isroilov

Jurnal bir oyda ikki marta chop etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiya agentligida 2022- yil 12 - fevralda 1540 raqam bilan ro'yxatga olingan.

ISSN 2181 - 3035

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

Tel: +99891-152-93-14
E pochta: talqin@bk.ru
Сайт: www.talqinvatadqiqotlar.uz

Tahrir kengashi:

Qo'ldashev Sherali Temiraliyevich
O'z FA Sharqshunoslik instituti
tarix fanlari nomzodi, dotsent
Bazarov Odiljon
Filologiya fanlari doktori
Qo'qon davlat pedagogika instituti
Abdukarimov Jamoliddin Ahmadaliyevich
Xo'jand davlat universiteti dotsenti (Tojikiston)
Masharipova Gularam Kamilovna
Falsafa fanlari doktori, professor
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti
Qozoqov Tohirjon Qodiraliyevich
Namangan davlat universiteti
tarix fanlari nomzodi, dotsent
Abdullayev Ravshanjon Inomjon o'g'li
O'z FA Tarix instituti
Tojiyeva Gulnora Akramxonovna
Xalq ta'limi a'lochisi
Abdullayeva Maftunaxon Umidjon qizi
Qo'qon davlat pedagogika instituti
Raximova Zuxraxon Maxmudovna
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
Jo'rayeva Sobira Eshqurbonovna
O'zMU jurnalistika fakulteti, o'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
Akbarov Qobuljon Yakubovich
Qo'qon davlat pedagogika instituti, tarix fanlari nomzodi
G'ofurovTo'lqinjon Zafarjon o'g'li
Qo'qon davlat pedagogika instituti, matematika fani o'qituvchisi
Baymenova Kamshat Saparbayevna
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
Bazarov Otabek Odilovich
Qo'qon davlat pedagogika instituti, PhD
G'ulomova Nargiza Sa'dullayevna
Navoiy VXTXQTMOHM Tillarni o'qitish metodikasi katta o'qituvchisi
Rahimova Maftuna Odilovna
Qo'qon davlat pedagogika instituti, PhD
Mirzaahmedova Kamola Toxirovna
Toshkent pediatriya tibbiyot instituti farmakologiya, fiziologiya kafedrasi dotsenti

MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

1.	KUZGI BUG‘DOY NAVLARINING HOSILDORLIGIGA ORGANIK VA MA’DAN O‘G‘ITLARINING TA’SIRI Babahan Allanazarov Erimov Feruz Farhod o’gli	6
2.	MA’MURIY SUDLARNING O’ZBEKISTONDA TAKOMILLASHIB BORISHINING HUQUQIY ASOSLARI Soliev Azizbek Sodirjon o'g'li	11
3.	HUQUQ USTUVORLIGI TUSHUNCHASINING KONSTITUTSIYA VA QONUN USTUNLIGI PRINSPI BILAN O‘ZARO ALOQADORLIGI Parxatov Mardonbek Davronbekovich	17
4.	BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARINING KREATIV FIKRLASH QOBILIYATLARINING RIVOJLANISHIDA YARATILGAN YANGI DARSLIKLARNING AHAMIYATI Mayorova Zamira	21
5.	CHINGIZ AYTMATOV VA LUQMON BO’RIXON IJODIDA MUSHTARAK G’OYALAR TALQINI (“BIRINCHI MUALLIM” VA “SIRLI MUALLIM” QISSALARI TAHLILI MISOLIDA) Abdullajonova Oyxon Sherzodbek qizi	25
6.	МИҚДОРИЙ АЛОМАТЛАР ҚИЙМАТЛАРИНИ КЕСИШМАЙДИГАН ОПТИМАЛ ИНТЕРВАЛЛАРГА АЖРАТИШ Аҳмедов Ж.Б.	28
7.	ASALARI KASALLIKLARI VA UNGA QARSHI KURASH CHORALARINI TASHKIL ETISH Murodova Hilola Zafarjon qizi	31
8.	QORABOG` MASALASI ROSSIYA-ERON MUNOSABATLARIDA Eshpo'latov Axror Asrol o'g'li	37
9.	ПЕРИФРАЗА ВА УНИНГ ҚЎЛЛАШ ТАМОЙИЛЛАРИ Дилнозахон Муротова	42
10.	MUHAMMAD YUSUF HAYOTI VA IJODIGA BIR NAZAR Raximova Dilafruz Xudayberganova Xosiyat Qahramonovna	47
11.	EFFECTIVENESS OF USING AUTHENTIC MATERIALS IN INCREASING LEARNERS Kodirova Mokhira Bakhodirjon kizi	51
12.	FONETIKA VA GRAFIKA ASOSLARINI O'RGANISH METODIKASI Erkinova Nodira Ma'murjon qizi	54
13.	HINDISTON TARAQQIYOTIDA MAHATMA GANDINING TUTGAN O’RNI (1915-1947) Xudoyqulov Xusan Ibragimovich	57
14.	MILLIY MA’NAVIYAT NAZARIYASINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI Hamidov Salohiddin Ochilovich	61
15.	INNOVATIVE TECHNOLOGIES FOR RECOVERY OF PRESSURE AND NON-PRESSURE PIPING Baymanov Ruslan Ken’esbaevich Joldasbaeva Ayzada Baxitbaevna	64
16.	ИҚТИСОДИЁТ АСОСЛАРИГА КАРШИ ЖИНОЯТЛАРНИНГ ТАВСИФИ Аъзамова Лазиза Тўлқин қизи	69
17.	ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA PARALLEL KORPUS VA UNING AHAMIYATI Toshpo`latova Dilshoda Karimjonovna	72
18.	QISHLOQ XO'JALIGIDA ZAMONAVIY SUV TEJOVCHI TEXNOLOGIYALAR Xo'jamqulov Javlonbek Baxtiyor o'g'li	76
19.	ГРУНТ СУВЛАРИНИНГ САТҲИНИ ДИНАМИКАСИ ВА УНИ АВТОМОБИЛЬ ЙЎЛ ПОЙИНИНГ БАЛАНДЛИГИНИ БЕЛГИЛАШДА ҲИСОБГА ОЛИШГА ДОИР (БУХОРО ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА)	79

	Туляганов А.Х., Эшмуродов М.Ю.	
20.	SHAXSGA OID BELGI IFODALOVCHI LEKSEMALAR SEMANTIKASI HAMDA ULARNING SHAXS NOMIGA TA‘SIRI MASALASI.(ALISHER NAVOIYNING “MAJOLIS UN- NAFOIS” ASARI MISOLIDA) Jo‘rayeva Nigora Bahtiyor qizi	87
21.	MUSTAQIL TA’LIMNING TASHKIL ETILISHI VA UNING ISTIQBOLLARI Aliyev Qaxramon Yusupovich P.M.Jalolova	92
22.	INGLIZ TILIDA RANG KOMPONENTLI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING O’RNI Shamsutdinova Diyora	96
23.	MUAMMOLI TA’LIM YONDASHUVLARI: SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN, EVRISTIK (TADQIQOTCHILIK) VA LOYIHAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARI Ibragimova Intizor Butanbayevna	100
24.	REGULAR QORA TUYNUKLAR VA KVAZI DAVRIY TEBRANISHLAR Jalolova Ziyodaxon Mahmudjon qizi J.Rayimboyev	107
25.	DINIY QARASHLARNING RIVOJLANISHIDA DEHQONCHILIKNING O`RNI Fayziyev Abdusamad Abduxoliq o`g`li	112
26.	ИРОНИЯ В АНГЛИЙСКОЙ И РУССКОЙ КУЛЬТУРАХ Файзуллаева Зулайхо	116
27.	3- SINF MATEMATIKA DARSLARIDA FAKULTATIV MASHG’ULOTLARNI O’TKAZISH METODIKASI Norkulova Dilorom Oybekovna	119
28.	МЕҲНАТ ҚОНУНЧИЛИГИДА ХОДИМЛАРНИ РАҒБАТЛАНТИРИШНИНГ НАЗАРИЙ ВА АМАЛИЙ МУАММОЛАРИ Аъзамова Лазиза Тўлқин қизи	124
29.	ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ОРОНИМОВ ДЖИЗАКСКОЙ ОБЛАСТИ Закиров А.А, Каримов М.Б	127
30.	АЛИШЕР НАВОИЙ ШЕЪРИЯТИДА БАЪЗИ ШАХС ОТЛАРИНИНГ УНДАЛМА ВАЗИФАСИДА ҚЎЛЛАНИЛИШИ ВА УЛАРНИНГ СЕМАНТИК-УСЛУБИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ Нафиса Қувватова	130
31.	СПОСОБЫ УЛУЧШЕНИЯ ОБСЛУЖИВАНИЯ С ПОМОЩЬЮ ЯЗЫКОВ ПРОГРАММИРОВАНИЯ И ТЕХНОЛОГИЙ Асқарова Наргиза, Алихан Сайфиев	133
32.	NASRIY ASARLARDA RITORIK SO'ROQ GAP Iqboloy Fatxiddinova Faroxiddin qizi	138
33.	KOMIL INSONNI TARBIYALASHDA FUTUVVAT G‘OYALARINING O‘RNI Umarov Sardorbek Akmalovich	141
34.	KOREYA RESPUBLIKASIDA QULAY INVESTITSIYA MUHITINI SHAKLLANTIRISHNING O’ZIGA XOS JIHATLARI Ikramova Mehribon Abdushukurovna Sherov Rasul Ravshanovich	147
35.	FRAZEOLOGIZM-TILSHUNOSLIKNING MUHIM BIR BO’LIMI Shakirova Nodiraxon	153
36.	MOST IMPORTANT POINTS IN DICTIONARY COMPILING Mamatkodirova Gulnigor	157
37.	KITAP - RUWXIY DÚNYAMIZDI BAYITIWSHI KUSH SIPATINDA Gózzal Kalmuratovna Jumamuratova	161
38.	QARAQALPOG’ISTONDA MILLIY HARAKATLI O’YINLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI Erejepov Dawitbay Tortkulbaevich	164

KUZGI BUG‘DOY NAVLARINING HOSILDORLIGIGA ORGANIK VA MA’DAN O‘G‘ITLARINING TA’SIRI

Babahan Allanazarov
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali katta o‘qituvchisi
Erimov Feruz Farhod o’gli
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.6717605

Annotatsiya: Gratsiya navining boshog‘i uzunroq bo‘lib, bitta boshoq donning og‘irligi va hosildorligi yuqori ekanligi bu yuqoridagi navlarga har bir gektar maydonga 25 – 30 tonna organik o‘g‘it va ma’dan o‘g‘itlar normasi N200.P120.K.90 kg atrofida berilsa, to’g‘ri agrotexnik tadbirlar o‘z vaqtida o‘tkazilsa 100s/ga ortiq don hosil olish mumkinligi tajriba natijalari asosida aniqlandi.

Kalit so‘zlar: Sifati, don, hosili, organik o‘g‘it, ma’dan o‘g‘it, tuplanish, naychalash, suvg‘orish, suspenziya, mikroelement.

Hozirgi paytda dunyo bo‘yicha aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash iqtisodiy ijtimoiy va siyosiy muammoga aylandi.Bu ekin maydonlaridan yanada samarali foydalanish chora-tadbirlarini qo‘llashni ta’qazo etmoqda. Shuning uchun ham respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev mamlakatimizni 2017-2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha xarakatlar strategiyasida qishloq xo‘jaligida muhim vazifalardan birinchisi ekin maydonlari va ekinlar tartibini optimallashtirish ilg‘or agrotexnologiyalarni joriy etish va hosildorlikni oshirish eng ustuvor masala ekanligini ta’kidlab o‘tdi.

Shu sababdan sho‘rlangan yerlar unumdorligini oshirishda sug‘orish tamoyillari va qo‘llanilayotgan ma’dan o‘g‘itlardan samarali foydalanish kuzgi bug‘doydan yuqori va sifatli don hosili olish uni maqbul organik va ma’dan o‘g‘itlar bilan oziqlantirish me’yorlari hamda asosiy ishlov berish usullarini ishlab chiqarish va fermer xo‘jaliklarida joriy etish hozirgi davrning eng dolzarb vazifasiga aylanmoqda. Qoraqalpog‘iston respublikasida va Xorazm viloyatida tuproqlarning unumdorligni oshirish va bunday yerlarda yetishtirilayotgan kuzgi bug‘doydan yuqori va sifatli don hosili yetishtirishda organik va ma’dan o‘g‘itlarning tutgan o‘rni beqiyosdir.Chunki kuzgi bug‘doy o‘sish davrining 4-6 chi xaftasida juda talabchan bo‘lib, o‘g‘itni jadal o‘zlashtiradi. Shuningdek o‘simliklarning barcha rivojlanish davrlarida organik va ma’danli o‘g‘itlar juda zarur. Kuzgi bug‘doyni fosfor bilan me’yorida ta’minlanishi azotni yaxshi o‘zlashtirishini ta’minlaydi, ildiz tizimini rivojlanishi va generativ

organlarning shakllanishini tezlashtiradi hamda o‘simlikni qishga va qurg‘oqchilikka chidamliligini oshiradi.

Ko‘rsatib o‘tilgan muammolarning yechimini topish maqsadida 2018-2021-yillar Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filialidagi tajriba maydoni dalasida o‘g‘itlashning har -xil me’yorlarini tabaqalashtirib qo‘llash usulini kuzgi bug‘doyning har- xil o’rta pishar navlarining o‘sishi rivojlanishi don hosili va sifatiga ta’sirini aniqlash maqsadida dala tajribalari olib bordik.

Dala tajribalarini 4-takrorlashda o‘tkazilib variantlar tizimli ravishda bir yarusda joylashtiriladi. Har bir paykalchaning umumiy maydoni 480m^2 shundan hisobga olingani 240 m^2. Mineral o‘g‘itlar quyidagicha qo‘llanildi: fosforli o‘gitlarning yillik me’yorini 80% shudgor ostiga kolgan 20 % o‘g‘itlarni ekish bilan bir vaqtda kaliyning yillik me’yori shudgor ostiga azotli o‘g‘itlarning yillik me’yori teng ikkiga bo‘linib o‘simlikning rivojlanish davrida (tuplanish davrida naychalash). Tajiraba dalasida mineral o‘g‘itlardan ammiakli selitra (N-34.6 %), nitrokalsiyfosfat (NKF –A marka) tarkibida (N-6 % P2O5-16% Cao-14 %) xlorli kaliy (K2O-58-60%) qo‘llaniladi.

Laboratoriya sharoitida don urug‘ining unuvchanligi 95 foizdan yuqori urug‘lar saralanib ekishga tayorlandi va 1m^2-maydonga o‘rtacha 500 dona urug‘ taminlanib 5-6 sm chuqurlikga ekildi. Darhol sug‘orish ishlarini tashkil etib suv tanqisligini hisobga olib dalaning 50-60 metrdan qariq olib sharbat sug‘orish bilan eng samarali usuldan foydanildi. Bunda dala qanchalik katta va uzun bo‘lmasin dalaning barcha qismida bir tekisda nam saqlanib to‘liq nihol olish imkonini yaratadi. Aksincha qariqlar olinmasa dala boshida yer kuchli zaxlab ketib dala oxirida suv ko‘llaydi.Natijada dalaning o‘rtasida nihollar siyrak unib chiqib noyabr oyining o‘rtalarida nihollarda sarg‘ayish alomatlari paydo bo‘ladi.

Dalada niholning bir tekis olinmasligi hosildorlikka salbiy ta’sir qiladi. Birinchi suvdan keyin 7-8 kunda nihol to‘liq unib chiqmasa zudlik bilan takroriy sug‘orishni tashkil etildi. Respublikamizni shimoliy mintaqalarining tuproqlarni melorativ holatini, tuproq va iqlim sharoitini yaxshilab o‘rganish, sug‘oriladigan yerlarda kuzgi bug‘doy yetishtirishda tuproqni unumdorligini oshirish, almashlab yekishni joriy qilish, suvni tejap yangi agrotexnika tadbirlarni ishlab chiqish hozirgi zamon talabidir.

Tajriba natijalari shuni ko‘rsatadiki Kuzlik bug‘doyning unib chiqishi Grom va Gratsiya navida yuqoriroq ekanligi, organik va menirial o‘g‘it ham ta’siri borligi yuqori normada berilgan variantlarda unuvchanligi 3-5 % yuqori ekanligi aniqlandi.

Jadval №1

Variant	Organik o'g'it	O'g'itlash normasi	Navlar nomi	Ekishdan 14 kundan keyingi unuvchanlik	Bir tupdagi tuplanish (dona)	O'simlik poyasining balandligi		
						15- mart	15-aprel	15-may
1	15 t\ga	N150 P75 K50	Tanya	80,1	4,9	22,1	54,5	91,2
2			Grom	84,3	5,0	21,7	54,1	88,9
3			Gratsiya	84,3	5,2	23,6	58,1	98,4
4		200 P120 K90	Tanya	83,9	5,1	22,9	58,0	93,1
5			Grom	84,9	5,3	22,0	56,3	92,0
6			Gratsiya	85,2	5,6	24,1	61,4	99,6
7	30 t\ga	N150 P75 K50	Tanya	83,9	5,3	23,6	58,6	93,8
8			Grom	85,1	5,5	23,1	57,8	92,5
9			Gratsiya	85,3	5,5	24,8	61,9	100,9
10		200 P120 K90	Tanya	84,2	5,5	23,9	59,1	94,1
11			Grom	85,7	5,6	23,8	58,2	93,0
12			Gratsiya	86,1	5,9	25,7	62,7	102,6
13	Kantrol			79,5	2,6	12	30,6	51,4

O'simliklarnig tuplanish fazalarida navlar bo'yicha kuzatilganda Gratsiya navida tuplar soni ko'pligi organik va ma'dan o'g'itlar tuplanish fazsiga ta'sir etib tuplar soni 1-2 dona ko'pligi aniqlandi. Qish faslida ham kuzatishlar olib borilgan Qoraqalog'iston va Xorazm viloyatlarida sho'rlangan tuproqlarga ushbu nav mosligi kuzatildi.

Mart oyining 15 kunidan 15-may oyigacha poya uzunligi va o'simlikning o'sish rivojlanish jarayonlari Grom va Gratsiya navlarida yuqori ekanligi poyasi 10-12 sm uzunligi tajriba natijalari asosida aniqlandi. Pishish davridagi kuzatishlar shuni ko'rsatadiki Tanya navi Grom va Gratsiya navlariga nisbatan boshog'i tez pishib ular orasida farqlar 3 – 4 kunni tashkil qildi. Bug'doyding boshoq uzunligini ustida kuzatishlar o'tkazilganda Gratsiya navining boshog'i uzunrok bo'lib, bitta boshog'idagi don va unning og'irligi va hosildorligi yuqori ekanligi tadqiqot natijalari asosida aniqlandi. Tajriba natijasi har bir gektar maydonga 25 – 30 tona organik o'g'it, va mineral o'g'itlar normasi N200.P120.K.90 kg atrofida berilsa to'g'ri agrotexnik tadbirlar o'z vaqtida o'tkazilsa 90-100 s/ga don hosil olish mumkinligi tajriba natijalari asosida aniqlandi.

1. Tuproqga qancha ko‘p miqdorda mahalliy go‘ng solinsa, shuncha ko‘p uglerod ajralib chiqib, o‘simlikni havodan oziqlanish jarayonini tezlashib qurg‘oqchilikka bo‘lgan chidamliligini oshiradi, Mahalliy o‘g‘itlarning asosiy qismini qoramol go‘ngi tashkil qilib tarkibidagi azot (0,4-3,0%) fosfor (0,2- 0,6%) va kaliydan (0,5-3,0%) tashqari, 2jadval mikroelementlar (bo‘r, marganes, kobalt, mis, rux va boshqalar), hamda uglerod bo‘lgani uchun ham qimmatli o‘g‘it hisobiga don xosili 7-10 s\ga oshdi.

Variant	Organik o‘g‘it	O‘g‘it meyori	Navlar nomi	Boshoqlash sanasi	To‘liq pishish sanasi	Boshoqning uzunligi (sm)	Bir dona boshoqdagi donlar soni	Boshoqdagi bir dona donning og‘irligi (gr)	Xosildorlik s/ta
1	15t/ga	N150 P75 K50	Tanya	25,04	26,05	10,2	42,3	1,67	66,3
2			Grom	25,04	27,05	9,7	41,6	1,62	63,4
3			Gratsiya	27,04	27,05	10,3	43,1	1,71	70,1
4		200 P120 K90	Tanya	26,04	27,05	10,3	42,9	1,68	69,6
5			Grom	26,04	27,05	10,1	42,7	1,64	67,3
6			Gratsiya	27,04	28,05	11,0	42,0	1,72	75,8
7	30 t\ga	N150 P75 K50	Tanya	26,04	29,05	10,9	43,3	1,69	72,1
8			Grom	27,04	29,05	10,5	43,3	1,66	71,7
9			Gratsiya	28,04	30,05	11,6	42,9	1,73	79,3
10			Tanya	26,04	30,05	11,8	44,2	1,70	74,6
11			Grom	27,04	30,01	11,0	44,0	1,67	73,9
12			Gratsiya	28,04	1,06	12,3	45,6	1,75	81,4
13	Kantrol			24,04	24,0	5,2	11,3	0,36	12,3

2. O‘simliklarnig tuplanish fazalarida navlar bo‘yicha kuzatganimizda Gratsiya navida tuplar soni ko‘pligi organik va mineral o‘g‘itlar tuplanish fazasiga ta’sir etib tuplar soni 1-2 dona ko‘pligi aniqlandi. Qish faslida ham kuzatishlar olib borilganda

Qoraqalog’iston va Xorazm viloyatlaridagi sho‘rlangan tuproqlarga ushbu navlar mosligi kuzatildi.

3. Bunda har gektariga 30-40 tonna go‘ng sof holda o‘rtacha 200 kg azotli 120 kg fosforli 90 kg kaliyli o‘g‘itlarni muddatida qo‘llash tavsiya etiladi.Qo‘llaniladigan 1 kg NPK xisobiga 7-8 kg don olinadi.Galladan oziqlantirishda fosforli kaliyli o‘g‘itlar qo‘llanilmasdan faqat azot o‘g‘itlari ishlatilsa bug‘doyning o‘sish davri cho‘zilib ketadi.Don sifati pasayadi o‘simlik barglarida ko‘p miqdorda qand va kraxmal to‘planib boshoqqa o‘tmaydi barglardagi fiziologik jarayonglar juda sekinligi sabab kasalliklar ko‘payadi va o‘simlik zaiflashadi barglarida dog‘lar paydo bo‘ladi so‘ngra bujmayip qurishgacha boradi, oqibatda ildizi ko‘proq zarar ko‘radi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I. Holimov, M Sattarov. "Yangi bug‘doy navlaridan yuqori hosil olish usullari"2001-yil Uzbekiston agrar fani xabarnomasi 2001-yil №1
2. V Gostyuxin. Vliyaniye srokov piyenis na poivnye i urojanye kachestva seyan.Jurnal selskoye xozyaystva uzbekistana 2001g №1
3. Dala tajribalarini o‘tkazish usullari Toshkent O‘zPITI 2007-147b.
4. R.Siddiqov "Maysa parvarishda dekabr oyida nimalarga etibor berish kerak"."Uzbekiston qishloq xo‘jaligi" 2018 №12 10 bet
5. R.Siddiqov va boshqalar “G‘allakor ishga-kirishdi” Uzbekiston qishloq xo‘jaligi 2017-yil №9 21-22 bet.

MA’MURIY SUDLARNING O’ZBEKISTONDA TAKOMILLASHIB BORISHINING HUQUQIY ASOSLARI

Soliev Azizbek Sodirjon o'g'li
Namangan viloyati Yuridik texnikumi 204-guruh talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.6717619

Annotatsiya: Mazkur maqolada 2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi asosida sudlarining vakolatlarini qayta ko’rib chiqish yo’li bilan Ma’muriy sudlarni tashkil etish, O’zbekiston Respublikasining Ma’muriy sud ishlarini yuritish to’g’risidagi kodeksining qabul qilinishi, Ma’muriy sudlarning takomillashib borishining huquqiy asoslari yoritilgan.

Kalit so’zlar: sud vakolatlari, taraflar, ma’muriy sudlar, kodeks, strategiya, ma’muriy yustisiya.

Annotation: This article deals with the establishment of Administrative Courts by reviewing the powers of the courts on the basis of the Action Strategy for the Development of the Republic of Uzbekistan for 2017-2021, the Codex of Administrative Procedure of the Republic of Uzbekistan opinion on measures to ensure the effective protection of the rights of the parties in administrative proceedings.

Keywords: jurisdiction, parties, conciliation agreements, strategy.

Аннотация: В данной статье речь идет о создании административных судов путем пересмотра полномочий судов на основе принятия Стратегии развития Республики Узбекистан на 2017-2021 годы, Административно-процессуального кодекса Республики Узбекистан, правовая основа для совершенствования административных судов.

Ключевые слова: подсудность, стороны, административные суды, кодекс, стратегия, административная юстиция.

Bugungi kunda Respublikamizda Ma’muriy yustitsiyaga alohida ehtibor berilmoqda. Xususan, 2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasining ahamiyati katta bo’lib, fuqarolik, jinoyat ishlari bo’yicha sudlar va xo’jalik sudlarining vakolatlarini qayta ko’rib chiqish yo’li bilan Ma’muriy sudlarni tashkil etish nazarda tutildi. Konstitutsiyamizga 2017 yil 6 aprelda sud tizimiga oid o’zgartish va qo’shimchalar kiritilib Ma’muriy sudlar tashkil etildi. «O’zbekiston Respublikasida Ma’muriy islohotlar kontseptsiyasini tasdiqlash to’g’risida» gi 2017 yil 8 sentyabrdagi Farmonga binoan Ma’muriy yustitsiya tizimini yanada takomillashtirishga ehtibor qaratildi. Ma’muriy sudlarning tashkil eg’tilishi 2018 yil 8

yanvarda O’zbekiston Respublikasining «Ma’muriy tartib taomillar to’g’risida»gi Qonuni va 2018 yil 25 yanvarda qabul qilingan O’zbekiston Respublikasining Ma’muriy sud ishlarini yuritish to’g’risidagi kodeksi bilan mustahkamlab qo’yildi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 iyuldagi PF-6034-sonli «Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida»gi Farmoni bilan 2021 yil 1 yanvardan viloyat va unga tenglashtirilgan fuqarolik ishlari bo’yicha, jinoyat ishlari bo’yicha sudlar va iqtisodiy sudlar negizida sudg’yalarning qathiy ixtisoslashuvini saqlab qolgan va sud ishlarini yuritish turlari bo’yicha alohida sudlov hayhatlarini tashkil etgan holda Qoraqolpog’iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar umumyurisdiktsiya sudlarini tashkil etilib, Ma’muriy huquqbuzarliklar to’g’risidagi ishlarni ko’rib chiqish vakolatini Ma’muriy sudlardan jinoyat ishlari bo’yicha sudlarga o’tkazildi. Xalqaro miqyosdagi tajribalar, jarayonlar va mamlakatimiz bosib o’tgan taraqqiyot natijalari chuqur tahlil qilgan holda «inson qadri uchun» tamoyili asosida xalqimiz farovonligini yanada oshirish, inson huquqlari va manfaatlarini so’zsiz tahminlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo’nalishlarini belgilash maqsadida Prezidentimizning 2022 yil 28 yanvardagi kungi PF-60 sonli Farmoni bilan 2022-2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi tasdiqlandi. Jumladan, taraqqayot strategiyasining ikkinchi yo’nalishi «mamlakatimizda adolat va qonun ustivorligi taraqqayotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish» deb nomlandi. Ushbu Farmon bilan davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan samarali sud nazoratini o’rnatish hamda fuqaro va tadbirkorlarning odil sudlovga erishish darajasini oshirish maqsadida, Ma’muriy sudlarda mansabdor shaxslarning qarorlari ustidan berilgan shikoyatlarni ko’rib chiqish mexanizmini takomillashtirish orqali sud nazoratini qo’llash sohasini kengaytirishga alohida ahamiyat berildi. 2022 yil 29 yanvarg’ kungi «Davlat organlari bilan munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlik sub’ektlari huquqlarining samarali himoya etilishini tahminlash hamda aholining sudlarga bo’lgan ishonchini yanada oshirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi PQ-107 sonli Qarori qabul qilindi. Mazkur normativ hujjatlar asosida olib borilayotgan islohatlarning samarasi Ma’muriy sudlarning maqsad va vazifalari, Ma’muriy yustitsiya haqida fuqarolarimiz tomonidan yetarlicha bilim va tasavvurning mavjud bo’lishiga bog’liqdir.

Konstitutsiyamizning 44-moddasida har bir shaxsning o’z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g’ayri qonuniy hatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanishi belgilab qo’yilgan.

Ma’muriy yustitsiya-jismoniy va yuridik shaxslarning Ma’muriy organlar bilan o’zaro munosabatlarida vujudga keladigan ommaviy xarakterdagi nizolarni hal etishga qaratilgan tashkiliy huquqiy mexanizm hamda har bir shaxsga huquq va

erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g’ayriqonuniy hatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilishdek konstitutsiyaviy huqlarni ta’minlashga xizmat qiladi.

Xorijiy davlatlar tajribasiga ko’ra Germaniya, AQSH, Rossiyada Ma’muriy yustitsiya uch xil modelda tashkil etilganligini ko’rish mumkin. Ya’ni Ma’muriy yustitsiyaning umumiy, kvazi, maxsus sudlov shakllari amal qiladi.

Germaniya sud tizimi: konstitutsiyaviy sudlar, umumiy sudlar (fuqarolik va jinoyat ishlari sudlarini o'z ichiga oladi), ma'muriy sudlar, mehnat sudlari, ijtimoiy sudlar, moliyaviy sudlar ga bo’linadi. Germaniya sudlarining o'ziga xosligi ularning ixtisoslashganligidadir. Masalan, ma'muriy sudlar moliyaviy, itimoiy va konstitutsiyaviy huquqbuzarliklarda boshqa barcha huquqiy munosabatlar bo'yicha ishlarnni ko'rib chiqadi, umumiy sudlar esa jinoiy, fuqarolik, oilaviy va mulkiy masalarga oid isharni ko'radi, mehnat sudlari ishchilar va korxonalar o'rtasidagi munosabatlarni hal qiladi, ijtimoiy sudlar ijtimoiy xavfsizlikka oid ishlar, xususan, sog'liqni saqlash, sug'urta, ‘ensiya va boshqa ijtimoiy ta'minotga oid masalarni hal etadi, moliyaviy sudlar esa soliq va yig'imlarga taaluqli ishlarni ko'radi[1].

O'zbekiston sud tizimiga Germaniyada takidlangan sud tarmoqlarini kengaytirish va ixtisoslashtirish hamda ishni ko'rib chiqayotgan sudya va xalq maslahatchilarining mavqeyi hamda ‘rofessional bilimiga qo'yladigan talablar oshirilishi tadbiq etilganiligini ko’rishimiz mumkin. Aynan yangi tahrirdagi «Sudlar to’g’risida» gi Qonunning 4-moddasi bilan sudlarga yuklatilgan vazifalar doirasi kengaytirildi. Endilikda sudning asosiy vazifalariga fuqarolarning Konstitutsiya va boshqa qonunlar, xalqaro shartnomalarda, shuningdek inson huquqlari to’g’risidagi xalqaro hujjatlarda kafolatlangan huquqlari hamda erkinliklari bilan birga davlat va jamoat manfaatlarini, yuridik shaxslar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlarning huquq va qonun bilan qo’riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish kiritildi. Germaniya sud tizimida mavjud Ma’muriy sudlarning respublikamizda tashkil etilishi va sud ishlarini yuritish jarayonida sudyalarning yuridik shaxslar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlarning huquq va qonun bilan qo’riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish kabi vazifalarining belgilanishi Ma’muriy sudlarning odil sudlov instituti sifatida shakllanishiga asos bo’ladi.

Germaniya kabi Yaponiya tajribasi ham o‘rganildi. Xususan, Ya’oniyaning “Ma’muriy sud ishlarini yuritish to’g’risida”gi Qonuniga muvofiq, ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ma’muriy ishlarni birinchi instansiya sudlari sifatida okrug sudlari ko‘rib chiqishishi, umumiy yurisdiksiya sudlari (summary courts) jarima yoki boshqa yengilroq bo‘lgan jazo tayinlanadigan huquqbuzarliklar bo‘yicha ishlarni ko‘rib chiqishi kuzatildi.

[1] Саидов А.Х. Ҳуқуқ метафизикаси, давлат ҳуқуқи, ҳуқуқ ва адабиёт.Тошкент.2016. -Б.176, 177.

Germaniyada ma’muriy sudlarning vazifasi Federal Ma’muriy sud boshchiligida boshqaruv jarayonida fuqarolar huquqlariga rioya qilish masalasi bo’yicha davlat xizmatchilari ustidan fuqarolarning da’vo arizalari, davlat xizmatchilarining o’z huquqlari masalasi bo’yicha nizolari, atrof-muhit muhofazasi masalalari, Ma’muriy hududiy birliklar o’rtasidagi nizolarni ko’rib chiqadi.

Jismoniy va yuridik shaxslarning hukumat hujjatlari ustidan shikoyatlarini ko‘rib chiqish orqali, ommaviy-huquqiy xarakterdagi nizolarni hal qiladi. Mazkur sudlar fuqarolarni davlat hokimiyati organlari bilan o‘zaro munosabatlarda himoya qilishga xizmat qilishadi. Shunday qilib, Germaniyada ma’muriy sudlar tomonidan ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlar ko‘rib chiqilmaydi[2]. Nizo, eng avvalo, yuqori turuvchi Ma’muriy organ tomonidan ko’rib chiqiladi. Agar fuqaro qabul qilingan qarordan norizo bo’lsa, Ma’muriy sudga murojaat qilishi mumkin. Bu bir tarafdan Ma’muriy sudlarning ish hajmining ortib ketmasligiga sabab bo’lsa, ikkinchi tarafdan esa Ma’muriy organlarning ommaviy-huquqiy tusdagi nizolarni ko’rib chiqishdagi faolligining ortishiga sabab bo’ladi. Hozirgi kunda Germaniya ma’muriy sudlarining tizimi O’lka ma’muriy sudi, O’lka oliy ma’muriy sudi, Federal ma’muriy sudidan iborat. Ma’muriy sudlarni tashkil etishga munosabatlar 1960 yilda qabul qilingan «Ma’muriy ishlar bo’yicha sudlar to’g’risida»gi qonun bilan tartibga solinadi. Shu yilda qabul qilingan «Ma’muriy sud ishlarini yuritish to’g’risida»gi qonun bilan ishlarni Ma’muriy sudlar tomonidan ko’rib chiqilishiga doir protsessual munosabatlarni tartibga soladi.(Aynan respublikamizda sud huquq tizimiga juda yaqin masalan, MSIYutK amalga joriy etilishi, ma’muriy sudlarning tashkil etilishi kabi-dissertant -M.U.) Fransiyada ma’muriy sudlar, Germaniya ma’muriy sudlari singari, fuqarolarning shikoyatlari asosida faqat davlat organlarining ma’muriy aktlari qonuniyligini tekshirishadi va ommaviy-huquqiy xarakterga ega bo‘lgan sud ishlarini olib borishga ixtisoslashgan.

Rossiya Federatsiyasida ham ma’muriy yustitsiyaning umumiy sudlov shakli amal qiladi. Unga ko’ra ommaviy-huquqiy nizolar ixtisoslashmagan, ya’ni umumiy yurisdiktsiya sudlari tomonidan ko’rib chiqib hal etiladi hamda alohida qonunchilik bilan tartibga solinadi. Bu boradagi odil sudlov Rossiya Federatsiyasining 2015 yil 8 martdagi Ma’muriy sud ishlarini yuritish to’g’risidagi kodeksiga asoslanib olib boriladi.Rossiya Federatsiyasida ma’muriy sudlarni tashkil etish bo’yicha takliflar berilib «2023 yilgacha bo’lgan davrda umumiy yurisdiktsiya sudlarini rivojlantirish va ularning faoliyatini tashkiliy tahminlashni takomillashtirish bo’yicha Dastur» tasdiqlangan[3].

[2] https:hsti Абдуллаев Р. Маъмурий судлар томонидан оммавий ҳуқуқий муносабатлардан келиб чиқадиган ишларни кўриб чиқиш самарадорлигини ошириш масалалари.02.03.2020.
[3] <http://pslrf/ru/2014/2/6.pdf>

Olimlardan A.Vlasov ixtisoslashtirilgan sudlargina ma’muriy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarni ko’rib chiqishi mumkinligini bildiradi[4]. Uning fikrini olimlardan A.Sapojnikov «ma’muriy sud larni tashkil etish qonun chiqaruvchining konstitutsiyaviy burchi bo’lib, bu konstitutsiyadagi qoidani mustahkamlagan holda Rossiyani Umumevropa standartlari darajasiga olib chiqadi» deya qo’llab quvvatlaydi. Olimlardan A.Chirinov sudyalarni ma’muriy ishlarga ixtisoslashtirishni taklif etib, Rossiya Federatsiyasida ma’muriy sudlarni tashkil etishning zarurati yo’q ekanini Angliya va AQSH singari dapvlatlarda ixtisoslashgan ma’muriy sudlar bo’lmasa-da, bu davlatlarda inson huquqlarining himoyasi ixtisoslashgan ma’muriy huquq mavjud bo’lgan Germaniyadan kam darajada emasligi bilan izohlaydi. AQSHda esa ijro xokimiyati organlari va ularning mansabdor shaxslari qarorlari qonuniyligi ustidan nazoratni tahminlaydigan kvazi sudlar yoki tribunallar tashkil etilgan. Kvazi turdagi sudlarga 1969 yilda tashkil etilgan Soliq ishlari bo’yicha Qo’shma SHtatlar sudi misol bo’laoladi. 1950 yilda tashkil topgan Qurolli kuchlar ishlari bo’yicha apellyatsiyaviy sudi birinchi instantsiya sifatida harbiy tribunallar tomonidan ko’rib chiqilgan ishlar bo’yicha qabul qilingan qarorlar yuzasidan kelib tushadigan ishlarni ko’rib chiqadi. 1988 yilda asos solingan Veteranlar da’vosi bo’yicha Qo’shma Shtatlar apellyatsiyaviy sudi veteranlar shikoyatini ko’rib chiquvchi hayhatning qarorlarini ko’rib chiqish vakolatiga ega. Ijro etuvchi hokimiyat tarmog’idagi davlat boshqaruvi organlari tarkibida tashkil etilgan tribunallarda 1300 nafardan ortiq ma’muriy nizolar bo’yicha sudg’yalar faoliyat olib boradi[5].

Ma’muriy yustitsiya jismoniy va yuridik shaxslarning ma’muriy organlar bilan o’zaro munosabatlarida vujudga keladigan ommaviy-huquqiy xarakterdagi nizolarni xal etishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy mexanizm bo’lib, milliy va xorijiy mamlakatlarlar tajribasi uni uch xil shaklda, yahni umumiy sudlov shakli, kvazi sudlov shakli, maxsus sudlov shaklida tashkil etish mumkin ekanligini ko’rsatdi. Bugungi kunda esa, ma’muriy sudlar tizimini o’timallashtirish maqsadida tuman ma’muriy sudlarini tumanlararo sudlarga aylantirildi, qonun hujjatlariga xorijiy tajribalarni o’rganish, tahlil qilish natijasida o‘zgartirishlarning kiritilishi ma’muriy sudlarning ish hajmi kamayishiga olib keldi, ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarni ko‘rib chiqish samaradorligi esa yanada oshirildi.

Aynan O’zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2022 yil 29 yanvarda “Davlat organlari bilan munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlik subhektlari huquqlarining samarali himoya etilishini tahminlash hamda aholining sudlarga bo’lgan ishonchini yanada oshirish chora-tadbirlari to’g’risida ”gi PQ-107-sonli

[4] Власов А.В. Какой будет административная юрисдикция?//российская юрисдикция.-2002.-№-11.-С.17.
[5] Қосимов Б.Маъмурий юстиция вау ни ташкил этиш шакллари: миллий ва хорижий тажриба//Юридик фанлар ахборотномаси.2018 й.№2.-Б.22.

qarori ham jamiyatda ma’muriy sudlarning rolini kuchaytirish, ularni fuqaro va tadbirkorlik sub’ektlarining haqiqiy himoyachisiga aylantirish maqsadida taraflarga, ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlar bo’yicha kelishuv bitimini tuzish huquqini berish, davlat organlari yoki tashkilotlari ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ish bo’yicha hal qiluv qarorini u qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab bir oy davomida ijro qilish hamda bu haqida ma’muriy sudga xabar berish, sud hujjati ijro qilinmaganligi uchun mansabdor shaxslarga nisbatan sud jarimasini qo’llash, sudlar tomonidan da’vo arizasi, ariza hamda shikoyatni sudga taaluqli bo’lmaganligi sababli qabul qilishni rad etish yoki ish bo’yicha ish yuritishni tugatishni tahqiqlash, bunda da’vo arizasi, ariza, shikoyat yoki ishni ularni ko’rib chiqishga vakolatli sudga o’tkazish kabilar belgilangan.

HUQUQ USTUVORLIGI TUSHUNCHASINING KONSTITUTSIYA VA QONUN USTUNLIGI PRINSPI BILAN O‘ZARO ALOQADORLIGI

Parxatov Mardonbek Davronbekovich
Toshkent davlat yuridik universiteti
Ommaviy axborot vositalari huquqi yo‘nalishi magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.6717645

Annotatsiya: O‘z oldiga huquqiy demokratik davlat qurishni maqsad qilgan O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab davlat va jamiyat hayotida huquq ustuvorligini ta’minlash bo‘icha bir qator ishlar amalga oshirildi. huquq Huquq ustuvorligi har bir shaxsning Konstitutsiyada va qonunlarda belgilab qo‘yilgan huquq va erkinliklarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri, mustaqil amalga oshirishlaridir. Mazkur ishda Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlash bo‘yicha va uning nazorati bo‘yicha davlatimizda amalga oshirilayotgan ishlar va ularning huquqiy mexanizmlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, huquq, huquq ustuvorligi, qonun ustuvorligi, demokratik davlat, huquqiy madaniyat.

Аннотация: С первых лет независимости Республика Узбекистан, стремящаяся построить демократическое правовое государство, сделала ряд шагов для обеспечения законности в жизни государства и общества. Верховенство закона – это прямое, независимое осуществление прав и свобод каждого человека, закрепленных в Конституции и законах. В данной работе основное внимание уделяется проводимой в нашей стране работе по обеспечению верховенства Конституции и законности и контроля над ней, их правовых механизмов.

Ключевые слова: Конституция, закон, правовое государство, правовое государство, демократическое государство, правовая культура.

Annotation: From the first years of independence, the Republic of Uzbekistan, which aims to build a democratic state based on the rule of law, has done a number of things to ensure the rule of law in the life of the state and society. The rule of law is the direct, independent exercise of the rights and freedoms of each person as enshrined in the Constitution and laws. This work focuses on the work being done in our country to ensure the rule of law and its control, and their legal mechanisms.

Keywords: Constitution, law, rule of law, rule of law, democratic state, legal culture.

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasi tashkil topgan dastlabki kunlardanoq huquq ustuvorligini ta’minlash asosiy kun tartibidagi masalaga aylandi. Shu bilan birga

mazkur ishni amalga oshirish uchun inson va fuqorolarning huquq va erkinliklari shu bilan birga majburiyatlari aks etgan Konstitutsiya zarur edi. 1992-yil 8 dekabrda uchinchi marta umumxalq muhokamasi yakunlari bo'yicha xalqimiz ijod maxsuli bo'lgan qomusimiz - Konstitutsiyamiz qabul qilindi[6]. Prizidentimiz Shavkat Mirziyoyev Konstitutsiyamiz haqida "Xalqimizning siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasi bo'lgan Konstitutsiyamiz yurtimizda demokratik davlat va fuqorolik jamiyati barpo etish, O'zbekistonning xalqaro maydonda munosib o'rin egallashida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda",[7] - degan edilar.

Huquq – ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi, qonun hujjatlarida ifodalangan adolat va erkinlik g'oyalariga asoslangan me'yoriy qoidalar tizimidir.

Huquq ustuvorligi – bu davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari chiqarayotgan normativ hujjatlari, mansabdor shaxslar va fuqarolarning xatti-harakatlari faqat va faqat Konstitutsiya hamda qonunlarga muvofiq bo'lishi shart, deganidir. Zero Konstitutsiya va qonunlar jamiyat hayotining barcha sohalarini qamram oladigan eng muhim huquqiy hujjatlar ekanligidan kelib chiqilsa, huquq usuvorligini ta'minlash jarayonida ularni o'rganish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda huquq ustuvorligini qonun ustuvorligidan farqlash lozim.

Qonun ustuvorligi – konstitutsiya va qonunlarning oliy yuridik kuchga ega ekanligi bo'lib, ularning mamlakatdagi boshqa barcha normativ huquqiy hujjatlardan ustunligidir.

Konstitutsiyaviy o'z normalari orqali inson, uning huquq va erkinliklarini oliy qadriyat darajasiga ko'taradi, shaxs va davlat munosabatlarida shaxs manfaatlarining ustuvorligini belgilaydi, ijtimoiy adolat prinsipini bosh prinsip darajasiga ko'taradi, hokimiyat tuzilmalari tashkil qilinishining aniq tartibini belgilaydi va ularning faoliyatini qonun doirasida chegaralaydi. Konstitutsiyaga, shulardan kelib chiqib, hokimiyat va erkinlik o'rtasidagi munosabatda mutanosiblikni o'rnatuvchi, ta'minlovchi vosita deb ham ta'rif bersa bo'ladi. Aynan shunlardan ham ko'rishimiz mumkinki Konstitusiya davlatning eng oliy qonuni hisboblanadi.

Huquq ustuvorligini ta'minlashga erishishda jamoatchilik nazoratidan ko'ra samarali vosita yo'q deb o'ylaymiz. Buyuk yunon mutaffakkiri Aflotun shunday degan edi: "Xalq qonunlarga ehtiyoj sezib, ularni puxta o'rgansa, bu faqat uning o'ziga foyda keltiradi. Aks holda qonundan ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi"[8]. Darhaqiqat, xalqimiz qonun buzilishiga qat'iy qarshi turmagunicha, davlat organlari, mansabdor shaxslar har qancha urinmasin, qonun ustuvorligini ta'minlash qiyin bo'ladi. Qonuniylik prinspi-bu barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar, xizmatchilar, jamoat birlashmalari, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning

[6] Azizxo'jayev A.A. va boshq. Konstitutsiyaviy huquq (izohli lug'at).-T.: Akademiya, 2001.
[7] Mirziyoyev Sh. "Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. T.: "O'zbekiston".2018.3-tom.58-bet.
[8] Odilqoriyev X.T, Muxammedov O'.X., Saidov B.A. Konstitutsiyaviy huquq. – Toshkent: Adolat, 2014.

qonun va boshqa qonun hujjatlariga og'ishmay amal qilishidir. Bundan ko'rishimiz mumkinki qonunlarga amal qilish barchamizning vazifamizdir. Shu o'rinda takidlab o'tish joizki Birinchi Prizidentimiz Islom Karimov "Qonuniylik va huquq tartibot tantana qilmasa, shaxsning huquqlari va erkinliklar, qattiq intizom, ichki uyushqoqlik va ma'suliyat ustuvir bo'lmasa, qonun va an'analar hurmat qilinmasa, huquqiy davlatni tasavvur qilib bo'lmaydi",[9] - deb qonuniylikning ahamiyatini aniq ko'rsatib bergan edilar. Zeroki qonunlarga amal qilish rivojlanish va farovonlik garovi ekanligini jahon tajribasi isbotlagan.

Bugun jamoatchiligimiz tom ma'noda uyg'ondi, endilikda oddiy aholi ham qonunchilik muhokamasida ishtirok etish, shu bilan birga turli lavozimdagi mansabdor shaxslarning xatti-harakatlariga bevosita baho berib, o'z fikrini erkin ifoda etishga o'rganmoqda. Shunday ekan huquq ustuvorligini ta'minlashda davlat organlari va fuqorolar hamjamiyatlikda faoliyat yuritishi ya'ni fuqorolar o'z haq-huquqlarini, shu bilan birga majburiyatlarini amalga oshirishi, davlat esa o'z navbatida ana shu huquq va erkinliklarni ta'minlashi va fuqorolarning bildirgan talablarini qonun doirasida qanoatlantirishi lozim. Yuqoridagilardan ko'rishimiz mumkinki aholi huquqiy madaniyati o'sib bormoqda. Shu o'rinda huquqiy madaniyatga alohida e'tibor qaratish lozim deb o'ylayman.

Huquqiy madaniyat - jamiyatning huquq normalariga bo'lgan obyektiv munosabati bo`lib, o`z ichiga huquqiy bilimlar to'plamini qamrab oladi. E.V.Agranovskaya fikricha, huquqiy madaniyat jamiyatning umumiy madaniyatining bir qismi bo'lib, inson va huquq sohasida o'rtasidagi munosabatlarni qamrab oladi[10]. Huquqiy madaniyat o`z navbatida qonunni tushunish, qabul qilish hamda unga ongli ravishda rioya etish, ijro etish kabi xususiyatlarni ham qamrab oladi.

O'tgan besh yilda boshqaruvning zamonaviy usullarini joriy etish, nazorat va tekshirish shakllarini takomillashtirish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari rahbarlari va viloyatlar hokimlarining ko'p qirrali vazifalarni amalga oshirishdagi talablarini kuchaytirish va shaxsiy mas'uliyatini oshirish bo'yicha muayyan chora-tadbirlar amalga oshirildi. Davlat qurilishi, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni chuqurlashtirishni ta'minlash, respublikalarning barqaror va jadal rivojlanish imkonini bermoqda. Buni quyidagi statistik ma'lumotlar bilan asoslaymiz.

Jamiyatda huquq ustuvorligini ta'minlash borasida qilingan ishlar natijasida jahonga mashxur AQSHning Vashington shahrida joylashgangan dunyo bo'yicha davlatlarning huquq ustuvorligini aniqlovchi Rule of Law Index tashkiloti tomonidan 2021-yil 14-oktabrda e'lon qilgan reytining natijalariga ko'ra O'zbekiston Respublikasi 139 davlat ichida 85 o'rinda qayd etildi[11]. Bu ko'rsatkichni oldingi

[9] Karimov.I.A.. "O'zbekiston-kelajagi buyuk davlat".-T.: "O'zbekiston". 1992. 38-bet.
[10] Аграновская Е.В. Правовая культура и обеспечение прав личности. — М.:Наука, 2012. — 12-15 с.
[11] https://worldjusticeproject.org/

reytingga solishtirganda mamlakatimiz 14 pog‘ana yuqorilaganini ko‘rishimiz mumkin. Rule of Law Index tashkilotchilarning fikriga ko‘ra 2020-2021 yillarda butun dunyoda huquq ustuvorligi zaiflashdi. Bunga asosiy sabab esa global muommo hisoblangan COVID-19 ta’siridan hukumatlar o‘z vazifalarini amalga oshirishda bir qator muommolarga duch keldilar, buning natijasida esa ijtimoiy, siyosiy adolatning ta’minlanishida turli qiyinchiliklar yuzaga keldi. Shunday og‘ir vaziyatda O‘zbekistonimizning 14 pog‘ana yuqorilagani mamlakatimizda inson huquqlari va davlat boshqaruvi, korrupsiyaga qarshi kurash va ochiq hukumat sohasida amalga oshirilayotgan tub islohatlarning samarasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Karimov.I.A. “O‘zbekiston-kelajagi buyuk davlat”.-T.: “O‘zbekiston”.1992. 38-b.

2. Mirziyoyev Sh.M. “Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo’ladi. -T.: “O‘zbekiston”. 2018. 3-tom.

3. Azizxo'jayev A.A. va boshq. Konstitutsiyaviy huquq (izohli lug‘at).-T.: Akademiya, 2001.

4. Odilqoriyev X.T, Muxammedov O‘.X., Saidov B.A. Konstitutsiyaviy huquq. – Toshkent: Adolat, 2014.

5. Аграновская Е.В. Правовая культура и обеспечение прав личности. — М.:Наука, 2012. — 12-15 с.

6. Internet manbasi: https://worldjusticeproject.org/

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING KREATIV FIKRLASH QOBILIYATLARINING RIVOJLANISHIDA YARATILGAN YANGI DARSLIKLARNING AHAMIYATI

Mayorova Zamira
Buxoro viloyati G'ijduvon tumani 60-maktabning
boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.6717671

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatlarining rivojlanishida yaratilgan yangi darsliklarning ahamiyati va afzalliklari haqida bir qancha fikrlar bildirilgan. Shuningdek, milliy dastur asosida yaratilgan 1-2 sinflarning ona tili va o'qish savodxonligi kitoblarida berilgan topshiriqlarning o'quvchilarning kreativ fikrlashlarida, o'z fikrlarini aniq, ravon, to'liq bayon etishlarida yuqori ahamiyat kasb etishi haqida bir qancha misollar keltirish orqali isbotlab berilgan.

Kalit so'zlar: Milliy dastur, intelektual salohiyat, ilg'or, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, kreativ fikrlash, PIRLS,TIMSS, PISA,TALIS, xalqaro baholash dasturlari, grammatik savodxonlik.

Mamlakat ravnaqi va taraqqiyotini ta'lim istiqboli, yosh avlodning ma'naviy kamoloti belgilaydi. Kelajak egalarining zamonaviy bilim,intelektual salohiyat, ilm-u ma'rifat, erkin fikr, ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish, jahonda e'tirof etilgan uslub va an'analarni qo'llash malakasiga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Ta'lim tizimidagi islohotlar ana shu maqsadga qaratilgan bo'lib, xalqaro mezon asosida dunyoning yuksak taraqqiy etgan davlatlarida qo'llanayotgan va katta samara berayotgan ta'lim texnologiyalari, baholashning xalqaro talablariga muvofiq bo'lishiga qaratilmoqda. Dunyoning yuksak taraqqiy etgan davlatlarida ta'lim sohasida boholashning PIRLS,TIMSS, PISA,TALIS kabi xalqaro baholash dasturlari amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etilmoqda. Shu sababli ham boshlang'ich sinflardanoq o'quvchilarning mana shu xalqaro baholash dasturlariga tayyorlash maqsadida milliy o'quv dasturini amaliyotga samarali joriy etish va darsliklarni yangilash vazifasi turadi. Shunga muvofiq 1-2-sinflarning darsliklari yangilandi, ona tili va o'qish savodxonligi yaxlitlanib olindi.Mamlakatimiz tayanchi bo'lgan yosh avlodni har tomonlama bilimli, intelektual salohiyatga ega, o'zining g'oyalari bilan dadil harakat qilishga undaydigan ta'lim dasturlari esa bugun pedagog xodimlarga zarur. Chunki milliy o'quv dasturida bo'ladigan har bir yangilik, darsliklardagi o'zgarishlar, shubhasiz biz o'qituvchilarni qiziqtiradi, o'z ustimizda ko'proq ishlashga, o'z fanimizni puxta o'rganishga yo'naltiradi. Avvalgi o'quv dasturlari

mazmuni 90% nazariyadan iborat bo'lgan bo'lib, o'qitish metodikasi yodlatishga yo'naltirilgan bo'lsa, yangi milliy o'quv dasturining mazmuni esa 50% nazariya, 50% amaliyotdan iborat bo'lib, o'quvchilarni kreativ fikrlashlariga, mustaqil faoliyatini qo'llab- quvvatlashga qaratilgan. Shuningdek, o'quv dasturlarida baholash jarayoni faqat eslab qolgan bilimlar hajmini aniqlagan. Yangi dastur asosida esa, o'quvchilarda shakllangan ko'nikmalar baholanadi. Fanlar soni va o'quv yuklamalari optimallashtirilib, o'quvchilarning qiziqishiga ko'ra fanlar tanlab, o'qish imkonini beruvchi variativ o'quv dasturlar asosida hayotga va kasbiy faoliyatga tayyorlash imkoni yaratiladi. Milliy o'quv dasturi asosida fanlar chiziqli tartibda emas, spiralsimon tarzda o'qitiladi. Ya'ni mavzular takroriy emas, bir- birini mantiqan davom ettiruvchi hamda, soddadan murakkabga tomon yo'naltirilgan tarzda kiritilgan.

Darsliklarda berilgan mavzular, topshiriqlar to'laqonli o'quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Milliy o'quv dasturida belgilab berilganidek, ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitishda asosiy e'tibor o'quvchida tilga doir to'rt ko'nikmaning:

1. O'qib tushunish;
2. Tinglab tushunish;
3. Nutq so'zlash va yozish;
4. Grammatik savodxonlikni shakllantirishga qaratilgan.

Birgina 2- sinf ona tili va o'qish savodxonligi kitobi misolida ko'radigan bo'lsak, III- bo'lim: qishda uxlaydigan hayvonlar mavzusida o'quvchilarning yuqoridagi to'rtta ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan bir- biridan qiziq topshiriqlar berilgan. Dastlab o'quvchilar kitobda berilgan rasmlarga qarab o'zlari mustaqil qishda uyquga ketadigan hayvonlarning nomini aytishadi va darslikda berilgan savollar o'quvchida fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Masalan: Qishda uxlamaydigan hayvonlar nima bilan oziqlanadi? Mana shu birgina savolning javobini o'quvchi topishi uchun, avvalo, qahraton qishda qanday oziqlar bo'lishi mumkin hayvonlar uchun shu haqida mushohada yuritadi va rasmda berilgan olmaxonlarning qo'lidagi yong'oqlarni ko'rib, qishda ham qorlar orasidan, daraxtlardan yong'oqlarni topib, iste'mol qilish mumkinligini anglab yetadi. Yana muhim jihati o'quvchilarning grammatik savodxonligini aniqlash uchun ham topshiriq berilgan, bog'liqligi, aynan mana shu rasm asosida, ya'ni rasmdagi hayvonlar nomini bo'g'inlarga ajratib yozish. O'quvchilarga shu o'rinda o'qituvchi bo'g'inga ajratib yozish bilan birga bo'g'inga ko'chirish qoidasini ham aytib o'tishi o'rinli, yoki bo'lmasa, o'qituvchi mana shu topshiriqni bajartirish uchun o'quvchilarga daftar chiziqlarini ikki ustunga ajratib, 1- ustunga bo'g'inga ajratish, 2- ustunga bo'g'inga ko'chirish mashqini bajartirsa, o'quvchida ko'nikma hosil bo'ladi.Masalan:

Bo’g’inga ajratish	Bo’g’inga ko’chirish
Yum-ron-qo-ziq	Yum-ron-qo-ziq
Tul-ki	Tul-ki
Ol-ma-xon	Ol-ma-xon
Qu-yon	Qu-yon
I-lon	Ilon
Bo’-ri	Bo’-ri
A-yiq	Ayiq
Ki-yik	Ki-yik
Tip-ra-ti-kan	Tip-ra-ti-kan
Bu-g’u	Bu-g’u
Boy-qush	Boy-qush

Demak, ayiq va ilon so’zlarida bo’g’inga ajratish va bo’g’inga ko’chirishda farqli jihatlar bor ekan. Aynan mana shu so’zlarni bo’g’inga ko’chirishda boshlang’ich sinf o’quvchilari juda ko’p xatoliklarga yo’l qo’yishadi. Agar o’qituvchilar har bir darsda mana shunga o’xshagan topshiriqlarni berib borsalar, o’quvchilarda grammatik savodxonlik boshlang’ich sinfdanoq shakllanadi.

Keyingi topshiriq audiomatn tarzida berilgan. Bu ham o’quvchida tinglash, diqqat va fikrini bir joyga jamlash, xotirasini mustahkamlash kabi sifatlarni shakllantiradi. “Qo’ng’ir ayiq” audiomatnni tinglash orqali o’quvchilar darslikda berilgan yettita savollarga javob berishadi. Savollar saviyasi ham ancha murakkab, o’quvchini tanqidiy fikrlashga, tafakkurini o’stirishga mo’ljallangan. Shuningdek, o’qish savodxonligini rivojlantirish maqsadida darslikda bitta matn va she’r berilgan. Shu asosda o’quvchilar matndan ham o’qish ko’nikmasini hosil qiladi, hamda grammatik topshiriqlarni bajarishadi. Birgina savolning o’zi (“Hikoyani so’zlab berayotgan bola yoki qizni qahramon deya olamizmi?) o’quvchida kreativ fikrlashni rivojlantiradi. Sinf o’quvchilarining har biri o’zgacha, noan’anaviy javoblarni berishadi. Qo’shimcha ravishda o’qituvchi o’quvchilarga siz ham hayotda qahramonlik ko’rsatganmisiz va bu ishizni qahramonlik deya olasizmi kabi savollarni berish orqali o’quvchida o’zining xatti-harakatlarini taqqoslash ko’nikmasini shakllantirgan bo’ladi.

Xulosa qilib aytganda milliy dastur asosida yaratilgan 2- sinflarning ona tili va o’qish savodxonligi darsligi avvalgi darsliklardan o’zining mavzu jihatdan rang-barangligi, topshiriqlar saviyasining murakkabligi va serqirraligi, o’quvchilarni kreativ, tanqidiy- tahliliy fikrlashga chorlashi bilan ahamiyatli. Albatta, bu darslikning ham ba’zi bir juz’iy xatoliklari bo’lishi mumkin, yoki ayrim yangiliklarni tez qabul qilmaydigan o’qituvchilar tomonidan tanqidga ham uchragandir, lekin nima

bo’lganda ham hozirgi shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonda, biz o’quvchilarga mana shunday yangi, zamonaviy, jahon andozalariga mos bo’lgan bilimlar asosida yaratilgan darsliklar asosida bilim bermas ekanmiz, kelajakda ta’lim sohamizda yo’qotishlarga duch kelamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy o’rta ta’limning o’quv dasturi (1-2-3-4-sinflar) uchun.2021-2022-o’quv yili uchun.

2. “Boshlang’ich sinf o’quvchilari bilimini baholashda xalqaro tajribalardan foydalanish: muammo va yechimlar” mavzusidagi vazirlik miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman. Buxoro-2020.

3. I.Azimova, K.Mavlonova, S. Quronov, Sh. Tursun. Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 2- sinfi uchun darslik. T.:2021.

CHINGIZ AYTMATOV VA LUQMON BO'RIXON IJODIDA MUSHTARAK G'OYALAR TALQINI ("BIRINCHI MUALLIM" VA "SIRLI MUALLIM" QISSALARI TAHLILI MISOLIDA)

Abdullajonova Oyxon Sherzodbek qizi
Qo'qon davlat pedagogika instituti,talaba
https://doi.org/10.5281/zenodo.6717730

Annotatsiya: Ushbu maqolada jahon adabiyotining yetuk namoyandasi Chingiz Aytmatovning "Birinchi muallim" va XX asr o'zbek adabiyotining ist'edodli vakili Luqmon Bo'rixonnning "Sirli muallim" qissalaridagi mushtarak g'oyalar tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar : mavzu,g'oya, janr, obraz, uslub, qiyosiy tahlil.

Tabiat va jamiyatda asosan takrorlanuvchi, bir-biriga o'xshash yoki o'z tabiati, tuzilishi, mohiyati bilan bir-biriga zid bo'lgan narsa-hodisalar qiyoslash obyekti bo'lib xizmat qiladi. Bu hol adabiyotshunoslik fani, xususan qiyosiy adabiyotshunoslik uchun ham badiiy-estetik metod vazifasini bajaradi. Adabiyotshunoslikda ma'lum bir yozuvchi yoki shoir ijodini milliy va xalqaro adabiy an'analar bilan qiyoslab o'rganish muhim ilmiy- nazariy ahamiyatga ega. Chunki, shunday qiyoslashlar orqali yozuvchining ijodiy mustaqilligi va uning ham milliy, ham jahon adabiyotidagi o'rni belgilanadi. Yozuvchi ijodining o'ziga xos qirralarini o'rganishda va anglab yetishda uni boshqa bir ijodkorning o'xshash asarlari bilan qiyoslab tahlil qilish muhimdir. Qaysi mashhur asarni olmaylik, u avvalo, ma'lum bir millat vakilining ijodiy merosi, u yoki bu xalqning ma'naviy boyligi sanaladi. Masalan, Chingiz Aytmatov asarlari qirg'iz xalqining ma'naviy boyligi bo'lishi bilan birga, butun jahon xalqlarining adabiy merosi sanaladi. Chunki, adib asarlarida ifodalangan insonparvarlik, mardlik, do'stlik, sadoqat kabi umumbashariy g'oyalar barcha xalqlar uchun birdek qadrli va ahamiyatlidir.

Biz quyida Chingiz Aytmatovning "Birinchi muallim" va o'zbek adabiyotida o'z o'rniga ega Luqmon Bo'rixonning "Sirli muallim" qissalaridagi mushtarak g'oyalar va o'ziga xosliklar haqida so'z yuritishni maqsad qildik. Bir qarashda turli ijtimoiy-tarixiy davrda yashagan va turli milliy ma'daniy qatlamga mansub ikki qahramonning mushtarak jihatlari mavjudligi kishini hayratga soladi. "Birinchi muallim" va "Sirli muallim" qissalariga diqqat qaratadigan bo'lsak, ularda turli davr voqealari badiiy ifoda topgan bo'lsada, syujetining shakllantirilishida mushtaraklik bor. Ikkala asar ham realistik uslubda yozilganligi sababli voqealar sabab-oqibat zanjirida rivojlanib boradi. Har ikki asarning bosh qahramoni o'qituvchi. O'qituvchi bo'lganda ham millatning kelajagi bo'lgan, yoshlarning ziyoli bo'lishini chin dildan

istagan va o’z imkoniyati darajasida kurashgan fidoyi o’qituvchi. “Birinchi muallim” asarida Duyshen- kichkina qirg’iz ovulida katta voqealarga sabab bo’lgan. Egniga qora movutdan tikilgan shinel kiyib yuradigan baland bo’yli, burgut qovoq, salobatli bu yosh yigit: chala savod qirg’iz ovulini savodli qilishda, muallimlikdek ulug’ kasbni zimmasiga olgan. Allaqaysi boydan qolgan otxonani “maktab” dek ulug’ dargohga aylantirgan jasoratli inson. “Sirli muallim” asari qahramoni Najot G’aybulla- baland bo’yli, kelishgan, yuzlaridan allanechuk nur yog’ilib turadigan, qiroat bilan salomlashadigan, hamisha yangi va orasta kiyimlar kiyadigan, yurish-turishi viqorli bir yigit.Bu ikki muallimning tashqi ko’rinishida va ust boshida yer bilan osmoncha farq ko’rsakda, lekin ruhiy olami birdek. Duyshen va Najot G’aybullaning bir-biriga o’xshash sifatlari anchagina. Muallimlikning eng oliy cho’qqisida turuvchi bu ikki inson bolalarni va o’z kasblarini chin yurakdan sevishi bilan atrofdagilardan ajralib turishadi. Ulardagi jasorat tirishqoqlik, maqsadlariga erishish yo’lida har qanday to’siqqa bosiqlik ila bas kelishlari, ulardagi mushtarak sifatlarning yana bir isbotidir. Duyshenning: “O’zim nimani bilsam, sizlarga ham shuni o’rgataman…” kabi so’zlaridan, yetti-pushti savodsiz o’tgan bu bolalarni, o’zi hijjalab o’qisada o’qish yozishga o’rgatishi qahramonlikdir.

Najot muallim ham darsliklarsiz va sharoiti og’ir chekka qishloq bolalarini, darsliklar bilan ta’minlashi, ularga o’zlari o’rganayotgan fanni anglab yetishlari uchun turli imkoniyatlar yaratishi chinakam jasoratdir. Eng asosiysi ikkala o’qituvchi ham o’z kasbining “ustasi”, beg’ubor bolalarning hayollarini jonlantira olishadi. “Birinchi muallim” asarida Oltinoy tilidan aytilgan:”Duyshen, otasi temir yo’lda ishlab yurgan kezlari, Mixail Semyonovich degan bir keksa muallimning qo’lida ikki qish o’qigani, keyin armiyaga borib, oqlar bilan urishganlarini hikoya qilganda, biz ham u bilan yonma-yon turib jang qilganday bo’lardik”. Ushbu parcha fikrimiz isbotidir. “Sirli muallim” asarida esa Norxolning tilidan:”Najot G’aybullaning sokin, sohir ovozi sinfxona bo’ylab sirli sirli kezinadi. Xammayoq tinch ummoniga g’arq bo’lganday jim-jit…O’quvchilar allaqachon sinfxonadan “uchib” ketishgan. Ular ustozlariga qo’shilib olis-olis orollarda, suv dunyosining g’aroyibotlari ichida sayr etib yurishibdi…” kabi jumlalari ham bunga isbotdir. Muallimlarning nafaqat o’z shogirdlarining,balki, atrofdagi insonlarning ham o’zgarishlariga sabab bo’la olganliklari ularning o’xshash jihatlaridan biridir.

Biroq, ikki muallimimizning farqli jihatlari ham mavjud. Ikki insoning yashash sharoitida judda katta farq sezish mumkin. Va albatta ikkisining muhiti ham farqli. Najot G’aybullaning qo’li barcha narsaga yetsa, Duyshen bundan farqli o’ta nochor deyishimiz mumkin. Najot G’aybullaning imkoniyatlarga boyligi va Duyshenning aqalli, yaxshiroq kiyim kiyishga imkoni yetmasligi buning isbotidir.

Ikki asarda ham muallimlarning o’z oldilariga qo’ygan maqsadlari mavjud. “Birinchi muallim” asarida Duyshenning maqsadi bolalarning savodini chiqarish

ularni ziyoli insonlarga aylantirish edi. Bolalarda o'zi ko'ra olgan iste'dod va istiqboldan kelib chiqqan holda o'quvchilarni "katta odam" bo'lishiga ishongandi. Uning bu kabi maqsadini ro'yobga chiqarishda ko'plab to'siqlar bo'ldi, " tushunchasiz insonlar" farzandining kemoliga ishonch bildirmadilar. Lekin muallimninh Oltinoy Sulaymonovaning "akademik" bo'lib yetishishida uning shunday o'quvchilar tarbiyalaganini va o'zining oliy maqsadiga qisman erishganini ko'ramiz. "Sirli muallim" asarida ham Najot G'aybullaning, o'qituvchilikdek ulug' kasbni etagidan tutib, kasbiga jon- jahdi bilan yondashib, o'zidan ajoyib izdoshlar qoldirishni maqsad qilganini ko'ramiz. Va albatta, ularning eng oliy maqsadi vatanining, yurtining koriga yarovchi, ziyoli insonlarning sonini orttirishni, maqsad qilishlaridir.Muallimlar arofida yig'ilgan ba'zi insonlarni "gumrohlar" deb atashimiz mumkin. "Birinchi muallim" asarida Oltinoyning yangasi, Satimqul tajang va boshqalarning Duyshenga ters muomalalarini ko'rishimiz mumkin. Ocharchilikda yashayotgan va ilmning asil mohiyatini anglolmagan bunday insonlar uchun tabiiy hol albatda.Muallimning bolalarni o'qitishi uchun ko'mak berish o'rniga, uni kamsitishdi.Albatta bunday "insonlar" makon va zamon tanlamaydilar. Najot G'aybullaning atrofidagilar esa o'zlari sezmagan xolda unga havas yoki xasad qilishdi. Uning salohiyatiga shubxa bilan qarashdi. X.Xurramovich, Ulash "agranom-shoir" kabi insonlar Najot muallimga doim shubha bilan qarashib, uning faoliyatini to'xtatishga urinishdi. Ularga bepisandlik bilan munosabatda bo'lishdi. Lekin, Duyshenga yordam qo'lini cho'zgan: Sayqal buvi va Qartangboy otani asl inson sifatida ko'rsata olamiz.

Qiyoslangan mazkur ikki asar arxitektonasida farq bo'lsada, yozuvchilarning bosh qahramon tanlash tamoyili, ifodalagan mavzu va g'oya nuqtai nazaridan mushtaraklikni ko'rish mumkin. Turli tarixiy-ijtimoiy sharoit, turli mentalitet, turlicha hayot tarziga ega bo'lgan qahramonlarimizni yaqinlashtirgan narsa, bu ularning ruhiy olami, orzu- intilishlarining mushtarakligidir. Ya'ni ilm-ma'rifat orqali dunyoni jaholat va halokatdan asrab qolish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Aytmatov Ch. Birinchi muallim.-Toshkent:" O'qituvchi",1986.
2. Luqmon Bo'rixon. Xizir ko'rgan yigit".-Toshkent: "Sharq", 2007.
3.Xalliyeva G. Qiyosiy adabiyotshunoslik.-Toshkent:"Akademnashr",2020.
4.Karimov B. Adabiyotshunoslik metodologiyasi.Toshkent: "Muharrir"2011.

МИҚДОРИЙ АЛОМАТЛАР ҚИЙМАТЛАРИНИ КЕСИШМАЙДИГАН ОПТИМАЛ ИНТЕРВАЛЛАРГА АЖРАТИШ

Аҳмедов Ж.Б.
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон миллий университети
Амалий математика ва интеллектуал технологиялар
факултети 2-босқич магистранти
https://doi.org/10.5281/zenodo.6718857

Аннотация: Ушбу тезисда миқдорий аломатлар қийматларини кесишмайдиган интерваллларга оптимал бўлувчи алгоритм яратиш усуллари ва у ни тадбиқ қилиш кўриб чикилган. Оптимал оралиқларга ажратишнинг бу усули бизда иккинчи критерия деб аталади ва берилган танланмамизни синфлар сонига тенг оралиқларга ажратади.

Калит сўзлар: миқдорий аломатлар, ташқи омиллар, маълумотлар мажмуаси, алгоритм.

Икки ўзаро кесишмайдиган K_1, K_2 синфларга ажратилган объектларнинг мумкин бўлган тўплами $E_0 = \{S_1, ..., S_m\}$ берилган бўлсин. Ҳар бир объект n та турли тоифадаги аломатлар $X(n) = (x_1, ..., x_n)$ асосида ифодаланади.

E_0 танланмадаги $Y(\mu)$ тўплам остисидан олинган аломатлар қийматларини кесишмайдиган интерваллларга ажратишнинг икки мезони аниқланган бўлсин. Биринчи мезон синфлар сонига тенг интерваллар сонига амал қилишга асосланган. Биз қараётган ҳолда бу сон иккига тенг.

Ҳар бир $y_j \in Y(\mu)$ аломатнинг мезонга мос оптимал ажратиш қуйидагича амалга оширилади. Аломатнинг тартибланган қийматлар тўплами иккита $[c_0, c_1](c_1, c_2]$ интервалга ажратилади, бу ерда $c_0 = \min\limits_{S_v \in E_0} y_{vj}$ ва $c_2 = \max\limits_{S_v \in E_0} y_{vj}$, $\left(S_v = \left(y_{v1}, ..., y_{v\mu}\right)\right)$. Интервалнинг c_2 чегарасининг қийматларини ҳисоблаш қуйидаги гипотеза, яъни ҳар бир интервал объектлар аломатлари қийматларининг K_t ёки $K_{3-t}\,(t = 1,2)$ синфдан олинганига асосланади.

Фараз қилайлик, $u_1^1, u_1^2 \left(u_2^1, u_2^2\right)$ – $y_j \in Y(\mu)$ аломатнинг $K_1(K_2)$ синфларга $[c_0, c_1]$ ва $(c_1, c_2]$интерваллларга тегишли қийматлари сони бўлсин. $A = (a_0, a_1, a_2), a_0 = 1, a_2 = m,\ a_1 - E_0$ танланмадан олинган $y_j \in Y(\mu)$ аломат қийматларининг ўсиб бориш тартибида тартибланган ва интервал чегарасини $c_1 = r_{a_1}$, $m_t = |K_t \cap E_0|, t = 1,2$ аниқловчи кетма-кетлик.

Қуйидаги

$$\left(\frac{\sum_{p=1}^{2} u_1^p\left(m-m_t-u_2^p\right)+u_2^p\left(m_t-u_1^p\right)}{2m_1m_2}\right)\left(\frac{\sum_{p=1}^{2}\sum_{i=1}^{2} u_i^p\left(u_i^p-1\right)}{m_1\left(m_1-1\right)+m_2\left(m_2-1\right)}\right)\to \max_{\{A\}} \quad (1)$$

мезонни интервалнинг c_1 чегарасининг оптимал қийматини ҳисоблаш ва унинг (мезоннинг) қийматидан E_0 тўплам объектларини синфларга ажратишда сонли аломатнинг компактлик кўрсаткичи сифатида фойдаланиш мумкин.

Бунда бизга тасвирни сегментлаш маълумотларини предмет соҳа сифатида қабул қилдик.

Маълумотлар тўпламининг тавсифи: Тасвирни сегментлаш маълумотлари Намуналар 7 та ташқи тасвирлар базасидан тасодифий тарзда олинган. Тасвирлар ҳар бир пиксел учун тасниф яратиш учун сегментларга бўлинган.

Объектлар сони: 2310; Аломатлар сони: 19 та

Бу йерда 7 та синфни ажратиш учун жуда катта комбинация (2310 * 2309 * 2308 * 2307 * 2306 * 2305 * 2304) бўлиб кетади шунинг учун битта синф ва бошқалар деб қараш ишимизни осонлаштиради. Шунинг учун: Синфлар :

1. ғиштли юза 2. ва бошқалар

1 – Жадвал.

№	Аломат номи	Оралиқлар	Вазнлари
1	region-centroid-col	[1 : 1336] (1336 : 2310]	0.2513
2	region-centroid-row	[1 : 752] (752 : 2310]	0.2530
3	region-pixel-count	[1 : 1272] (1272 : 2310]	0.2514
4	short-line-density-5	[1 : 1222] (1222 : 2310]	0.2504
5	short-line-density-2	[1 : 1336] (1336 : 2310]	0.2513
6	vedge-mean	[1 : 738] (738 : 2310]	0.2541
7	vegde-sd	[1 : 816] (816 : 2310]	0.2519
8	hedge-mean	[1 : 850] (850 : 2310]	0.2512
9	hedge-sd	[1 : 965] (965 : 2310]	0.2517
10	intensity-mean	[1 : 1463] (1463 : 2310]	0.2555
11	rawred-mean	[1 : 1508] (1508 : 2310]	0.2553
12	rawblue-mean	[1 : 1566] (1566 : 2310]	0.2557
13	rawgreen-mean	[1 : 1466] (1466 : 2310]	0.2563
14	exred-mean	[1 : 1043] (1043 : 2310]	0.2500
15	exblue-mean	[1 : 879] (879 : 2310]	0.2522
16	exgreen-mean	[1 : 871] (871 : 2310]	0.2527
17	value-mean	[1 : 1566] (1566 : 2310]	0.2557
18	saturatoin-mean	[1 : 976] (976 : 2310]	0.2536
19	hue-mean	[1 : 1446] (1446 : 2310]	0.2532

Бундан аломатларнинг берилган танланмани оптимал интерваларга. ажратиш даражаси келтириб ўтилган. Албатта бизнинг предмет соҳамизнинг аломатлари бир - биридан жуда фарқли ажратмас екан. Лекин улар орасидан енг оптимал ажратганини уларнинг вазнлари орқали аниқлаболишимиз мумкин. Бу тажрибадан келиб чиқиб 14 чи “exred-mean” аломат “0.2500” вазн билан енг ёмон ажратган бўлса, 13 чи “ŧawgreen-mean’ аломат “0.2563” вазн билан енг яхши ажратганини кўриб турибмиз.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Н.А.Игнатьев, Р.Н.Усманов, Ш.Ф. Мадрахимов. Берилганларнинг Интеллектуал Таҳлили. Ўқув қўлланма. 2018 й, 23–29.б

2. Игнатьев Н.А. Вычисление обобщённых показателей и интеллектуальный анализ данных Автоматика и телематика. 2011, №5. С.183-190.

ASALARI KASALLIKLARI VA UNGA QARSHI KURASH CHORALARINI TASHKIL ETISH

Murodova Hilola Zafarjon qizi
Namangan Davlat Universiteti
https://doi.org/10.5281/zenodo.6718907

Annotatsiya: Ushbu maqolada asalarichilik fermer va sanoat xo'jaligidagi infeksion va invazion kasalliklari va unga samarali yechimlarni qo'llash, zararkuranda turlarni o'rganish mobaynida ularni fermer va sanoat xo'jaligida biologik, kimyoviy va mexanik usullarni o'rganib, kushandalarni oldini olish va xalqimizga sifatli asal yetishtirish haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar asalari oilasi, infeksion kasalliklar, invazion kasalliklar, nomzematoz, zararkuranda hasharotlar, pestitsidlar, dezinfeksiya, integral himoya qilish usuli.

Abctract: This article discusses infectious and invasive diseases in beekeeping and industrial farming and the application of effective solutions to it, the study of pest species in biological and chemical and mechanical methods in agriculture and industry, the prevention of bee stings and the cultivation of quality honey for our people. We are talking about.

Keywords bee family, infectious diseases, invasive diseases, nomzematosis, pests, pesticides, disinfection, integrated protection method.

Аннотация: В данной статье рассматриваются инфекционные и инвазионные болезни в пчеловодстве и промышленном животноводстве и применение эффективных средств борьбы с ней, изучение видов вредителей биологическими и химико-механическими методами в сельском хозяйстве и промышленности, профилактика укусов пчел и выращивание качественного меда для наш народ.Мы говорим о.

Ключевые пчелиная семья, инфекционные болезни, инвазионные болезни, номзематоз, вредители, пестициды, дезинфекция, комплексный метод защиты.

Asalari oilasining sog'lomligi, u yoki bu kasalliklarga chidamliligi tuxumdan chiqqan lichinka va yetuk asalarilarni doimiy ravishda ko'rib chiqish va veterinariya-bakteriologik laboratoriyalarda tahlil qilish yo'li bilan aniqlanadi. Nasldor oilalar esa mutloq sog'lom bo'lishi kerak. Asalarilar har xil kasalliklar bilan kasallanishi mumkin. Ular infeksion, invazion va yuqumsiz kasalliklarga bo'linadi. Infeksion kasalliklarning qo'zg'atuvchisi kelib chiqishi o'simlikda bo'lgan bakteriya, virus va zamburug'lardir. Invazion kasalliklarning qo'zg'atuvchilari bir hujayrali va ko'p hujayrali parazit hayvonlardir. Yuqumsiz kasalliklar asalari oilasining hayoti uchun

kerak bo‘lgan sharoitlarning buzilishi natijasida kelib chiqadi. Agarda bu sharoit tiklansa, kasallik yo‘q bo‘lib ketadi. Asalari oilalarini sog‘aytirish uchun kasallikni o‘z vaqtida aniqlab, unga qarshi kurashda davolash, sanitariya va profilaktika tadbirlarining to‘liq majmuasini qo‘llash kerak. Asalari zararkurandalari asalarilarni yo’q qiluvchi va shu tufayli asalarichilik xo’jaliklariga katta zarar yetkazuvchi hayvonlar.

Zararkurandalar turli xil sistematik guruhlarga bo’lingan bo’lib, ularning orasida sutemizuvchilar, qushlar,sudralib yuruvchilar va amfibiyalar, antropod hasharotlar, o’rgimchaklar, santipidlar bor. Zararkurandalar turli xil zonalarda tarqalgan bo’lib, umumiy olganda asalarichilikka katta zarar yetkazadi. Lekin, har bir guruh zararkurandalarining asalarilariga keltirishi mumkin bo‘lgan zarari ushbu guruhning biologik xususiyatlari va tarqalish darajasiga bog‘liq.

Asalarichilik tarmog‘ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish, tarmoqda naslchilik ishlarini ilmiy asosda tashkil etish, asalarichilik xo‘jaliklari faoliyati samaradorligini oshirish, asal mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va turlarini yanada ko‘paytirish, asalni qayta ishlash bo‘yicha zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, sohaning eksport salohiyatini oshirish, shuningdek, asalarichilik sohasidagi ilg‘or tajribalarni respublikamizning barcha hududlarida tatbiq etish maqsadida Prezidentimiz 2017-yil PQ-3327 sonli qarorida O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi, Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi hamda Aksiyadorlik-tijorat “Aloqabank”ning (keyingi o‘rinlarda AT “Aloqabank” deb ataladi) “O‘zbekiston asalarichilari” uyushmasini (keyingi o‘rinlarda Uyushma deb ataladi) tashkil etish to‘g‘risidagi qarorni farmoyish qildi va bu amaliyotda tatbiq qilindi.[1]

Ko‘p yillik asalarichilik tarixini o‘rganish va asalari oilalarini parvarishlash, rivojlantirish, asal olishni ko’paytirish borasida quyidagi insonlar mehnatini eslab o‘tish lozim.

1.1814-yili Ukrainalik asalarichi Pyotr Ivanovich Prokopovich asalarilar hayotini, daraxt g’ovaklarida mumkatak inchalarining joylashishi, mumkatak inchalar tortishi kabi xususiyatlarini o‘rganib, dunyoda birinchi bo‘lib, ramkalar joylashtirib, ari oilasi boqiladigan asalari uyasini yaratdi.

2. 1827-yili nemis asalarichisi Iogan Mering birinchi bo‘lib asalari inchalarini tag qiyomni tushiradigan mumparda varoqlarini ramkalarga yaratgan.Mumparda varaqalarini ramkalarga solib asalari oilalariga qo’yilsa, asalarilar mumpardaga asalari inchalari devorlarini olti qirrali qilib tortadilar.

3.1865 -yil Chexoslovakiyalik asalarichi Frans Grush markazdan qochish kuchi mumkatak ramkalaridagi asalni olish moslamasini yaratdi va asalari zararkurandalarini o’rgandi.[2:4]

Va yana ko’pgina olimlar asalari va ularni ko’payishi, rivojlanishi, ularga xavfli kasalliklarni davolash choralarini ishlab chiqishdi.

Asalarilarni zararkurandalarini aniqlash va ularni oldini olishdagi samarali usullardan biologik, kimyoviy, mexanik va yana integral himoya qilish hisoblanadi.Integral himoya usulining asosiy vazifasi ishlov berish vositalari, usullari, muddatlarini zararkunanda hasharotlar va kasallik qo‘zg‘atuvchilarni ko‘plab yo‘qotadigan, shu bilan birga ularning kushandalari — entomofaglarda zarar yetkazmaydiganlarini tanlashdan hamda odam, issiqqonli hayvonlar, asalari, ipak kurti va boshlarni pestitsidlarning zaharli ta’siridan himoya qilish choralarini izlab topishdan iborat. Hozirgi zamon tushunchasiga ko‘ra, integral himoya usuli — ma’lum agrobiotsenoz doirasida ichki va populyasiyalararo munosabatlarni boshqaruvchi sistemadir.Asalarilarga zararkurandalar xavf solganda integral himoya usulini qo’llash taqazo etadi.[5]

Yevropa chirish kasalligi. Yevropa chirish kasalligi yuqumli kasallik bo‘lib, avvalo ochiq, so‘ngra yopiq naslda bo‘ladi. Kasallik, asosan, asalarining tuxumdan chiqqan naslini shikastlantiradi, erkak naslini kamroq zararlantiradi. Kasallanish lichinkalar tuxumdan chiqqach, 3–4 kundan keyin boshlanadi. Kasallikning kelib chiqishiga ob-havoning bulutligi, namli bo‘lishi, arixonaning sovuqda qolishi, oziqning yetarli bo‘lmasligi va shunga o‘xshash asalari oilasining kuchsizlantiradigan omillar sabab bo‘ladi. Bu kasallikni pluton sreptokokklari qo‘zg‘atadi. Kasallik qo‘zg‘atuvchi streptokokklar pergada butun qish, mumkatak va asalda yil davomida saqlanib qolishi mumkin.

Kasallik tarqalish yo‘llari. Kasal asalari oilalari kasallikni tarqatuvchi asosiy manba hisoblanadi. Kasal bo‘lgan butun oila asalarilari kasallikni qo‘zg‘atuvchi streptokokkni olib yuruvchilar bo‘ladi. Chunki bunday oilada pluton streptokokklari asalarida, asalda, perga va mum inlarda bo‘ladi.Lichinkalar zaharlangan asal va perga bilan oziqlanadi. Ona asalari Yevropa chirish kasalligini o‘zining nasliga yuqtiradi. Bir oiladan ikkinchi oilaga kasallik o‘g‘ri ishchi asalarilar, erkak arilar, umumiy suv idishi orqali va rom almashtirish vaqtida o‘tishi mumkin.[3:76]

Kasallik tashxisi. Kasallik klinik belgilari va patologik materialni laboratoriyada tekshirish asosida aniqlanadi.

Davolash. Kasallik 4 % li formalin bug‘I va 2 % li xinozol eritmasi bilan dezinfeksiya qilinadi. Farmalin bug‘i 30 minutdan keyin, xinozol eritmasi 10 minutdan keyin kasallik qo‘zg‘atuvchilariga ta’sir qiladi. Kasallikni davolashning eng samarli usuli uni endigina boshlangan vaqtda aniqlashdir. Kasallik endigina boshlangan bo‘lsa, uni davolash shu joyning o‘zida olib boriladi. Kasallik eskirgan sayin uni davolash qiyinlashadi. Davolash faqat eski inlarni olib tashalash, asalarilarni dezinfeksiya qilingan uyalarga ko‘chirish, asalni haydash, arixonalarni isitish uchun yopilgan materiallarni almatirish va shu kabi ishlardan iborat. Bu

kasallikni davolashda qo‘llaniladigan vositalar sulfodimizen va antibiotik preparatlardir. Bu preparatlar asalarilarni oziqlantirish uchun ishlatiladigan davolash siroplari yoki suv eritmalari holida ishlatiladi. Suv eritmalar asalari uyalariga sepiladi. Davolash siropini tayyorlash uchun quyidagi preparatlardan birini olish mumkin: norsulfazol natriy, sanazin, sulfantrol, sultsimid, streptomitsin, terromitsin, tetratsiklin va hokazo.

Kurash choralari. Yevropa chirish kasalligi gacha bo‘lgan hududlarga karantin e’lon qilinadi. Yevropa chirish kasalligi yo‘q qilinganidan keyin bir yil o‘tgach arixona karantindan chiqadi.

Invazion kasalliklar va ularni davolash

Nozematoz. Bu asalarilarning yuqumli kasalligi bo‘lib, uni apis nozemasi qo‘zg‘atadi. Nozematoz bilan katta asalarilar, ona va erkak arilar kasallanadi, lichinkalarga esa ta’sir qilmaydi. Kasallikni qo‘zg‘atuvchi nozema apis bir hujayrali organizm bo‘lib, asalarining o‘rta ichagida parazitlik qiladi. Bu yerga u zararlangan oziq bilan tushadi. Nozema sporalar hosil qilib o‘sishi natijasida amyobalar chiqadi.

Kasallikning tarqalish yo‘llari. Kasallikning manbayi kasal asalarilardir. Ular asal, perga, uyalar va suvni o‘zining chiqindi axlati orqali nozematoz bilan zararlantiradi. Kasallik sog‘lom oilaga umumiy suv idishlaridan, dezinfeksiya qilinmay qo‘yilgan inlardan, inventar va boshqalardan o‘tishi mumkin.[3:80]

Davolash usullari.Nozematoz kasalligini davolash uchun fumagillin, organik kislotalar (sirka, shovul yoki rovoch)dan foydalaniladi. Fumagillin sirop holida bir oilaga 1 l hisobidan tayyorlanadi. Bu eritma 30 °C gacha sovitilgan qand siropiga quyiladi, so‘ngra aralashtirilib, asalarilar oziqlantiriladi. Sirka kislotasi sho‘r oziq tariqasida beriladi. Shovul bilan rovoch nordon oziq hisobida ishlatiladi.

Kurash choralari. Nozematoz bilan kasallangan arixonalar karantin qilinadi. Nozematoz shunday kasallikki, u bilan kurashishni har yili tinmay olib borish kerak: bu bir vaqtning o‘zida ham davolash, ham sanitariya-profilaktika tadbirlarini o‘tkazishdir. Buning uchun arixona va inventarlar yaxshilab dezinfeksiya qilinadi. Arixona va unga solinadigan taxtacha quyidagicha dezinfeksiya qilinadi: ular mum va propolis (asalari yelimi)dan tozalanadi.

Ishqorning issiq eritmasi (600 gr elangan kul yoki 200 gr kir sodasi) bir chelak suvda eritiladi. Uyadagi asalarilarning najasi, qotib qolgan dog‘lar yuviladi, quriganidan keyin uyaning ichi va tirqishlari kavsharlash lampasi bilan qizarguncha kuydiriladi.(1-rasm)



1- Rasm. Invazion kasallik qo‘zg‘atuvchilari:

Chapdan: vorotoz kasalligi qo‘zg‘atuvchisi, varroa yakobson kanasi; yuqorida urg‘ochi kananing ustki va ostki tomonidan ko‘rinishi.

O‘rta qismidan: akrapidoz kasalligini qo‘zg‘atuvchi akarapis vudi kanasining erkak va urg‘ochisi; pastda kanalar bilan zararlangan trexea.

O’ngdan: braulez kasalligini qo‘zg‘atuvchi braula parazit kanasi; yuqorida urg‘ochi kananing ustki va ostki tomonidan ko‘rinishi; pastda urg‘ochi kananing ona ari tanasida parazitlik qilishi.

Asalari zararkunandalari va yirtqichlariga arixo‘r tilllarang kurkuray qushi, sorokoputi qushi, sudralib yuruvchilar, sariq tusli yirik yirtqich yovvoyi va oddiy arilar, ninachilar, kemiruvchilar, chumolilar, mog‘or zamburug‘i, asal va perga iste’mol qiluvchi kapalaklar, kichik va katta asalari parvonasi, asalari bo‘risi (filant), ola mayka qo‘ng‘izi, 4 juft oyoqli kanalar va boshqa zararkunandalar kiradi. [4]

Tajribali asalarichi asalarilarning sog’lig’i va farovonligini ta’minlash asalarichilikni muvaffaqiyatli olib borish garovi ekanligini biladi. Shuning uchun u xavfli zararkunandalar aniqlanganda o’z vaqtida choralar ko’rish uchun har doim o’zi qilyotgan ishlarni xatti-harakatlarini kuzatib boradi. Profilaktik tadbirlarni muntazam ravishda amalga oshirish asalarichilikni xavfsiz saqlashga yordam beradi:

-Faqat kuchli asalarichilik koloniyalarini saqlash;

-Asalarilarni oziq-ovqat va issiqlik bilan etarli darajada ta’minlash;

-Uyalarni vaqti-vaqti bilan tozalash, quritish, shamollatish va ta’mirlash;

-Quyoshda izolyatsiyani quritish;

-Qattiq oyoq yoki kerosinda uylarning oyoqlarini moylash;

-Suv va chumolilar uyasidan uzoqlashadigan asalarichilik xonasini o’rnatish;

-Izolyatsiyalovchi materialning davriy dezinfektsiyasi;

-Kovaklarni oltingugurtli gaz bilan tozalash;

-Zararkunandalarni oldini olish uchun teshiklarga maxsus to’siqlar yoki to’rlarni o’rnatish;

-Uylarning ostidan o’tlarni yulish.

Maslahat! Kiruvchi teshiklarni, uyalarni, hasharotlarni va zararkunandalarni qidirishda asalarichilik atrofida muntazam ravishda yurish ham asalarichilik koloniyalariga va umuman asalarichilikka zarar etkazishning oldini olish chorasi hisoblanadi.

Asalarilarning dushmanlari asalarichilikka yetkazishi mumkin bo’lgan zararni tiklash mumkin emas va asalarichilik oilalarining o’limiga olib keladi. Buning oldini olish uchun siz barcha mumkin bo’lgan zararkunandalarni bilishingiz va o’z vaqtida kerakli choralarni ko’rishingiz kerak. Shunda asalarichilik asalarichiga nafaqat foyda keltiradi, balki bajarilgan ishdan zavq keltiradi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2017-yil noyabr oyida PQ-2237 sonli qarori.

2. N. F. Kraxotin. O‘zbekistonda asalarichilik. – T.: Mehnat, 1991.

3. R.X. Asalarichilik fermer xo‘jaliklarini tashkil etish va yuritish “Noshir” nashriyoti Toshkent-2016

4. https://uz.psichapter.net/3931-bee-pests.html

5. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Integral_himoya_usuli

QORABOG` MASALASI ROSSIYA-ERON MUNOSABATLARIDA

Eshpo'latov Axror Asrol o'g'li
Samarqand Davlat Universiteti
Tarix fakulteti ikkinchi bosqich magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.6718960

Annotatsiya: ushbu maqolada Tog'li Qorabog masalasida Rossiya va Eron davlatlarining o'zaro munosabatlari keltirib o'tilgan

Kalit so'zlar: Qorabog', Rossiya, Eron, Janubiy Kavkaz, Armanlar, hujum, shartnoma

XIX asr boshlarida Rossiyaning Janubiy Kavkazga kelishi bilan mintaqada, jumladan, Qorabog'da yangi siyosiy vaziyat vujudga keldi. Rossiyaning armanlar timsolida ijtimoiy-etnik tayanch yaratishga qaratilgan siyosati butun Kavkazda ham, Qorabog'da ham xristian unsurining kuchayishiga olib keldi. Bugungi kunda kuzatilayotgan nizolarning mohiyati o'sha davrlarga borib taqaladi. Nihoyat 1801-yilda Gruziyani bosib olgan Rossiya Ozarbayjon chegaralariga yetib keldi. Kavkazdagi rus qo'shinlari qo'mondoni general P.D. Sitsianov 1803-yil mart oyida Ozarbayjonning eng yirik shaharlari Ganjani qamal qildi. Javadxon boshchiligidagi aholining qattiq qarshiligini sindirib, 1804-yil 3-yanvarda rus qo'shinlari shaharga kirdi. Sitsianov Zakavkazda mustahkam o'rnashib olish uchun bu hududda eng qudratli hisoblangan Qorabog', Sheki va Shirvon xonliklarini har qanday yo'l bilan ham egallashi kerak edi. Uzoq davom etgan muzokaralar davomida Sitsianov bu xonliklarga tahdid qildi, ulardan Ganjaning ayanchli tajribasini hisobga olishni va Rossiyaning harbiy qudratini hisobga olib, uning homiyligini qarshiliksiz qabul qilishni talab qildi.

Doimiy "bolg'a va anish o'rtasida" (shimolda Rossiya va janubda Eron) bo'lishdan charchagan Qorabog' hukmdori Ibrohim Xalilxon 1805 yilda Rossiya bilan "Qasamyod va'dasi" tuzishga qaror qildi - bu aslida Qorabog'ning Rossiyaga qo'shilishi yo'lidagi birinchi huquqiy hujjat bo'ldi. Qorabog' xonligi bilan Rossiya imperiyasi o'rtasida xonlikni Rossiya tasarrufiga o'tkazish to'g'risidagi shartnoma 1805-yil 14-mayda Kyurekchay harbiy qarorgohida imzolangan va shuning uchun tarixga Kurekchay shartnomasi nomi bilan kirgan[12]. 11 moddadan iborat bo'lgan ushbu shartnomaga ko'ra Qorabog' xonligi Rossiya himoyasiga o'tgan va uchinchi davlatlar bilan har qanday mustaqil xalqaro aloqalardan voz kechganligi belgilab qo`yilgan.

[12] В.А.Потто. Кавказская война. Персидская война 1826-1828 гг. Том 3, Ставрополь, 1993, с.594-595

Shu bilan birga, Kurekchoy shartnomasiga binoan Rossiya xonlikning ichki ishlariga aralashmaslik majburiyatini oladi. Bu shartnoma imzolangandan so‘ng darhol Ibrohim Xalilxonga Aleksandr I ning 1805-yil 8-iyuldagi farmoni bilan general unvoni berildi va o‘shandan keyin general-leytenant sifatida u bosh qo‘mondonga bo‘ysunishga majbur bo‘ldi[13]. Bu shartnoma to‘laqonli diplomatik hujjat bo‘lib, Qorabog‘ xonligi aynan musulmon davlati sifatida Rossiya protektorati ostiga o‘tganligidan dalolat bergan.

Strategik ahamiyatga ega Qorabog‘ xonligining qo‘lga olinishi aslida Shimoliy Ozarbayjondagi barcha xonliklarning to‘liq bo‘ysunishi boshlanishini anglatardi. Knyaz P.D.Sitsianov 1805-yil 22-mayda Kurekchay shartnomasi tuzilgandan so‘ng, Rossiya imperatoriga bejiz Qorabog‘ o‘zining geografik joylashuviga ko‘ra Ozarbayjon darvozasi ekanligini, Qorabog‘ Gruziyani Bokuga yaqinlashtirib, uni bosib olishini ma’lum qildi.[14]

Ayni paytda, 1806-yilda Eron Shushaga hujum qilganda, qal'a garnizoni boshlig'i mayor Lisanevich Qorabog' xonining kutilmagan harakatlaridan ehtiyot bo'lib, Ibrohim Xalilxonning butun oilasini o'ldiradi, faqat bittasi o'g'li Mehdi Quli og'ani tirik qoldirgan. Biroq, Rossiya Ibrohim Xalilxon bilan muomala qilib, uning xonligi maqomini o'zgartirmadi. Mehdi Quli-og‘a imperator Aleksandr I ning 1806-yil 10-sentabrdagi buyrug‘i bilan otasining o‘rniga Qorabog‘ hukmdori etib tayinlandi[15].

Imperator Aleksandr I xonlik hukmronligi belgisi sifatida Mehti Quli-og‘aga bayroq va qimmatbaho toshlar bilan o‘ralgan qilich sovg‘a qildi. Kurekchoy shartnomasida ham, uning qonuniy davomi sifatida ham – 1806-yildagi imperatorning Mehdi Quli og‘ani Qorabog‘ning hukmdori etib tayinlash haqidagi farmon chiqargan.

Birinchi rus-eron urushi (1804-1813) natijasida 1813-yil 24-oktabrda (5-noyabr) Qorabog‘ning Guliston qishlog‘ida Guliston shartnomasi imzolandi. Hujjatga ko‘ra, Eron Dog‘iston, Gruziya, Megreliya, Imeretiya, Guriya, Abxaziya, shuningdek, Ozarbayjon xonliklari: Boku, Qorabog‘, Ganja, Shirvan, Sheki, Derbent, Kuba va Talishlarning Rossiya tarkibiga o‘tishini tan olgan.

Ayni paytda Napoleon ustidan qozonilgan g‘alaba Rossiyaning Sharq siyosatini keskinlashtirdi. 1816-yilda Kavkaz gubernatori etib tayinlangan general A.P. Yermolov birinchi kunlardanoq musulmon xalqini potentsial dushman sifatida ko'rib, ularga ishonmadi. Shu sababli u har qanday vaqtda istiqlolchilik harakatining o‘zagiga aylanishi mumkin bo‘lgan xonliklarni rasman tugatish imkoniyatlarini

[13] Нагорный Карабах в международном праве и мировой политике». Комментарии к документам. Том II / Д. ю. н., проф. Ю.Г. Барсегов; отв. ред. А.О. Меликян — М. : «Мелихово», 2009. -с.52.
[14] В.А.Захаров, С.Т.Саркисян. Азербайджано-Карабахский конфликт: истоки и современность // Майендорфская декларация 2 ноября 2008 года и ситуация вокруг Нагорного Карабаха. Сборник статей. Москва, 2008, -с.42.
[15] В.А.Потто. Кавказская война. Персидская война 1826-1828 гг. Том 3, Ставрополь, 1993, с.594-595

izladi. Bunda unga Yermolovning Shimoliy Ozarbayjondagi vakili arman generali V.G.Madatov faol yordam berdi. Sekin-asta, lekin ishonch bilan ular rejalarini amalga oshirishira boshladi. 1819-yilda Sheki xonligi tugatildi. Mehdiqulixon rus bosimiga dosh berolmay Eronga qochib ketadi va Qorabog‘ xonligi Rossiya viloyatiga aylanadi. Bu voqeadan ikki yil avval oxirgi Shirvon xoni Mustafoxon Eronga qochib ketgan edi. Tegishli shartnomalar moddalarida yozilganidan farqli ravishda xonliklarni tugatish jarayoni mantiqiy yakuniga yetdi.[16]

1826-yilda ikkinchi rus-eron urushi boshlandi. Va yana asosiy voqealar Qorabog'da sodir bo'ldi. Eron qo‘shinlari Shushani 48 kun qamalda ushlab turdi, ammo shaharni egallab ololmadi. 1828-yil 10-fevralda Tabriz yaqinidagi Turkmanchay shahrida urushayotgan tomonlar yangi tinchlik shartnomasi tuzdilar, unga ko‘ra Shimoliy Ozarbayjonning barcha xonliklari kabi Qorabog‘, shuningdek, Naxchivon va Irevan xonliklari ham nihoyat sulhga ko`ra Rossiya imperiyasi tarkibiga kirdilar. Shu o‘rinda bir narsaga e’tibor qaratish lozimki, so‘nggi paytlarda bir qator arman va rus tarixchilari, shuningdek, ayrim siyosiy doiralar Qorabog‘ Rossiya tarkibiga armanlar hududi sifatida qo‘shilgan deb da’vo qilmoqda[17]. Dalil sifatida ular, go'yo butun XVIII asr davomida Qorabog'ning arman aholisi bu hudud aholisining 97 foizini tashkil etganini ko'rsatadilar[18]. Shu o‘rinda savol tug‘iladi: agar bu to‘g‘ri bo‘lsa, nega XVIII asr o‘rtalarida Qorabog‘da arman davlati emas, balki mashhur turkiy yavonshir qabilasi vakillari boshchiligidagi Qorabog‘ xonligi vujudga keldi? Zero, tarixda qolgan aholining to‘qson yetti foiziga nisbatan uch foiz aholi o‘z davlatchiligini barpo eta oladi, degan o‘xshashlik yo‘q.

Biroq, o'sha davrning xalqaro-huquqiy hujjatlarini sinchiklab o'rganish nafaqat Qorabog'ning, balki Armanistonning Rossiyaga kirish shakli haqida qiziqarli faktlarni aniqlaydi. Shunday qilib, 1801-yilgi Georgiy shartnomasiga ko‘ra, Ozarbayjon xonliklari esa Guliston (1813) va Turkmanchoy (1828) shartnomalariga ko‘ra Rossiya tarkibiga kirdilar. O'rinli savol tug'iladi: Armaniston va u da'vo qilayotgan hududlar qanday shartnoma, bitim yoki risola asosida Rossiya tarkibiga kirdi? Bu savolga juda oson javobni taniqli arman tarixchilari topdilar. Ilmiy axloq va tarixiy dalillarga rioya qilmasdan, eng muhimi, uzoq vaqtdan beri mavjud bo‘lgan tarixiy haqiqatdan xijolat tortmay shunday yozadilar: “1804-1813-yillardagi rus-fors urushini tugatgan 1813-yildagi Guliston shartnomasiga ko‘ra, boshqa shimoli-sharqiy davlatlar bilan birgalikda. Sharqiy Armaniston viloyatlari (Lori-Pambak,

[16] https://vestikavkaza.ru/analytics/komu-istoriceski-prinadlezit-nagornyj-karabah-ili-kak-demografia-prevratilas-v-instrument-politiki.html

[17] В.А.Захаров, С.Т.Саркисян. Азербайджано-Карабахский конфликт: истоки и современность // Майендорфская декларация 2 ноября 2008 года и ситуация вокруг Нагорного Карабаха. Сборник статей. Москва, 2008, -с.48.

[18] Нагорный Карабах в международном праве и мировой политике». Комментарии к документам. Том II / Д. ю. н., проф. Ю.Г. Барсегов; отв. ред. А.О. Меликян — М. : «Мелихово», 2009. -с.53.

Shamshadin, Zangezur, Kofan va Shoragel tumanlari) Ganja va Qorabog‘ xonliklari ham Rossiyaga o‘tgan.[19]

Ularning qalbakilashtirilganligini isbotlash uchun ular G.Yuzefovich tomonidan 1869-yilda Peterburgda nashr etilgan hujjatlar to‘plamiga murojaat qiladilar. Ular yaxshi bilishsa-da, na Gulistonda, na Yuzefovich to‘plamida chop etilgan Turkmanchoy shartnomalarida, na sharqiy, na g‘arbiy, na nasroniy yerlari haqida hech qanday arman yerlari haqida so‘z yuritilmagan. Unda faqat musulmon xonliklari, ularning Rossiyaga qo‘shilish davridagi hududlari haqida gap boradi. Bu yerda nomi tilga olingan Irevan xonligi aholisining mutlaq ko‘pchiligi musulmonlar bo‘lib, bu rus manbalarida o‘z aksini topgan.

Shunday qilib, yaratilish vaqtida “Arman viloyati” 1828-yil 21-martdagi “Eng oliy farmon”ga ko‘ra, tugatilgan Irevan va Naxchivon xonliklari hududida 107224 kishi, shundan 74260 nafari ozarbayjonlar (jami aholining 69,3 foizi), 7489 nafari kurdlar (7,0) yashagan. %), 324 yezidiy (0,3%) va 25151 arman (23,4%)[20].

Buni general Paskevichning Bosh shtab boshlig‘iga 1827 yilda Iravonning “vaqtinchalik bo‘limi” boshlig‘i etib tayinlangan general Krasovskiy va shu bo‘lim a’zosi arxiyepiskop Nersesning harakatlaridan noroziligi aks etgan xati ham tasdiqlaydi.[21]

Lekin, yuqorida ta'kidlanganidek, Janubiy Kavkaz ustidan to'liq nazorat o'rnatgan Rossiya musulmonlarning, jumladan, ozarbayjonlarning etnik omilining roli va ahamiyatini kamaytirishga intildi. Shu maqsadda chor hukumati mintaqadagi etnodemografik vaziyatni o‘zgartirishga qaratilgan faol siyosat olib bordi. Shunisi e’tiborga loyiqki, chor ma’muriyati armanlarning ozarbayjon yerlariga egalik qilish huquqini ruslar bilan birgalikda “Rossiya uchun Kavkazni bosib olganliklari”, Rossiya dushmanlariga qarshi kurashda qon to‘kishlari bilan asoslagan edi.

Qolaversa, 1828-yildan boshlab armanlarning Janubiy Kavkazdagi musulmon viloyatlariga, jumladan Qorabog‘ga ko‘chirilishi Turkmanchay shartnomasining XV moddasi bilan tartibga solingan. Shu bilan birga, Turkmanchay shartnomasi shartlariga ko‘ra, Qorabog‘, Naxchivon va Erivan xonliklari hududlarida “davlat unvoniga ega bo‘lgan yoki qandaydir obro‘-e’tiborga ega bo‘lgan ozarbayjonlar uchun joylashish yoki yashash taqiqlangan

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Караулов Н. А. Сведения арабских писателей X и XI веков по Р. Хр. о Кавказе, Армении и Адербейджане.

[19] А.С.Грибоедов. Сочинения в двух томах. Т.2. М., 1971, с.340-341.
[20] В.А.Захаров, С.Т.Саркисян. Азербайджано-Карабахский конфликт: истоки и современность // Майендорфская декларация 2 ноября 2008 года и ситуация вокруг Нагорного Карабаха. Сборник статей. Москва, 2008, -с.88.
[21]https://vestikavkaza.ru/analytics/komu-istoriceski-prinadlezit-nagornyj-karabah-ili-kak-demografia-prevratilas-v-instrument-politiki.html

2. Hewsen, Robert H. Armenia: A Historical Atlas. Chicago, IL: University of Chicago Press, 2001, p. 33, карта 19 (территория Нагорного Карабаха показана в составе Армянского царства Ервандидов (IV-II вв. до н. э.))

3. Hewsen, Robert H. «The Kingdom of Arc'ax» in Medieval Armenian Culture (University of Pennsylvania Armenian Texts and Studies). Thomas J. Samuelian and Michael E. Stone (eds.) Chico, California: Scholars Press, 1984, pp. 52-53

ПЕРИФРАЗА ВА УНИНГ ҚЎЛЛАШ ТАМОЙИЛЛАРИ

Дилнозахон Муротова
ФарДУ талабаси
https://doi.org/10.5281/zenodo.6719793

Аннотатсия: ушбу маколада А.Каххор асарларининг бадиий хусусиятлари очиб берилади.
Калит сўзлар: услуб, шакл, ровий, информавоқелик, сюжет, композиция.

Бадиий тасвир воситаларининг навбатдагиси перифразадир. “Перифраза (гр. Periprasis-яқин гапираман сўзидан) – перифраз ёки перифраза. Кўчим турларидан бири бўлиб, унда нарса ёки инсон ўз номи билан эмас, балки унга хос асосий белгилар, хусусиятлар номи билан юритилади”[1]. Қачонки, ўхшатишлар асосида образли ифода яратилгач, асар сюжетида шу белги ривожлантирилиб, сўнг перифразага айланади. Аввал бирор белги билан тилга олинган образ шу белгининг тараққий этиши натижасида белги номи билан, сўнгра ўхшатилган предметнинг ўз номи билан атала бошлайди.

Адибнинг “Сароб” романида ҳам перифраза мавжуд. Перифразадан фойдаланишдан олдин муаллиф романда шундай портрет тасвирини беради. “Ячейка ҳамон ўз ишини қилар эди. Саидийни рабфакда ўқийдиган қўпол, йўғон гавдали, новча бир шахтёрга боғлаб қўйди. Саидий индай олмади, аммо ичидан ғижинар эди” “Тўнгак” билан профессор ўртасида ўтган бу гап бутун университетга довруқ бўлди”[1]. Саидий тилидан берилган перифразада у студентни нақадар ёмон кўриши маълум бўлади. Бундан ташқари, ҳеч қандай ишга ярамайдиган нарсага нисбатан кўп ҳолларда ”тўнгак” сўзи қўлланилади. Муаллиф ушбу сўзни қўллашда образнинг ташқи кўринишидаги қўполликни образли тасвирлаб беради. Саидий тасаввурида эса бу бола ҳали ҳеч нарсага ярамайди, деган тушунча мавжуд эди. Саидий ўз тенгдошини менсимай ячейканинг қилган ишидан нолиб, ўртоғига нисбатан “тўнгак” сўзини қўллаган бўлса, Мунисхон ҳам тенгдошларига нисбатан қуйидаги перифразани ишлатади. “Комсомолларинг шу тўғрида яхши экан беғараз алоқани тан олади. Ана у қурумсоқлар-чи, бай, бай... бирам кўнгли эгри-ей-й... балога учрасин!”[3]. Одатда перифразалар нутқ таъсирчанлигини оширади, муаллифнинг образ ҳақида айтмоқчи бўлган фикрини китобхонга образли тасаввурлар асосида етиб беришини таъминлайди. Адибнинг “Ўтмишдан эртаклар” қиссасида кампир

[1] Хотамов Н.Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1979. –Б. 230
[3]Юқоридаги манба. –Б. 56.

образи бор. Унинг қаттиққўл ва вайсақилиги ҳақида муаллиф қиссада батафсил маълумот бериб боради. Айнан шу аёлга хос хусусиятларни “Сароб” романидаги Саидийнинг қайнонаси мисолида кўрамиз Унга нисбатан муаллиф “булбулигўё” сўзини қўллайди. Ушбу образнинг вайсақилигини бутун асар сюжети давомида кўрсатиб беришга эришади. Романнинг бир неча ўринларида айнан шу сўзни келтириб, уни перифраза даражасига кўтаради. Аввалига муаллиф кампир ҳақида шундай маълумот беради. “Кўп йиллар касал ётиб ўлган мурда сингари бўлган бу хотин, Саидий тўғрисида қизидан кўра ортиқроқ кунчи эди. У Саидийни қаерга борганини, ким билан сўзлашганини мудом суриштириб билиб юрар ва агар бирон шубҳага тушса қизи орқали, ёки жуда чидай олмаса, ўзи Саидийни сиқиб жонини олар эди”[4]. Юқоридаги таърифни янада мукаммаллигига эришиш мақсадида, муаллиф изоҳни давом эттиради. “У гапирса, Саидий сўз қайтаришга юрак қилолмас, чунки бир оғиз сўз қайтарса, уч кунгача боши ғурбатдан чиқмасди. Шунинг учун Саидий унга “булбулигўё” деб ном берди”[5]. Тўхтовсиз ва ўринсиз гапирадиган кишиларга нисбатан халқ орасида булбулигўё сўзининг ишлатилиши бизга маълум. Буни яхши билган адиб, кампир характерини мукаммал тасвирлашга эриши учун айнан шу сўзнинг акси маъносини берувчи “булбулигўё” сўзини қўллайди. Матнда келтирилади: “Овқат маҳалида “булбулигўё” одатдагича яна талай одамларни ёмонлади, аллақаерда бўлган жанжалда ким ҳақ, ким ноҳақ экани, оқсоч бир неча мартаба танбеҳ эшитишига қарамасдан, бу кун яна супургини деворга суяб, тикка қўйгани тўғрисида титраб, қақшаб сўзлади”[6].

“Бемаврид гапирилган бу гаплар Саидийнинг қанчалик асабига тегмасин, у лом-мим дея олмас, барчасини ичига ютишга мажбур эди. Кампирнинг вайсақилиги кундан-кунга ошиб борар, уни кўрганда Саидийнинг асаблари бора-бора қақшайдиган бўлиб қолди. “Саидийнинг юраги шув этиб кетди: “Оббо, бу касофатнинг йиғлаб ўтирганини кўрмаса гўрга эди” деди ичида ва бор кучини тўплаб, “булбулигўё”га илжайиб қаради. “Булбулигўё” пиёлаларни чайқаётиб Сорахонга қаради”[7]. Муаллиф ушбу образ характерини асар сюжетида шу ўзига хос яратиб, қўйилган бу ном кампирга ниҳоятда мос эканлиги сюжет давомида исботланади. Булбулигўё сўзи такрор қўлланилганда функцияси янада кенгайиб, ўз бадиий қимматини йўқотмайди: “Булбулигўё” тез-тез чой хўплар, қулт-қулт ютар ва “қулт” этган товуш Саидийнинг юрагига эриган чўян бўлиб томар эди”[8]. Шу ўринда бадиий ижодда кенг қўлланиладиган товуш тоналлигини кузатамиз. Уни чой ичиши “қулт-қулт ютар” товуш

[4] Юқоридаги манба. –Б. 193.
[5] Юқоридаги манба. –Б. 193 .
[6] Юқоридаги манб. –Б.194.
[7] Юқоридаги манба. –Б.201.
[8] Юқоридаги манба. –Б. 201.

тоналлиги натижасида ҳиссий тоналлик “эриган чўян бўлиб томар эди” ни келтириб чиқаради. Айнан шу тасвир ҳар икки образнинг ўзига хос характер сифатида шаклланишига сабаб бўлди, перефазанинг китобхонга таъсирини янада кучайтиради, ўзига хос эстетик кайфият бағишлайди. Кейинги перифраза яна юқоридаги каби ўхшатиш билан бирга қўлланиб, Саидийнинг ўз қайнонасига бўлган салбий муносабатини яққол кўрсатиб беради. Бадиий асар сюжетидаги ҳар бир сўз асарнинг умумий ғоясига хизмат қилади. “Булбулигўё” гул қўйилган ваза кўтариб кирди. Саидий ўтирган ерида кесак бўлиб қолди”[9]. Ровий нутқида келтирилган кесак сўзида Саидийнинг руҳий ҳолати ўз ифодасини топади. Берилган мисоллардан шу нарса маълум бўлдики, Саидий образининг ички оламини очилиши айнан шу ўхшатиш ёрдамида тасвирда мукаммаликка эришади. Демак, “кесак” сўзида икки хил ҳолат ўз ифодаси топади, биринчидан рангида қон қолмаслиги назарда тутилса, иккинчидан, образ ҳаракати батамом тўхтатилганлиги назарда тутилади. Роман сюжетида “бубулигуё” асосий фигура саналади. Сорахон, Муродхўжа домлани ҳам у бошқаради. “Шу жанжалдан кейин “булбулигўё”нинг жағи анча тийилди, Саидийнинг кўзига кам кўринадиган бўлди”[108]. Бошқа иштирокчилар нутқида ҳам жуда кўп перифразаларни учратамиз. “Ассалому алайкум шервачча, – деди бир кекса товуш ва бу товушнинг эгасидан илгари “тўқ” этиб ҳасса кирди. Саидий дарҳол четланиб йўл берди”[11]. Муаллиф образлар репликасида перифразалар қўлланилади. Айниқса, диалогларда қўлланилган перифразаларнинг таъсир кучи, бадиий-эмоционал қуввати юқори бўлади. Бу саҳифада ҳам перифраза билан биргаликда матнда ўхшатишларни учратамиз. “Эркак сабзига ўхшаган бу чол ҳассанинг ёрдами билан курсига секин ўтирдида, ёнидан бир қоғозни чиқариб, Саидийга узатди. Саидий чироқни ёқиб, хатни кўздан кечирди” (88-89 бетлар).

Атрофидаги одамлардан ҳар доим манфаат кутган Муродхўжа домла Аббосхон берган тўғри маслаҳатдан шубҳаланиб, дилидан шундай фикрларни ўтказади, аммо Аббосхоннинг ўзига сездирмайди. “Ҳа итвачча,– деди домла ичида, Салимхон сенга бир нарса ваъда қилганга ўхшайди”[120]. Муродхўжа домла фақат Аббосхонга эмас, ундан бошқаларга ҳам айнан шундай муносабатда бўларди. У ҳар қандай нарсага бойлик орттириш, мол-дунё йиғиш назари билан қарайди. Домланинг Саидийга берган қуйидаги маслаҳати юқорида биз келтирган фикр нақадар тўғри эканлигини исботлайди: “Шундай! Мулк керак, бойлик! Ота-она, ёр-дўст, шуҳрат-фазилат ҳаммаси бир чақа.

[9] Юқоридаги манба. –Б.203.
[10] Юқоридаги манба. –Б. 194.
[11] Юқоридаги манба. –Б. 88 .
[12] Юқоридаги манба . –Б. 230.

Бойлик, мулк-амлок орттириш керак”[13]. Муродхўжа домла бойлик олдида ҳатто ота-онанинг ҳам бир чақа деб билади. Унинг бу қарашлари маълум маънода Саидийга ҳам юқади. Саидийнинг молпарастлик иллатларини янада ривожлантиришга сабаб бўлди. Инсон, унинг қадр-қимматини бир буюмчалик билмаслик, менсимаслик домланинг вайсақи хотини “булбулигўё” характерида ҳам мавжуд: “Булбулигўё” нинг кўзи ағанаб ётган сопол обдастага тушди. Обдастанинг жўмраги синган эди. У жаҳли чиқиб обдастани жойига қўйди-да, индамасдан қайтиб кетди ва ош сузар экан, дўнғиллар эди: “Худо кўтарсин, шабкўр, ўлимтик!”[14]. Саидийнинг опасига нисбатан “шабкўр”, “ўлимтик” деган перифразани қўллаб образли ҳолатни яртади. Қўлланилган перифразалар романда ҳар бир образ ички дунёси, руҳий ҳолати, атрофдагиларга бўлган муносабатини очиб беради. Биз юқорида А.Қаҳҳор асарларида калтакесак деталиги жуда кўп ўринларда мурожаат этганлигини эътироф этган эдик. Сорахон Мухторхонга нисбатан калтакесакка ўхшаб овоз чиқаради, жумласини қўллаган бўлса, Саидий қайнонасини тез ҳаракат қилишини шундай таърифлайди: “У боғ эшигининг бўсағасига қадам қўйганда, “булбулигўё” калтакесакдай чаққонлик билан унинг ёнидан ўтди. Саидий то орқасига қараб гап сўрагунча, эшикни тақ этиб ёпиб, уйга кирди, кетди”[15].. Муаллиф бир вақтнинг ўзида кампир образига нисбатан икки салбий хусусиятни ифодалайди. Перифраза ёрдамида вайсақилигини ифодаласа, чаққонлигини калтакесакнинг ҳаракатига қиёс қилиб, салбий муносабатини янада кучайтиради. Калтакесак деталига нисбатан қўлланилган перифразанинг энг таъсирлиси, бизнингча, Сорахоннинг нутқида Мухторхонга нисбатан қўлланилган қуйидаги перифразадир. “Ахир, қиз олмаган йигит, қандай қилиб, бир калтакесакнинг сарқитига рози бўлсин, майли, у ҳам қиз олсин. Сўнгра баровар бўламиз”[16].

Нафақат, “Сароб” романида адибнинг бошқа асарларида ҳам калтакесак деталига нисбатан турли ўхшатишларни қўллаб уни перифраза даражасига кўтарган. Масалан, Мухторхон ўпганда калтакесакка ўхшаб товуш чиқаради, кўзи қўмлоқда ётган калтакесакнинг кўзига ўхшайди каби ўхшатишларни қўллаб келган муаллиф ўзининг бадиий концепциясини яна кучайтириш мақсадида “калтакесакнинг сарқити” перифразасини келтиради. “Сароб” романининг ўзига хос бадиийлигини таъмин этишда А.Қаҳҳор томонидан қўлланилган перифразаларнинг аҳамияти каттадир. Юқоридаги каби мисолларни роман матнидан кўплаб келтириш мумкин. Адабий жамоатчилик томонидан у даражада ижобий баҳоланмаган “Қўшчинор чироқлари” романида ҳам, муаллиф бадиий тасвир воситаларидан ўринли фойдаланган.

[13] Юқоридаги манба. –Б. 236-237 .
[14] Юқоридаги манба. –Б. 224.
[15]. Юқоридаги манба. –Б. 231.
[16] Юқоридаги манба. –Б. 180.

Фойдаланилган адабиётлар:

1.Абдулла Қаҳҳор. Асарлар. Беш жилдлик. Биринчи жилд. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. –Б.43.

2.Кавалев В. Много образие стилей советской литературе. – Москва: Художественная литература, 1965, С.20.

3.Абдулла Қаҳҳор Асарлар. Беш жилдлик. Бешинчи жилд. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. –Б.274-275.

MUHAMMAD YUSUF HAYOTI VA IJODIGA BIR NAZAR

Raximova Dilafruz
Xudayberganova Xosiyat Qahramonovna
Xorazm viloyati Urganch tumani
14-son maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari
https://doi.org/10.5281/zenodo.6719826

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek she'riyatining porloq yulduzi, iste'dodli shoir Muhammad Yusufning hayoti va ijodi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: shoir, she'r, she'riy to'plam, she'riyat, ijod, "Tanish teraklar", hayot, iste'dod, tug'ma iste'dod.

"Koinot qachonlardir bir nuqtaning, bir zarraning portlashidan paydo bo'lgan deyiladi. Agar shu fikr to'g'ri bo'lsa, poetik so'z, ya'ni she'riyatning mohiyatida hududga sochilib ketgan koinotni to'plab, sidirib yana o'sha nuqtaning ichiga sig'dirish istagi yotadi", - deydi Ramiz Ravshan. Va shoirning zimmasidagi qutlug' vazifa haqida gapirib: "har bir asl shoir tangrini o'z ona tilida tasvirlaydi va haqiqiy shoir tangri diydorini tilab qushday qanot qoqa-qoqa o'z tilining osmonini kengaytiradi", - deydi. Qushning qanot qoqishidan ohang yaraladi, kuyga aylanadi, so'zga aylanadi. Shu bepoyon osmon qushlarga va shoirlarga armug'on qilindi, deya bejiz aytilmaydi.

O'z so'zi bilan ko'rkli tilimizning pokiza osmonini kengaytirgan shoirlar ko'p. O'zbekning baxti ham shunda. Bugun bu tilda tarannum etib bo'lmaydigan tuyg'u yoxud tushunchaning o'zi yo'q. Turkiy tilni dag'al va nazmga yaroqsiz deb bilganlarning haddini buyuk Navoiy XV asrdayoq ko'rsatib qo'ygan. XX asr avvalida o'zbek tilida nasriy asar yozishning mushkulligini ro'kach qilganlarni Qodiriy va Cho'lpon nasrdagi betakror so'z nazmi bilan hayratga solgan. Keyingi avlodlar ichida ham badiiy so'zning me'morlari sanalmish katta shoirlar yetishib chiqdi. Demak, muqaddas silsila davom etmoqda va millat turguncha turadi.

O'tgan asrning so'nggi choragida adabiyotimizning pokiza osmonida yo'lchi yulduzdek porlagan shoir Muhammad Yusuf o'zining sodda va samimiy so'zi, o'zigagina yarashadigan she'riyati bilan el nazariga tushdi. U o'zining qisqagina umrida milliy she'riyat va zamonaviy qo'shiqchilikni yuksaklarga ko'tarilishiga beminnat hissasini qo'sha oldi. Shoir haqida **Erkin Vohidov** shunday yozgan edi: "Muhammad Yusufni xalqimiz sevib dilida saqlaydi, Vatan kuychisi, Istiqlol kuychisi deb ardoqlaydi, o'zbek eliga ulug' mehr, sadoqat singib ketgan nazokatli, samimiyat to'la she'rlarini qadrlaydi, qo'shiq qilib aytadi. Uning she'riyatini chin

ma’noda qanotli she’riyat, yurt osmonida baland parvoz qiluvchi, yuraklarga qanot berguvchi she’riyat desa bo’ladi”.

Xalqimizning sevimli shoiri Muhammad Yusuf 1954-yil 26-aprel kuni Andijon viloyati Marhamat tumani Qovunchi qishlog’ida tavallud topgan. U Yusuf ota va Enaxon ayalarning ikki o’g’il, uch qiz farzandlari ichida erka dilbandi bo’lib ulg’aygan. Noyob iste’dod sohibi bo’lmish Muhammad Yusuf bolalik chog’larida sho’x yigit bo’lib, ko’p narsalarga qiziqqan, yuragida muhabbat, tomirlarida oqayotgan qonning jo’shqinligi uning she’rlarida yaqqol namoyon bo’ladi. Muhammad Yusuf bolalikdan ziyrak, juda qiziquvchan bo’lganligi bois ko’p kitoblarni sevib o’qigan va savollarga javob izlagan. Shu bilan birgalikda Muhammad Yusuf ochiqko’ngil va hayolparast bola bo’lib, sheriyat va adabiyotga mehri juda baland bo’lgan. Bunday mehrni uning qalbida buvijonisi Tursunxon ena uyg’otgan edi. Muhammad Yusuf garchi oddiy dehqon oilasida dunyoga kelgan bo’lsada, o’qish va ishlarida katta muvaffaqiyatlarga erishadi. 1973-yili o’rta maktabni a’lo baholarga tugatib, Reshetov nomidagi Rus tili va adabiyoti Institutiga o’qishga kiradi. 1978-80 yillar oralig’ida harbiy xizmatni o’taydi va bu davrlar shoir uchun mashaqqatli va murakkab tajribali davr bo’ladi, shoir ko’nglida “Ona vatan’’ tuyg’usi yanada alangalanadi. Shu tariqa shoirning keng qamrovli ijod faoliyati boshlanadi. Muhammad Yusufning qalamiga mansub dastlabki kitob 1985-yil nashrdan chiqqan bo’lib, **“Tanish teraklar”** deb nomlanadi. U qisqa muddat ichida samimiy, xalq dilidan so’zlovchi, xalq kuychisi bo’lganligi bois xalq ko’nglidan qisqa fursat ichida joy ola biladi. Uning “Iltijo”,”Bulbulga gapim bor”(1987-y.), “Uyqudagi qiz”(1989-y.), “Ko’ngilda bir yor”, “Ishq kemasi”, “Halima enam allalari”(1991-y.), “Yolg’onchi yor”(1994-y.) “Seni osmonimga olib ketaman”(1998-y.), “Erka kiyik”, “O’zingdan qo’ymasin xalqim”(2000-y.), “Saylanma”(2001-2004-yy.), “Ulug’imsan, vatanim”, kitoblari chop etilib, ommaga taqdim qilingan. Hech bir kitobxon yo’qki, uning javonidan Muhammad Yusufning kitobi topilmaydigan, hech bir inson yo’qki, uning misralaridan mehr, muhabbat hissin tuymagan! U shunday iste’dotli shoirki, uning har bir she’rida xalqning quvonch-u iztiroblari, orzu va armonlarini madh ettirgan. Shoirning dilga yoqar misralarini hirgoya qilamagan bironta o’zbek farzandi topilmasa kerak. Muhammad Yusuf san’atkorlar ahliga ham katta yutuq keltirgan, o’lmas satrlarni bitgan desak ham mubolag’a bo’lmaydi.

Muhammad Yusuf xalqimizga qilgan fidoyi xizmatlari uchun: 1996-yili “Do’stlik” ordeni; 1998 -yilda “O’zbekiston xalq shoiri” faxriy unvonlariga sazovor bo’lgan. Muhammad Yusuf garchi she’riyatida sodda so’zlardan foydalangan bo’lsada, uning mazmun mohiyatini juda ham boy, chuqur ma’noga ega tarzda yoritib bergan:

Mendan nima qolar,
Ikki misra she’r

Ikki sandiq kitob
Bir uyum tuproq
Odamlar ortimdan nima desa der
Men seni o’ylayman O’zimdan ko’proq,
Lola, lolajonim, Lolaqizg’aldoq!

Xalq shoiri Muhammad Yusuf 2001-yil 30-iyulda dunyodan ko’z yumdi. Garchi u vafot etgan bo’lsada, lekin u odamlar yuragida mangu yashaydi, Muhammad Yusuf xalqning qalbidir!…

Shoir ijodi bedorlikka da’vatkor she’riyat. U sevgi, visol, ayriliq, iztirob kabi shaxsiy kechinmalardangina iborat she’riyat emas. Kitobxonni ijtimoiy hayotda faol yashashga, uyg’oqlikka chorlovchi she’riyat. Bir she’rida shunday satrlar bor:

Mudroq bosgan dilim,
Aytaman bir sir.
Tangri uyquni-da
Pallada tortar.
Uyqu – ham
Nasiyaga berilgan umr,
Uyqung ortgan sayin
Qarzing ham ortar...

Umrning har oni o’lchovli, hatto uyquning ham badali bor. Buni idrok qilgan kitobxon o’z umrini sarhisob qiladi va shoirdan minnatdor bo’ladi.

Muhammad Yusuf ijodi umuminsoniy qadriyatlarni ulug’lovchi she’riyat hisoblanadi. Uning she’rlarida insoniyatga aloqadar ezgu xislatlar, savob amallarning tamomi eng baland pardada kuylanadi. Bir mansur she’rida shunday deydi: “Asli inson xoki qo’yilgan hamma joy aziz va muqaddasdir. Bas shunday ekan, odamlar istagan qabr tuprog’ini ko’zlariga surtsin. Bundan kimga jabr.” Bu yerda insonning din, e’tiqod, mazhab, irq, millat va rang-ro’yi qanday bo’lishidan qat’i nazar muqaddasligi va uning xoki qo’yilgan tuproqning azizligi tarannum qilinmoqda. Shoir she’rni, tilni ajdodlardan qolgan va avlodlarga bekam bexato yetkazilishi shart bo’lgan muqaddas meros deb biladi.

Muhammad Yusuf haqida o’qitishdan maqsad bir shoirning hayoti va ijodini o’rgatishdangina iborat bo’lmasligi kerak. Kamida, Vatanni Muhammad Yusufdek “iddaolar qilmay” sevishni o’rgatishdan, ona tilimizni Muhammad Yusufdek gard yuqtirmay ardoqlashni o’rgatishdan, beqiyos milliy qadriyatlarimizni uningdek anglashni o’rgatishdan iborat bo’lishiga erishmog’imiz lozim.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, hamma inson ham vatan, ona deya kuylashi mumkin-u, ammo ona yurtni maromiga yetkazib, yurakdan kuylay oladigan,

xalq dilini biladigan ijodkorgina chin shoir bo'la oladi! Muhammad Yusuf bunga yorqin timsol bo'la oladi deb o'ylayman. Shoir she'rlari orqali odamlarning unitayozgan qadriyatlarimizni, millatimizni asrab avaylashga chorlaydi. Uning she'rlaridagi oddiy obrazlari, ayni paytda munis va qadrdon, tub mohiyati yani ular timsolida shu ona vatan, muqaddas tuproq, shu vatanning azizligi, mo'tabarligi aks ettirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://tafakkur.net/muhammad-yusuf.haqida
2. Ma'rufjon Yuldoshev. Muhammad Yusufn anglash. 07.07.2020.
3. Muhammad Yusuf. Saylanama. T.: 2005.
4. www.ziyo.uz.

EFFECTIVENESS OF USING AUTHENTIC MATERIALS IN INCREASING LEARNERS

Kodirova Mokhira Bakhodirjon kizi
Andizhan State University
1-курс магистранти
https://doi.org/10.5281/zenodo.6719858

Annotatsiya: Maskur maqolada autentik materillarni ingliz tilini o'rganishdagi jarayonida qollashning samarali usullari haqida fikr olib borilgan. Shuningdek, mazkur masala olimlar fikrlari keltirilgan.

Kalit so'zlar : sinfxondagi tadqiqot, ma'no, tushuncha, haqiqiy materiallar.

Annotation: This article provides authentic materials and their importance in increasing learners 'motivation. The article also gives facts which belongs to scientists.

Keywords: classroom investigation, context, concept, real materials.

Аннотация: в этой статье представлены аутентичные материалы и их важность в повышении мотивации учащихся. в этой статье также приведены факт науки по этой.

Ключевые слова: расследование в классе,концепция, контекс, реалные материалы.

We have enough power and possibility, knowledge and ability, definite determination, aspiration and bravery in order to teach special subjects, the history of our country and the civilization of the world, foreign languages and modern computer technologies perfectly to our children and youth.(SH. M. Mirziyoyev)

Over the long periods of time, English has been chosen as an international language to create insouciant atmosphere among diverse nations; it is spoken, mastered and comprehended even in numerous countries. It is clear that English language has already obtained outstanding function in any sphere of life, namely, education, sociology, business, economy, computer programming. Almost in all developing and crucial branches of life success can be result of high English language proficiency since it is the dominant language of technology.

The use of Authentic Materials (AMs) in teaching English has been discussed by many scholars since the approach of Communicative Language Teaching (CLT) appeared in 1970s. Researchers (Peacock, 1997: 144; Porter and Roberts, 1981: 39) found that the more students interact with the real of the target language in the classroom activities, the higher their interest in learning. Aligned with this, Nuttal (2016: 172) points out that authentic text can be motivating because they are proof

that the language is used for real-life purposes by real people. Berardo (2006: 64) notes that one of the reasons why authentic materials are employed in the classroom of English language teaching is to make a close contact with the target language as much as possible. It means that learners are intended to have a direct experience of how the language works in the real situation. The language classroom activities should as far as possible mirror the real world and use the real world or "authentic" sources as the basis for classroom learning.

The topic of article is "Effectiveness of using authentic materials in increasing learners". The importance of the topic is researching the ways of using authentic materials and teaching the use of them suitably to pupil's level. The purpose of the theme is to explore the classification of techniques for teaching learning process of a foreign language and developing students' language skills through authentic materials.

Authentic materials are essential to learn a foreign language, this paper is an attempt to analyze how such materials can be used in the particular situation of learning, especially since our access to materials designed for native speakers of English is virtually unlimited, due to various reasons. We have laid special emphasis on the internet, since we consider it to be an extremely useful and convenient resource..

Most countries have paid much more attention to teaching a foreign language for the last decades. The aim of a foreign language learning is to manage to use it in the real world, in real situation. Furthermore, Language is key to the worl. According to Larsen Freeman (2000, 129), one of the characteristics of communicative language teaching is using authentic materials.

There are several definitions of authentic materials in the field of language teaching. One of the common definitions of the term is given by Kilickaya (2004) „exposure to the real usage of the everyday life language', (p.1) and how to be used by native speakers on their daily basis. According to Kilickaya, many teachers have discussed that English presented in the classroom should be authentic, not produced for instructional objects. Generally, authentic materials are the materials that involve language naturally occurring as communication in native speaker context of use, or rather those selected contexts where Standard English is the norm: real newspaper report, for example, real magazine articles, real advertisement, cooking recipes, horoscopes, etc. Some general definitions of the term are given by the point of view of the following specialists.

According to Nunan(2016) authentic materials have been created for objects other than to teach language.

Stubbs (2016) describes authentic texts as "actual, attested, and such that they have real authentic examples of use."

Jordan (2017) claims that authentic texts are the ones which are not produced for pedagogical purposes.

Herrington & Oliver (2000) recommended a new pedagogical term, called "authentic learning". This term is related to the students' real life and makes them face and deal with real world situations.

Carter & Nunan (2001, p. 68) defines authentic materials as the materials which are "ordinary texts not produced particularly for teaching language purposes."

Herod (2002) describes authentic learning materials and activities as materials which are produced to imitate the real life situations.

In other words, Jacobson (2003, p:1) defines that authentic materials are used not only in classroom but also in real life situations.

A major part of teaching and learning a foreign language is selecting teaching materials. Nowadays, the resources for teaching materials are available for everybody. Teachers of the foreign language can get many benefits through using different materials, and they can be helpful for the teacher to present the lesson better.

Bibliography:

1. Bose, N. V. (2009). Using authentic materials in ESL classrooms. The Journal of English Language Teaching, 49 (3), 18-20.

2. Foppoli, J. (2002). Authentic vs graded materials in second languages. Retrieved March 26, 2011, from http://www.eslbase.com.

3. Homolova, E. (1992). Creative approach to authentic materials in ESL introduction. Retrieved March 26, 2011, from http://www.eslteaschersboard.com.

4. Mortinez, A. (2002). Authentic materials: An overview. Retrieved March 2011 from http://3telus.net.com.

5. Morton, R. (1999). Abstracts as authentic materials. ELT Journal, 52 (3), 177-182.

FONETIKA VA GRAFIKA ASOSLARINI O'RGANISH METODIKASI

Erkinova Nodira Ma'murjon qizi
Andijon davlat unversiteti Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)
3- bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.6719884

Annotatsiya. Ushbu maqola o'quvchilarga fonetika bo'limini qandek o'qitishni o'rgatadi. Uning qaysi usuli samaradorligi va foydaligi haqida ma'lumotlar beriladi.O'quvchilarda bilim va ko'nikmani shakllantiradi.

Annotation. This article will teach students how to teach the phonetics department. Information is given on which method is effective and useful. It forms knowledge and skills in students.

Аннотация. Эта статья научит студентов, как преподавать отдел фонетики. Дается информация о том, какой метод эффективен и полезен, формирует у учащихся знания и умения.

Kalit so'z. Metodika, fonetika, grafika, harf, undosh, unli

Ключевое слово. Методика, фонетика, графика, буквы, согласные, гласные

Keyword. Methodology, phonetics, graphics, letters, consonants, vowels

Kichik yoshdagi o'quvchilam ing og'zaki va yozma nutqni egallashlarida fonetikadan olgan bilimlarining ahamiyati katta: a) fonetik bilimga asoslangan holda 1 sinf o'quvchilari savod o'rganish davrida o'qishni va yozishni bilib oladilar; b) fonetik bilim so'zni to'g'ri talaffuz qilish (tovushlami to'g'ri talaffuz qilish, urg'uli bo'g'inni farqlash, orfoepik me’yorga rioya qilish) asosini tashkil etadi; d) fonetik bilim morfologik va so'z yasalishiga oid bilimlar bilan birga o'quvchilarda qator imloviy malakalar (jarangsiz va jarangli undoshlarning yozilishi) shakllantirish uchun zamin bo'ladi; e) fonetik bilim gapni ohangiga ko'ra to'g'ri aytish, logik urg'u va gap qurilishidagi to'xtam larga rioya qilish uchun zarur; d) so'zning tovush tom onini bilish uning ma’nosini tushunish va nutqda ongli qo'llash uchun muhimdir; hozir va hozir,atlas va atlas so'zlari manosidagi farq faqat urg'u orqali ajratiladi. So'zning tovush tom onini tasavvur qilish so'zlarni talaffuzda farqlash, ayrim so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish va qo'llash uchun zarur.[22]

O'qituvchi boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan barcha fanlarga oid darslarda so'zni aniq va to 'g 'ri talaffuz qilish ustida doimiy ishlab boradi, shu maqsadda ko'pincha so'zni tovush tom ondan tahlil qilishdan foydalanadi.[23]

[22] A. Zunnunov va boshq. Adabiyot o'qitish metodikasi. — T, „O'qituvchi41, 1992.
[23] A. Rafiyev. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi va imlosi. —T.: 2003.

Maktab dasturiga muvofiq, boshlang'ich sinf o'quvchilari fonetikgrafik ko'nikm alar tizimini hosil qiladilar: tovushlar va harflar, unli va undosh tovushlar, jufti bor jarangli va jarangsiz undoshlar, jufti yo'q jarangli va jufti yo'q jarangsiz undoshlar; so'zni bo'g'inlarga bo'lish, urg'uli bo'g'inni talaffuzga ko'ra amaliy farqlash ko'nikmalariga ega bo'ladilar.Bolalar maktabga kelgunga qadar ham nutqning tovush qurilishini amaliy o'zlashtiradilar, ammo ular maxsus o'qigunlariga qadar so'zni bo'g'inlarga bo'lishni, so'zdagi tovushlami izchil talaffuz qilishni bilmaydilar. 1 sinf o'quvchilarida so'zni to'g'ri talaffuz qilish, bo'g'inlarga bo'lish, undagi har bir tovushni tartibi bilan aniq aytish ko'nikm asini shakllantirish ustida maqsadga muvofiq ishlash, o'z navbatida, analiz, sintez, taqqoslash, guruhlash kabi aqliy mashqlarni bilib olishga, shuningdek, tovushlarning tabiati, so'z tarkibida bir-biriga ta ’siri kabi ayrim elem entar bilimlarni o'zlashtirishga imkon beradi I sinfda fonetika va grafikani o'rganishga katta o'rin beriladi, chunki o'quvchilar o'qish va yozish jarayonini shu sinfda egallaydilar.Bu bilimlar keyingi sinflarda mustahkamlanadi, takomillashtiriladi.[24]

Tovushlar va harflar, unli va undosh tovushlarning xususiyatlari bilan tanishtirish

Tovush murakkab tushuncha bo'lgani uchun boshlang'ich sinflarda unga ta ’rif berilmaydi. Shunga qaramay, bolalarda tovush haqida to'g'ri ilmiy tasavvur amaliy mashqlar yordamida hosil qilinadi. Bunda yetakchi usul so'zdagi tovushlarning talaffuzi hamda so'zning leksik ma’nosi so'zdagi tovushlarning tarkibiga bog'liqligi ustida kuzatish hisoblanadi. Masalan, aka, uka, opa, ona, ola, kul, gul, qora, qarakabi bir unli yoki bir undosh bilan farqlanadigan so'zlar har xil lug'aviy ma’noni ifodalaydi.[25]

Ma’lumki, nutq tovushlari ikki katta guruhga bo'linadi: unli tovushlar va undosh tovushlar. Buni o'quvchilarga tushuntirishda ularning quyidagi belgilari hisobga olinadi:

1) talaffuz qilinish usuli (unli tovush talaffuz qilinganda havo oqimi og'iz bo'shlig'idan erkin ravishda o'tadi, undosh tovush talaffuz qilinganda, havo og'iz bo'shlig'ida to'siqqa uchraydi);

2) ovoz va shovqinning ishtiroki (unli tovushlar faqat ovozdan iborat, undosh tovushlar talaffuz qilinganda shovqin eshitiladi, ba’zan shovqin va qisman ovoz eshitiladi);

3) bo'g'in hosil qilish xususiyati (unli tovushlar bo'g'in hosil qiladi, undosh tovushlar bo'g'in hosil qilmaydi).

[24] B. Ma’qulova, T. Adashboyev. Kitobim - oftobim (1 -sinf uchunsinfdan tashqari o'qish kitobi). — T.: „O'qituvchi", 1999.

[25] A. G'ulomov. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. – T, „O'qituvchi", 1992.

O'quvchilar bu belgilarni yodlab olishlariga yo'l qo'ymaslik, aksincha, 1-sinfdanoq bolalarda tovushni talaffuz qilganda, ovoz yoki shovqin eshitilganda nutq a'zolarining vaziyatini kuzatish ko'nikmasini o'stirib borish lozim. Bunday kuzatishlar 4-sinfda davom ettiriladi va umumlashtiriladi. Tovushlar o'zlashtirishga bunday yondashish, unli va undosh tovushlari puxta o'zlashtirishga imkon berishi bilan birga, o'quvchilaming aqliy qobiliyatini o'stirish vazifasini ham bajaradi; xususan, bolalar kuzatilgan hodisaning bir necha belgilarini taqqoslashga, umumlashtirishga o'rganadilar.

Foydalangan adabiyotlar:

1. A. Zunnunov va boshq. Adabiyot o'qitish metodikasi. — T, O'qituvchi41, 1992.

2. A. Rafiyev. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi va imlosi. —T.: 2003.

3. A. G'ulomov. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. – T,O'qituvchi", 1992.

4. B. Ma'qulova, T. Adashboyev. Kitobim - oftobim (1 -sinf uchunsinfdan tashqari o'qish kitobi). — T.: „O'qituvchi", 1999.

5. B. Ma'qulova, S. Sa'diyeva. Sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlaii (1-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma). — T, 0 'qituvchi",1997.

HINDISTON TARAQQIYOTIDA MAHATMA GANDINING TUTGAN O'RNI (1915-1947)

Xudoyqulov Xusan Ibragimovich
O'zbekiston Milliy Universiteti Tarix fakulteti
1 bosqich magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.6719940

Anotatsiya: Ushbu maqola Hindiston tarixining eng ziddiyatli davrlaridan biri bo'lgan, XX asr boshidagi hind xalqining Buyuk Britanya mustamlakachilik zulmiga qarshi olib borgan, milliy ozodlik kurashi davrini (1915-1947) hamda, hind xalqi ozodlik kurashining yo'boshchisi Mahatma Gandining vatan ozodligi yo'idagi xizmatlari va u ilgari surgan "satyagraha" (haqiqiy haqiqat), zo'ravonsizliksiz qarshilik, g'oyalarini o'zida aks ettiradi.

Kalit so'zlar: Mafkura, ezgulik, yomonlikka yaxshilik, adolat, tenglik, haqiqat, milliy mafura, ishonch.

Insonyat tarixida g'oya va mafkuralar nihoyatda katta ahamyat kasb etadi. Bu g'oyalar kishilik jamyatini farovon qilishga, baxtli hayot kechirishga asos bo'lib xizmat qildi. Milliy mafkura milliylikni tarannum etib insonlarni ozodlik va hurlik sari yetaklaydi. Kishilik jamyatida mafkuralar o'z ma'no mohiyatiga ko'ra falsafiy, diniy, milliy, dunyoviy va boshqa ta'moyillar asosida shakillanadi va insonlarni jismoniy va ruhiy kamolot sari yetaklaydi.

Ana shunday ruhiy kamolot sohibi hind xalqining buyuk simosi, ozodlik yo'lboshchisi Muhandas Karamchat Gandidir. Hindiston mustaqilligining asoschisi Mahatma Gandi o'z ma'naviyati, g'oyalari va ilg'or qarashlari bilan XX asr insonyat tarixidagi buyuk shaxslardan biriga aylandi. Gandi mustamlakachilikka qarishi kurashning timsoli bo'ib qoldi. Uning vatan ozodligi yo'lida qilgan xizmatlari butun dunyo xalqlarida vatanparvarlik tuyg'usini jumbushga keltirdi va "Gandizm" nomini oldi. Gandizm – diniy-falsafiy g'oya bo'lib, o'zida idealizm, induizm, jaynizm va xristianlik elementlarini qamrab oladi.

Uning asosida "haqiqat, adolat, ishonch, hech kimga yomonlik qilmaslik" yotadi. Ozodlik uchun kurashning yangi yo'li "satyagraha"

ikki tushunchani o'z ichiga oladi: kuch ishlatmaslik, fuqoroviy bo'ysunmaslik. Uning zamirida Britanya hukumati qonunlarini baykot qilish, ingliz hukumati bilan hamkorlik qilmaslik, inglizlar joriy etgan order va medallarni qabul qilmaslik, ingliz

maktablariga bormaslik, zavod va korxonalarda ishlashdan bosh torish, ingliz tovarlarini sotib olmaslik, tinch namoyishlar bilan o'z noroziligini bildirish yotadi.[26]

Kurashning bu yo'li asrlar davomida sabr-toqat ruhiga singib ketgan hind xalqining qat'iyatiga mos kelardi. Shuning uchun ham hind xalqi uni "Mahatma" ya'ni "Buyuk qalb" deb atashgan. Biz bu g'oyani yaxshiroq tushunish uchun o'sha davrga nazar solamiz.

Gap shundaki Mahatma Gandi siyosat maydoniga I jahon urushi ketayotgan bir paytda, Britanya hukumatining Hindistonga bo'lgan mustamlakachilik zulmining har qachongidanda ko'ra shafqatsiz bo'lgan davrda keldi. I jahon urushi hind va inglizlar o'rtasidagi munosabatlarning yanada keskinlashishiga sabab bo'ldi, negaki urush tufayli moddiy ahvolninhg yomonlashishi, qashshoqlik, yuqori soliq stavkasining joriy etilishi va narxlarning keskin oshirilishi hind xalqini xonavayron qilgandi.

Bu davrda hind xalqining huquqlarini himoya qilib kelyotgan Hindiston Milliy Kongresi (HMK 1885-yil tashkil topgan) faolyat yuritib kelardi. Uning tarkibidagi hind milliy burjaziyasi vakillari ingliz hukumatiga nafrat bilan qarardi va ingliz hukumatiga keskin javob qaytarardi bu esa ziddiyatlarni yanada chuqurroq keskinlashishiga sabab bo'lardi. Mahatma Gandi 1915-yil HMK bilan yaqinlashib azo bo'ldi.

1916-yil 4-fevralda Banorasdagi Hind Unverstetining ochilish marosimida so'zlagan nutqida hindlar o'z taqdiri va yurtining egasi bo'lishi kerak degan g'oyani aks ettirdi. Mahatma Gandi hind xalqining o'z tili qolib o'zga millat tilida so'zlashga majbur etilganligini jiddiy tanqid qilardi. Uning fikricha millat tili – millat g'ururidir, shuning uchun ham Unverstetitning ochilish marosimidagi nutqini quydagicha boshlagan "shu muqaddas shaharda, ushbu universtet qoshida bu oqshom o'z millatdoshlarimizga chet tilida murojaat qilishga majbur bo'lganim hammamiz uchun ham haqoratli bir holdir"[27] Gandi o'z nutqida Hindiston sanoatini xonavayron qilayotgan ingliz sanoat mahsulotlarini tanqid qilib "bir narsaga aminman qirol Georgga ham lord Hardinga ham ul zotlarga bo'lgan benihoya hurmatimizni ko'rsatish uchun boshdan oyoq qimmatbaho kiyimlar va taqinchoqlarga burkanishimizning hecham keragi yo'q, sizlarga shaxsan qirol Georgning fikrini yetkazib qo'ymoqchiman qirol Georgga bunday is'hori sadoqat kerak emas". Mahatma Gandi o'z nutqini davom ettirarkan "satyagraha" g'oyasini ilgari surib hind xalqini kuch ishlatishdan tiyilish va ingliz hukumatining jabr-zulmini sabr bilan yengib shu yo'l bilan dushmanning vijdonini uyg'otishga chaqirdi.

M. K. Gandi 1921-yilda HMKga rahbarlik qila boshladi.[28] Gandi kongres a'zolariga nafratni jilovlashni, kuch ishlatmaslikni, ingliz hukumatining

[26] Nambudiripad E. M. Mahatma Gandi va Gandizm. – M.: Ed. Chet el adabiyoti. 1960. – 199 b.
[27] Gandi M. K. Maqolalar, nutqlar, intervyular. – M.: 1975- 268 b.
[28] Gorev A. Mahatma Gandi 2-nashr. – M .: " Xalqaro munosabatlar"

zo’ravonligiga nisbatan norozilikni tinch namoyishlar bilan bildirish kerakligini ta’kitladi. “satyagraha” 1918-1947-yillar davomida hind xalqining barcha qatlamlari orsida keng yoyildi va ularning mustaqillik uchun harakatlarini ilhomlantirdi. Britanya hukumati esa 1919-yilda inqilobiy harakatlarga qarshi – Rowlatt qonunini qabul qildi bu qonun inglizlarga hindlarning norozilik namoyishlari va inqilobiy harakatlarini yo’q qilish imkonini berdi. Gandi bunga javoban 1919-yil 30-martda umummilliy harakatni boshladi bu hind inqilobining birinchi bosqichi edi.

Ingliz hukumat buning uchun Gandini qamoqqa oldi ammo namoyishlar keng tus olgach 1922-yil hukumat Gandini ozod qilishga majbur bo’di.

Gandi o’z g’oyalarida e’tiqod tamoyillariga ham alohida to’xtalib insonlar millati va dinidan qat’iy nazar xudoning oldida tengdir degan fikirni ilgari surdi. Gandining nazarida haqiqat ham Xudo bilan bog’langandir. Gandi o’z asarida shunday yozgan “men Xudo haqiqatdur degan qoidadan haqiqat Xudodir degan xulosaga o’tib bir qadam olg’a bosdim”.[29]

Gandi haqiqat tushunchasini o’ziga qandaydir bilim elementini qamrab olgan diniy-axloqiy kategorya sifatida tushunardi. Ilohiy mohiyatni bilib olish vositasi ya’ni, mutlaq haqiqat sifatida, Gandi “ohista ichki ovoz”ni tushunardi. Gandi hindlar bilan musulmonlarning o’zaro do’stligini mustahkamlashga intildi. Gandi hinduizmga e’tiqodi kuchli bo’lgan shuningdek, boshqa dinlarni hurmat qilgan. U butun faolyati davomida din bilan siyosatni bir-biriga bog’lashga harakat qilgan. Gandi o’z nutqida “amaliy ishlarni hisobga olmaydigan va ular yechimiga yordam bermaydigan din – bu din emas” deb takidlagan. Shuningdek Gandi axloqiy yetuklikda rostgo’ylik va adolatlilik muhim o’rin tutadi deb hisoblagan.

Gandi o’z maqolalarida shunday yozadi “qaynoq va sof qalb amri hech qachon beparvo qolmaydi. O’z shaxsiy tajribamda men bunga qayta-qayta amin bo’lar edim. Kambag’allardga xizmatqilish – qalbim amri ana shunday, qalbim meni har doim kambag’allar tomon tortib kelar edi va ular bilan bir tan-u bir jon bo’lib ketishga imkon berar edi”.

Gandi Hindiston bo’ylab sayyohat qilib qashshoqlikda yashayotgan hind xalqining og’ir axvolini ko’rib mamlakatimiz aholisining to’rtdan uch qismi dehqonlar afsuski ular xonavayron bo’lgan. Aagar biz dehqonlarni ko’kartitmasak topgan tutganining deyarli barchasini tortib olsak yoki kimdir tortib olishiga indamay qarab tursak qalbimizda mustaqillik ruhidan asar ham qolmaganligi shu emasmi ? Dehqonlar bizning najodkorlarimizdir. Najotni bizga yuristlar ham vrachlar ham zamindorlar ham berolmaydi, Gandi kambag’allarning ayanchli taqdiriga beparvo qaray olmagan. Gandi Champaram nomli qishloqqa borib minglab dehqonlar bilan gaplashiganda ijaradorlar va plantatorlar Gandini zudlik bilan bu yerdan chiqib ketishini aytishadi, lekin Gandi bu yerdan ketmaydi dehqonlar huquqi uchun

[29] Gandi M.K. “Mening hayotim” T.:– 2019.

kurashadi va uni bu yerda qamoqqa olishadi. Hind xalqining mashhur shoiri va yozuvchisi

Rabindranat Tagor yozgan o'z xotiralarida Gandi haqida shunday yozgan edi: "Mahatma Gandi uy-joyidan marhum bo'lgan millionlab insonlar eshigiga borib ularning holidan xabar oldi. Ularga o'z ona tillarida murojaat qilib kiyim-bosh berdi. Dovyuraklik bilan ularni bag'riga oldi. Ularni o'z tanasi, qalbi deb qabul qildi. Shu alfozda haqiqat adolatning qo'ynida uyg'ondi". Gandi butun umr hind xalqining ozodligi va baxtli hayoti uchun jon kuydirib kurashib yashadi. Buning uchun uni qamoqqa olishsalar ham, jismoniy qiynoqlar bilan azoblashsalar ham, ochlik va kasallik azobi qiynasa ham u o'z maqsadidan bir qadam ham ortga chekinmadi. Shuning uchun ham Albert Enshteyn Gandi haqida shunday degan edi: "Kelajak avlod yer yuzida qachonlardur et va qondan iborat shundayin ulug' zot o'tganiga andak shubha va hayrat bilan qaraydi. Aminmanki, kelajakda moddiyat emas, aynan Gandi kabi buyuk va olijanob shaxslar insonyatni ezgu ishlarga boshlaydilar. Barchamiz taqdirdan bizni mana shunday, kelajak avlod uchun o'rnak namunasi bo'ladigan inson bilan zamondosh qilib yaratgani uchun minnatdor bo'lmog'imiz lozim"[30].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nambudiripad E. M. Mahatma Gandi va Gandizm. – M.: Ed chet el adabiyoti. 1960. – 199 b.
2. Gandi M. K. Maqolalar, nutqlar, intervyular. – M.: 1975. - 268 b
3. Gorev A. Mahatma Gandi. 2-nashr.– M.: "Xalqaro munosabatlar", 1989.- 374 b.
4. Gandi M. K. Mening hayotim. – T.: 2019.
5. Ryobakov R. B. Zoravonliksiz dunyo uchun zo'ravonliksiz kurash // Tarixdagi pastfizm. Dunyo g'oyalari va harakatlari. – M.: 1998.
6. Jukov E. Mahatma Gandining tarixiy ro'li haqida. / Yangi vaqt. 1956. – 37-39 b.
7. Stepanyants M. T. Zo'ravonlik qilmsalik falsafasi. Gandi va uning Tajribalari haqida mulohazalar. / Kommunist. 1990. No 13.- B.76-78.

[30] Jukov E, Mahatma Gandining tarixiy ro'li haqida. / Yangi vaqt , 1956, No 6 . – B 37-39.

MILLIY MA’NAVIYAT NAZARIYASINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Hamidov Salohiddin Ochilovich
Chirchiq davlat pedagogika instituti “Ijtimoiy va gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi (ma’naviyat asoslari)” mutaxassisligi 1-kurs magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.6719976

Annotatsiya: Ushbu maqolada yosh avlodni milliy ma’naviyatimiz ruhida tarbiyalash, ma’naviyatni to‘g‘ri anglab etishiga erishishda interfaol usullardan foydalanish kerakligi to‘g‘risida qisqacha bayon keltirilgan.
Kalit so‘zlar: Ma’naviyat, vatanni sevish, ajdodlar merosi, interfaol usul.

Ma’naviyat — inson ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha. U kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlarini o‘z ichiga oladi. Ma’naviyat atamasining asosida „ma’no“ so‘zi yotadi. Ma’lumki, insonning tashqi va ichki olami mavjud. Tashqi olamiga uning bo‘ybasti, ko‘rinishi, kiyinishi, xatti-harakati va boshqa kiradi. Ichki olami esa uning yashashdan maqsadi, fikr yuritishi, orzu-istaklari, intilishlari, his-tuyg‘ularini o‘z ichiga oladi. Insonning ana shu ichki olami ma’naviyatdir. Oziq-ovqat odamga jismoniy quvvat bersa, ma’naviyat unga ruhiy ozuqa va qudrat bag‘ishlaydi. Ma’naviyat odamlarda tap-tayyor holda vujudga kelmaydi. Unga muttasil o‘qish, o‘rganish, tajriba orttirish orqaligina erishiladi. Ma’naviyat qanchalik boyib borsa, jamiyat va millat shunchalik ravnaq topadi. Vijdon nima, yolg‘on va rost nima, or-nomus nima, halol va harom nima — bularning hammasini bir-biridan ajrata oladi, hayotda yomonlikka boshlovchi xatti-harakatlardan voz kechadi, yaxshilikka boshlovchi amallarni bajaradi. Qisqasi, ma’naviyatda inson hayotining mazmuni aks etadi. Vatanni sevish, vatanparvarlik inson ma’naviyatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Ma’naviyat kamol topgan jamiyatlarda qobiliyat, iste’dod egalari shu jamiyatning, millatning yuzi, g‘ururi, obro‘ e’tibori hisoblanadi. Milliy ma’naviyat nazariyasini yaratish uchun qaysi manbalarga tayanish, uning asoslarini qayerlardan qidirish kerak. Bu manbalardan eng birinchi va asosiysi buyuk ajdodlarimiz merosidir. Buyuk ajdodlarimiz bizga qoldirgan ulkan meros – milliy ma’naviyatimiz nazariyasini shakllantirish uchun butun kerakli unsur va tarkiblarni yaratib qo‘yapti, faqat uni xolis nazar bilan astoydil qidirsak, kifoya. Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab muntazam davom etib kelayotgan qutlug‘ an’ana – ulug‘ bobolarimiz, dunyoga dong taratgan, jahon jamoatchiligi allaqachon o’z muqaddas mulki deb tan olgan ma’naviy meros sohiblarining yubileylarini mamlakat va jahon miqyosida nishonlash haqidagi farmonlar va ularning ijrosi ayni shu masala – milliy

ma’naviyatimiz sarchashmalariga butun xalqimiz va, birinchi navbatda, yosh avlod e’tiborini jalb etish maqsadini ko‘zda tutadi. Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo‘lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san’at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, mineralogiya, kimyo, astronomiya, me’morlik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma’naviy boyligimizdir.

Xalq ma’naviyatini, millat ma’naviyatini sun’iy ravishda, qandaydir o‘ylab topilgan aqidalarga tayanib, yuzaga keltirib ham, keskin o‘zgartirib ham bo‘lmaydi. Chunki ma’naviyat tushunchasining mazmuni bir kunda, bir yilda, hatto bir asrda shakllanadigan narsa emas, u har bir xalqning juda uzoq tarixi qa’ridan oziq olib, teranlik kasb etib keladi. Bugungi kunda milliy ma’naviyatimiz tadqiqotchisiga oson emas, u endi sho‘rolar davri faylasuflaridan farqli o‘laroq, o’z mulohazalarini mavjud dogmalar qolipida, mavhum mantiqiy mulohazalar tarzida emas, balki millatning ma’naviy merosiga, bu sohada ming yillar davomida ajdodlar erishgan beqiyos yutuqlarga asoslangan holda olib borishi talab etiladi, ya’ni ma’naviyatga oid fanlar, ma’lum ma’noda, tarixiy-nazariy fanlar bo‘lib, ularning teranligi va ko’lami ajdodlarimizning ming yillar davomida to‘plagan yaxlit tarixiy-ma’naviy tajribasi bilan belgilanadi, shu bilan birga xalq donishmandligining turli suratlarda zuhur etishi ham undagi nazariy xulosalarning manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, milliy ma’naviyat, avvalo, tarixiy hodisadir. O‘rta Osiyo xalqlari tarixining ibtidosi asrlar qa’riga singib ketgan bo‘lib, ular bosib o‘tgan necha ming yillik ma’naviy kamolot pillapoyalarini aniqlash bugun uchun muhim muammodir. Biz bugungi kunda milliy ma’naviyatimiz nazariyasini yaratish uchun avvalo uning tarixiy takomilini batafsil ko‘zdan kechirib chiqishimiz kerak bo‘ladi. Ayni shu masala bilan shug‘ullanuvchi fan “Ma’naviyatning rivojlanish tarixi” bo‘lib, uning asosiy mavzu doirasi - mustaqil O‘zbekiston uchun eng dolzarb muammolardan biri bo‘lgan milliy ma’naviyatimizning takomil tarixi, asosiy qadriyatlari, shakllanish yo‘llari xususidagi milliy ma’naviy merosimiz an’analariga tayanuvchi nazariy xulosalar va qarashlar tizimidan iborat. Bo‘lajak o‘qituvchilarni ulug ajdodlarimiz asrlar davomida shakllantirgan milliy ma’naviyatimiz ruhida tarbiyalash, ma’naviyatning mustaqil O‘zbekistonda jamiyatni yangilash va mamlakatni isloh etish, yosh avlodni tarbiyalashdagi o‘rni va ahamiyatini to‘g‘ri anglab etishiga erishish, ularni ma’naviyat sohasida nazariy jihatdan o‘tmish va bugungi kunda qo‘lga kiritilgan yutuqlar, hozirgi davrda jamiyatimiz kishilari ma’naviy hayotida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar, bu jabhadagi muammolar va ularni hal etish yo‘llari kabi masalalar bilan jiddiy tanishtirish, ular tagakkurini milliy-ma`naviy qadriyatlarimiz bilan boyitishdan iborat. O‘zbekistonni rivojlantirishning ma’naviy-axloqiy negizlari, o‘tmish ajdodlarimiz ma’naviy merosiga munosabat,

ma’naviyatning inson hayotidagi o‘rni va ahamiyatiga oid nazariy fikr-mulohazalar umummetodologik asos qilib olinadi. Ma’naviyat insondagi yaratuvchilik qudratidir, insonda shu qudratni uyg‘otish va harakatga keltirishga muvaffaq bo‘linsa, barcha ulug‘vor rejalarni amalga oshirish uchun zarur imkon vujudga keladi. “Ma’naviyat” tushunchasining turli ta’riflari va ularning o‘zaro nisbatlari, shaxs va millat ma’naviyatning asosiy jihatlari, ma’naviyat sohasining iqtisod, siyosat sohalari bilan munosabatlari, ma’naviyat va ruhiyatning o‘zaro nisbati, ma’naviyatining din, madaniyat bilan o‘zaro bog‘liq jihatlari, falsafa va ijtimoiy fanlar bilan o‘zaro aloqadorligi, bosh ma’naviy qadriyatlar – vatan, shaxs, millat, adolat, haqiqat va ularning inson va jamiyat hayotidagi o‘rni, ma’naviyatning san’at va adabiyotda namoyon bo‘lishiga oid masalalarda chuqur bilim va malaka hosil qilishi, o‘zining ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik faoliyatida ma’naviyat nazariyasi bo‘yicha olgan bilimlarini qo‘llay olishi, milliy ma’naviyatimiz an’analarini yosh avlod ongiga singdirishning shakl va usullaridan foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi lozim.

Xulosa o‘rnida shuni aytmoqchimanki Mustaqil O‘zbekiston jahonning eng ma’rifatli mamlakatlari orasida barqaror rivoj topishi, milliy iftixor tuyg‘usi bilan yo‘g‘rilgan, ammo millatchilik va milliy mahdudlikdan holi, hur va erkin fikrlovchi shaxslarni tarbiyalashga interfaol usullardan foydalanib bo‘lsa ham hissa qo‘shmog‘imiz va bu yo‘lda tinim bilmay harakat qilmog‘imiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Imomnazarov M. “Milliy Ma’naviyat bosqichlari”, Toshkent - 2010
2. Imomnazarov M. “Milliy Ma’naviyatimiz asoslari”, Toshkent - 2006
3. Otamurotov S. “Milliy rivojlanish falsafasi”, Toshkent- 2005

INNOVATIVE TECHNOLOGIES FOR RECOVERY OF PRESSURE AND NON-PRESSURE PIPING

Baymanov Ruslan Ken'esbaevich
Berdaq nomidagi QQDU Qurilish fakulteti t.i.f.d
Joldasbaeva Ayzada Baxitbaevna
Berdaq nomidagi QQDU Qurilish fakulteti Muhandislik kommunikaciyalari yo'nalishi 2-bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7264431

Annotatsiya: Maqolada trubalarni reabilitatsiya qilishning xandakli usullari, usullarning mazmun-mohiyati, ularning o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Tarmoqlarni qayta tiklashning bu usullaridan foydalanish xarajatlarni va atrof-muhit xavfsizligin minimallashtirish imkoniyatin beradi, xalq uchun noqulaylik tug'dirmasdan, buzilgan yoki o'zgacha vaziyatda aloqa bo'limlarin tezlik bilan almashtirish imkoniyatini beradi.

Kalit so'zlar: Innovative technologies, recovery, pressure, non-pressure, spiral-wound, sewerage pipelines, new pipe.

Reforming and updating housing and communal services is unthinkable without the technological modernization of utility pipeline networks. Statistical data confirm the critical degree (from 65% to 95%) of the deterioration of water supply and sewerage pipelines in many large and small cities of our country.

Traditional trench methods of pipeline rehabilitation are associated with a large amount of excavation, strengthening the walls of trenches, blocking traffic flows, destruction of road surfaces, damage to green plantations, violation of infrastructure, which entails large material costs for restoration work, and also interference in the usual life of megacities. That is why the LinerTech company uses modern trenchless methods of restoration (rehabilitation) of pipelines. The use of spiral-wound technology, pulling a new pipe inside an old or hardened sleeve (stocking), with which excavation is absent or reduced to minimum. New technologies are the most efficient and a cost-effective solution to the problem of restoration and reconstruction of utility engineering networks in modern conditions, while maintaining comfort and the environment.

Let us consider in more detail the trenchless methods of sanitation of pipelines.

1. Spiral-wound technology for the rehabilitation of pipelines SWP. It is used to restore free-flow pipelines with a diameter of 200 to 3000 mm Spiral wound technology is a recovery method pipelines by winding the PVC profile in a spiral

inside existing pipe (fig. 1). During the winding process, a new pipe is formed, which is completely self-supporting.




Fig.1 General view of the work

Spiral-wound technology is used for sanitation non-pressure networks:

–sewers;

–storm pipelines;

–industrial networks;

To date, spiral winding is one of the most optimal solutions in dense urban areas. Let us analyze in more detail the essence of the method and its distinctive features.

1. Before the start of the coiling process, telediagnostics of the inner surface of the pipe to be restored is carried out. In the process of telediagnostics, blockages, collapses are detected vault and other damage to the old pipe.

2. Then the inner surface of the pipe is cleared of blockages, deposits and deposits with a hydrodynamic washing machine.

2. The winding machine is lowered to the bottom of a standard well and adjusted to the appropriate pipe diameter.

The PVC profile enters the machine from a reel located on the surface of the well. The spiral winding machine forms a new PVC profile pipe in the old pipe. Spiral process winding continues until the new pipe reaches the end of the restored section of the pipe (Fig. 2).




Fig.2 Equipment installation

Stopping or pumping wastewater is not required, as well as construction of a bypass line, work is carried out according to the current flow. The construction site occupies a minimum of ground surface. In the immediate vicinity of the well hatch, a coil with a profile is placed. PVC profile with lock connection along the entire length, is fed from the reel to the winding machine, the equipment snaps the lock and pushes the wound pipe of smaller diameter along the entire length of the sanitized area.Next, the so-called expansion process takes place, after which the new pipe fits snugly against the walls of the old pipe, or the annular space is filled with an exclusive backfilling solution, which has increased fluidity and fast setting times.

The new pipe has a smooth surface, thereby increasing the throughput of the new pipe, and the new pipe takes on all the bearing load.

The three-component bonding system eliminates the possibility of linear shifts. The ends of the casing pipe from both cleaning chambers (wells) are hermetically connected and fixed with a special solution to connect the casing pipe to the main pipe.

The final stage is a repeated television inspection to check the quality of the work performed. After restoration, we get a self-supporting pipe with improved hydraulic characteristics, minimal narrowing of the diameter and a service life of more than 50 years.

3. SANIVAR technology for the restoration of pressure networks with a diameter of 80 to 500 mm.

The technology is based on the use of a round woven sleeve - 100% polyester fiber hose coated on both sides polyethylene or high temperature polyurethane. SANIVAR technology (Fig. 3) is used to restore pressure networks:

- plumbing;
- – gas pipeline;
- - oil pipelines, etc.



Fig. 3. View of a stocking with a socket connection

The pipeline is cleaned mechanically or hydrodynamically. Next, a television inspection is carried out to make sure that the pipe is ready for sanitation. Into the prepared pipe with a winch at a speed 3-5 m/min stretches a polymer sleeve. When the sleeve reaches final position, it is straightened with air supplied under pressure of 1 bar to give the sleeve a round shape.

To secure the sleeve, a coupling connection is installed on both sides. The peculiarity of this technology lies in the fact that sanitation passes without the use of resins and glue, which allows you to work with this method in the shortest possible time.

Conclusions on the use of trenchless methods for the restoration of engineering networks:

Possibility to avoid earthworks in case of need for restoration (overhaul) of certain utility networks, allows you to achieve significant savings time and money.

Such work is allowed to be carried out by teams of high qualifications, but the minimum number, without the use of overall equipment and without even opening a warrant for earthworks.

As a result, the terms of work are reduced to the minimum, and the Customer does not need to worry about the removal, disposal or temporary placement of soil, restoration road and sidewalk coverings, disturbed urban improvement, subsequent landscaping. Other advantages of using trenchless methods:

• the ability to restore communications located in unstable soils;

• increasing the capacity of the new pipeline;

• no damage to buildings, gardens, parks and other urban infrastructure;

• the possibility of using trenchless methods, including when working in hard-to-reach areas;

• minimization of risks of damage to neighboring engineering communications (cables or pipes);

• no interference with city traffic;.

These methods of rehabilitation of networks do not interfere with the urban cycle, which allows you to quickly replace faulty or emergency sections of communications without creating discomfort for residents.

Used literatures:

1. С. В. Храменков, В. А. Орлов, В. А. Харькин. Технологии восстановления подземных трубопроводов бестраншейными методами. Издательство Ассоциации строительных вузов. 2004 г.

2. С. В. Храменков, О. Г. Примин, В. А. Орлов. Бестраншейные методы восстановления водопроводных и водоотводящих сетей. ТИМР. 2000 г.

3. В.А. Орлов, А.В. Михайлин, Е.В.Орлов. Технологии бестраншейной реновации трубопроводов. Издательство АСВ Москва 2011г.

ИҚТИСОДИЁТ АСОСЛАРИГА КАРШИ ЖИНОЯТЛАРНИНГ ТАВСИФИ

Аъзамова Лазиза Тўлқин қизи
Тошкент давлат юридик университет қошидаги академик лицей
https://doi.org/10.5281/zenodo.7264437

Аннотация: Ушбу маколада иқтисодиёт асосларига қарши жиноятлар кўриб ўтилган. Мақолаларга қўйиладиган талаблар келтириб ўтилган.
Калит сўзлар: Жиноят кодекси, Олий Мажлис, Суд тўғрисидаги қонун, битимлар, жамоат бирлашмалари, интизомий жазо, тўлов турлари.

ОПИСАНИЕ ПРЕСТУПЛЕНИЙ ПРОТИВ ОСНОВ ЭКОНОМИКИ.

Аъзамова Лазиза Тулкин кизи
Академический лицей при Ташкентском государственном юридическом университет

Аннотация: В данной статье рассматриваются преступления против основ экономики. Приведены требования к статьям.
Ключевые слова: Уголовный кодекс, Олий Мажлис, Судебное право, Соглашения, Общественные объединения, Дисциплинарное взыскание, Виды оплаты.

DESCRIPTION OF CRIMES AGAINST THE FUNDAMENTALS OF THE ECONOMY

Azamova Laziza Tulqin qizi
Academic lyceum under the Tashkent State University of Law

Abstract: This article discusses crimes against the fundamentals of economics. Requirements for articles are given.
Keywords: Criminal Code, Oliy Majlis, Judicial Law, Agreements, Public Associations, Disciplinary Punishment, Types of Payment**.**

Мамлакатимиз мустақилликка эришгандан сўнг суд-ҳуқуқ сохасида купгина ислохотлар олиб борилди. Хусусан 1993-йил 2-сентябрда қабул қилинган «Судлар туғрисидаги қонун»нинг қабул қилиниши ва 2000 йил 14-декабрда мазкур қонунинг янги тахрирининг қабул қилиниши фикримнинг ёркин далилидир. Бундан ташқари давлатимизда мустақил булганимиздан сунг

хозирги кунгача 600 дан ортиқ қонун 16 та кодекс ва бошқа куплаб қонун ости хужжатлари қабул қилинди. Кодексларимиз хақида сўз юритар эканман улар орасида Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси томонидан 1994-йил 22-сентябрда қабул қилиниб 1995-йил 1-апрелдан амалга киритилган Жиноят кодексининг урни алохида эканлиги ва бугунги кунгача мазкур кодексга бир неча бор узгартириш ва кушимчалар киритилаётганлиги ва бу узгартиришлар тобора инсонпарварлик принцпига мос келишини алохида айтиб утиш лозим. Маълумот урнида шуни айтишим керакки Жиноят кодекси 2 қисм (умумий ва махсус) дан иборат 1-умумий қисми 7 бўлим 17 боб (1-96-модда)ларни уз ичига олади 2-махсус қисм 8 булим 24 боб (97-302-модда) ларни уз ичига олади. Жиноят кодексимизнинг III-бўлим XII-боби Иқтисодиёт асосларига қарши жиноятлар деб номланади ва унинг дастлабки 175-моддасида Ўзбекистон Республикаси манфаатларига хилоф равишда битмлар тузиш деб номланиб унда Давлат органининг, мулкчилик шаклидан қатъи назар корхона, муассаса ташкилотнинг, жамоат бирлашмасининг мансабдор шахси томонидан наф келтирмаслиги аён бўлган битимни тузиш республика манфаатларига кўп миқдорда зарар етказилишига сабаб бўлса, - энг кам ойлик иш ҳақининг йигирма беш бараваридан эллик бараваригача миқдорда жарима ёки беш йилгача муайян ҳуқуқдан маҳрум қилиш ёхуд уч йилгача ахлоқ тузатиш ишлари ёхуд олти ойгача қамоқ билан жазоланиши курсатилган мазкур модданинг иккинчи қисми «б» бандида эса ушбу харакат бир гурух шахслар томонидан содир этилса беш йилгача озодликдан махрум қилиш жазоси курсатилган. Ўз ўзидан савол пайдо бўлади қонун нормасининг биринчи қисми диспозитциясида субект махсус булиб иккинчи қисмида оддий булиб қолаябди яний 1-қисмида мансабдор шахс содир этиса жазоланиши иккинчи қисмида эса бир гурух мансабдор бўлмаган шахслар мансабдор шахс билан биргаликда мазкур жиноятни содир этса жазони оғирлаштираябди савол агар бир гурух мансабдор шахслар ушбу жиноятни содир этишсачи уларнинг харакати жиноят кодексининг қайси банди билан квалификатция қилиниши керак қонунда мазкур модданинг қисм ва бандларида бу курсатилмаган. Лекин шуни таъкидлаш керакки айрим турдаги жиноятларда бир гурух мансабдор шахслар томонидан жиноят содир этиш жиноятнинг зарурий белгиси сифатида қайд этилган. Масалан пора олиш жиноятини олайлик ушбу жиноят жиноят кодексининг 210-моддасида белгиланган бўлиб Пора олиш, яъни давлат органи, давлат иштирокидаги ташкилот ѐки фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органи мансабдор шахсининг ўз хизмат мавқеидан фойдаланган ҳолда содир этиши лозим ѐки мумкин бўлган муайян ҳаракатни пора бераѐтган шахснинг манфаатларини кўзлаб бажариши ѐки бажармаслиги эвазига шахсан ўзи ѐки воситачи орқали қонунга хилоф эканлигини била туриб, моддий қимматликлар

олиши ѐхуд мулкий манфаатдор бўлиши, — базавий ҳисоблаш миқдорининг эллик бараваридан юз бараваригача миқдорда жарима ѐки муайян ҳуқуқдан маҳрум этилган ҳолда икки йилдан беш йилгача озодликни чеклаш ѐхуд беш йилгача озодликдан маҳрум қилиш билан жазоланиши белгиланган. Мазкур модданинг иккинчи қисми г бандида пора олиш жиноятини бир гурух мансабдор шахслар томонидан содир этилиши жавобгарликни оғирлаштирувчи холат сифатида эътироф этилаябди. Яна шуни таъкидлаш керакки жиноят кодексининг 56-моддасида жавобгарликни оғирлаштирувчи холатларда хам фақатгина бир гурух шахслар томонидан содир этилиши оғирлаштирувчи холат сифатида курсатилган. Бир гурух мансабдор шахслар томонидан жиноят содир этиш жиноят кодексининг 56-моддасида жавобгарликни оғирлаштирувчи ҳолат сифатида кўрсатилмаган. Бундан ташқари жиноят қонунида аналогия институти мавжуд эмас. Хулоса урнида шуни таклиф қилган булар эдимки жиноят кодексининг 175-моддаси 2-қисми «б» бандида бир гурух шахслар деган сузлар олдида бир гурух мансабдор шахслар деса мақсадга мувофиқ бўлар эди. Агарда мазкур жиноятни содир этган мансабдор шахсга бошқа шахслар томонидан ёрдам берилса уларнинг харакати жиноят кодексининг 29-моддаси ва 56-моддаси тегишли банди билан малакаланиши лозим деб хисоблайман. Яна бир таклифим келгусида жиноят кодекснинг 56-моддасига бир гурух мансабдор шахслар томонидан олдиндан тил бириктириб жиноят содир этишини оғирлаштирувчи холат сифатида киритилса мақсадга мувофиқ бўлар эди.

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA PARALLEL KORPUS VA UNING AHAMIYATI

Toshpo`latova Dilshoda Karimjonovna
Namangan davlat universiteti lingvistika (o`zbek tili) yo`nalishi magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.7264441

Annotatsiya: Ushbu maqola korpus va uning ahamiyati, korpus turlari, o`zbek tili ilmiy matnlari parallel korpusi lingvistik manbalarning yangi turi hamda matnlarning parallel korpuslarini tuzish muammolari masalalariga bag`ishlangan.

Kalit so'zlar: kompyuter lingvistikasi**,** korpus tilshunoslik, Braun korpusi,parallel korpus matnlari (PKM),manba tili (MT), tarjima tili (TT) ilmiy matnlar parallel korpusi

Аннотация: Данная статья посвящена корпусу и его значению, видам корпусу узбекских научных текстов в новому типу лингвистических источников и проблемам создания параллельного корпуса текстов.

Ключевые слова: компьютерная лингвистика**,** корпусная лингвистика**,** Браун корпус, параллельный корпус, исходный язык, язык перевода, параллельный корпус научных текстов

Annotation: This article deals with the corpus and its significance, types of corpus, parallel corpus of Uzbek scientific texts, a new type of linguistic sources and the problems of creating parallel corpus of texsts.

Key words: computer linguistics, corpus linguistics, Brown Corpus, parallel corpus, source language, translation language,parallel corpus of scientific texts.

Zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda dunyo ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalaridagi o`zgarishlar birinchi galda tilda o`z aksini topadi. Har bir xalq, millat o`z tilini asrab qolish, rivojlantirish va dunyoga tanitish uchun harakat qiladi. Tillarni saqlab qolish milliy ma`naviyatni saqlab qolish demakdir. XIX asr oxiri XX asrning boshlarida kompyuter texnologiyalari rivojlanishi va internet tarmog'ining keng yoyilishi zamonaviy tilshunoslikning kompyuter lingvistikasi va korpus tilshunosligi sohalarining paydo bo'lishiga zamin yaratdi.. XX asrning 90-yillari birinchi yarmida korpus tilshunosligi til to'g'risidagi fanning alohida qismi sifatida shakllandi. Shu bilan birga, u kompyuter tilshunosligi bilan yaqindan hamkorlik qiladi,uning yutuqlaridan foydalanadi va o'z navbatida, uni boyitadi. Korpus – bu bir necha yoki muayyan til matnlarining yig`indisiga asoslangan elektron shaklda to`plangan ma`lumot (so`rovnoma)lar tizimidir.Milliy korpus esa muayyan tilning ma`lum davr (yoki davrlar)dagi maqomi, janrlari, uslublari, hududiy va ijtimoiy ko`rinishlari va boshqalarni o`z ichiga oladi. Milliy

korpus tilshunoslikning korpus lingvistikasi mutaxassislari tomonidan tuziladi. [1] Bu ilmiy tadqiqotlar va til o`rganish uchun xizmat qiladi.Mashhur filolog olim V. P.Zaxarov ta`biri bilan aytganda, korpussiz bugungi kunning nazariy hamda amaliy filologiyasini tasavvur etish qiyin.Muxtasar qilib aytadigan bo`lsak, katta hajmli va tizimga solingan matnlar to`plamidan iborat til manbasi hisoblanadi. Korpus tilshunosligida ular ma`lum bir til doirasida yoki tilning ma`lum bo`limida statistic tahlillarni amalga oshirish, qarashlarni, tildagi hodisalar yoki nazariy qoidalarni tekshirish uchun foydalaniladi.

Kompyuterda yaratilgan birinchi matnlar korpusi Braun korpusi(BK,inglizcha Brown Corpus, BC) hisoblanib, 1961-yilda Braun universitetida yaratilgan, har biri 2000 so`zli 500ta matn fragmentini o`z ichiga oladi. 1970-yillarda 1mln so`zni o`z ichiga olgan matnlar korpusi asosida rus tilining chastotali lug`ati yaratildi.[2] Keyinchalik kompyuter leksikografiyasining rivojlanishi natijasida katta hajmli matnlar korpusiga ehtiyoj tug`ildi va yirik hajmli matnlar korpusi yaratila boshladi. Ko`pgina mamlakatlarda XX asrning 80- yillaridan boshlab bunday korpuslar tuzila boshladi. Ular turli maqsad va vazifalarga xizmat qiladi. Korpusning janri va rang - barangligi foydalanuvchining sohasi yoki qiziqishlariga bog`liq. Masalan, ilm-fan doirasida Wikipedia katta hajmdagi matnlar korpusi sifatida foydalanilmoqda.Shuningdek, Mirzo Ulug`bek nomidagi O`zbekiston Milliy universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori Nilufar Abduraxmonova rahbarligida “O`zbek tili korpusi” yaratilgan. Ushbu korpus tarkibida ichki korpus- subkorpuslar ham mavjud:

. Parallel korpus

. Mualliflik korpusi

. Ta`limiy korpus

Hozirgi tilshunosligimizning yutug`i sifatida ta`lim korpuslari, sheva matnlari korpusi, poetik matnlar korpusi, og`zaki, ilmiy, rasmiy matnlar korpusi, parallel korpus kabi qator mikrokorpuslarning tuzilayotganligini ko`rsatish mumkin. Lekin, bugungi kundagi korpus sohasida ishlarni dengizdan tomchi sifatida ko`rish mumkin. Ayrim sohalar korpuslari hali yaratilmaganligi esa yosh tilshunoslar oldida turgan dolzarb masalalar ekanligini ko`rsatadi.

Korpus turlari haqida to`xtaladigan bo`lsak, ixtisoslashgan, ma`lumotli, ko`p tilli, parallel, o`rganish, qiyosiy, diaxronik va monitor kabilarni ko`rsatish mumkin. Parallellik mezoniga ko`ra korpuslar bir tilli, ikki tilli va ko`p tilliga bo`linadi. Ko`p tilli korpusning 2 turi mavjud:

1)bir-birining tarjimasi bo`lgan matnli korpus;

2)bir mavzuga oid ikki tildagi matnli korpus; [3]

Birinchi tipdagi korpus – parallel korpus (parallel corpora) deb nomlanib,ma`lum bir tarjimaning turli aspektini o`rganish uchun qo`llaniladi. Parallel korpus o`z navbatida yana turga bo`linadi:

1.Moslashtirilgan (aligned)

2. Moslashtirilmagan (not aligned)

“Moslashtirilgan ” atamasi korpusda tarjima birliklari orasida bir- birini taqazo etuvchi aniq aloqa mavjudligini bildiradi va aynan mana shu tip korpuslar afzallikka ega. Parallel matn korpusi - lingvistik manbalarning nisbatan yangi turi.. Bu turdagi birinchi manbalar 1980 -yillarning oxiri - 1990 -yillarning boshlarida paydo bo'lgan. So'nggi o'n yil ichida parallel matnli korpuslar bilan bog'liq bo'lgan bir qancha loyihalar ishga tushirildi. Matnlarning parallel korpuslarini tuzishda, bir tili va qiyosiy matnlardan farqli o'laroq, madaniyatlararo munosabatlar omilini hisobga olish zarur. Manba tili (MT) matnlari faqat ikkinchi tilga (TT) tarjima qilingan matnlardir. Shunday qilib, agar madaniyatlararo aloqa umuman bo'lmasa, PKM yarata olish mumkin emas Davlatlar o`rtasida turli aloqalar darajasiga ko`ra parallel korpusga ehtiyoj paydo bo`ladi. Parallel korpus, xuddi ikkita lingvistik madaniyatning kesishish nuqtasidir. Umuman olganda PKM ni tuzishda tadqiqotchi ixtiyorida quyidagi til resurslari bo'lishi mumkin: • maxsus matnlar; • ommaviy axborot vositalari matnlari; • ilmiy matnlar; • badiiy matnlar.

Parallel matn uchun segmentlash va lingvistik tahlil jarayonida Wordfast kabi instrumentlar samarali texnologik vosita hisoblanadi. [4] Yuqoridagi matn turlarining hech biri PKM uchun barqaror va universal manba bo'la olmaydi Ilmiy matnlar ko'pincha tarjima ob'ektiga aylanadi, lekin bu yerda bir qator tushuntirishlar berish kerak. Ko'pincha olimning o'zi tinglovchilarining ko'pchiligiga tanish bo'lgan tilda yozadi (lotin - o'rta asrlarda, fransuz yoki nemis - XIX asrda, ingliz tili va rus tili hozirgi paytda). Korpus materiali asosida statistik metod orqali qaysi so`zlar doim birgalikda qo`llanilishi, shuning natijasida turg`un birikmaga qanchalik aloqador ekanligini aniqlash mumkin.[5] Tilga oid tadqiqotlarni yanada samaraliroq qilish uchun korpuslar annotatsiyalanadi. Masalan, korpusni annotatsiyalashning bir turi bu so`zlarni teglash hisoblanasi (POS - tagging). Bu so`zning turkumi vas hu turkum kategoriyalari asosida teglab chiqish tushuniladi. Ya`ni bolalarga so`zi quyidagi ma`lumotlarni tashiydi: ot, ko`plik, jo`nalish kelishigi. Ayni shu ma`lumotlar teglar orqali so`zga biriktirib chiqiladi. Annotatsiyalashning yana bir ko`rinishi o`zaklash (lemmatizatsiya) bo`lib, u so`zning tayanch shaklini ko`rsatib berish hisoblanadi. Masalan, bolalar, bolaning, bolaga so`zi uchta shaklda turibdi., lekin ularning asosi bir xil – kitob. [6] Korpusning yana bir qulayligi, unda so`zlarning bir- biri bilan bog`lanib kela olish qobiliyati(valentlik)ni ham kuzatish mumkin. Buning uchun korpusga biror so`zni kiritib, shu so`z oldidan keladigan uchta, ortidan keladigan uchta so`zni ham qo`shib chiqarishi kerakligi haqida so`rov yuboramiz. Biz kiritgan

so`zimizning oldidan va ortidan keladigan uchtadan so`zni saralangan ko`rinishini olamiz. O`zbek tili ilmiy matnlari parallel korpusini yaratishda quyidagi yo`nalishlarni belgilab olish mumkin:

- birinchidan, bu ilmiy terminlar lug`atini yaratish va leksikografik tadqiqotlar olib borishdir. Bu masala o`zbek tilshunosligida yangi masalalardan hisoblanib, ko`plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ilmiy matnlar parallel korpusini yaratish nafaqat o`zbek tilshunosligi, balki jahon tilshunosligida ham yangi va dolzarb masala hisoblanadi. - ikkinchidan, ilmiy matnlar korpusini o`rganish orqali tillarning leksik tarkibi haqida aniq ma`lumotlar olish, ilmiy terminlarning qo`llanish chastotalarini tuzish. Shu o`rinda aytish joizki, korpusning leksikologiya sohasida ahamiyati shuki, so`zning qo`llanilish davri va chastotasini aniqlashda hech qanday vosita korpusga tenglasha olmaydi. Ilmiy matnlar tadqiqida katta ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, har qanday til jamiyatda saqlanib qolishi uchun va ayni navbatda dunyo ilm -fani rivojida o`zining o`rnini topishi lozim va bunda parallel korpusning o`rni nihoyatda katta. Korpus tilshunoslikning istalgan sohasida tadqiqotlarrni olib borishning sifatli va samarali bo`lishiga yordam beradi. Ilmiy matnlar parallel korpusini yaratishda madaniyatlararo munosabatlar omilini ham hisobga olish zarur.

Adabiyotlar:

1. Primov A. Qodirova X. Tilshunoslikning dolzarb muammolari. Urganch, 2019. 58- b
2. Raximov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari, - Toshkent “Akademnashr” - 2011
3. Abdurahmonova M..Rayimjonova M.M “Korpus lingvistikasida tarjimashunoslik masalasi” maqolasi
4. Abduraxmonova N.Z. “O`zbek tili elektron korpusining kompyuter modellari” avtoreferat 16-bet
5. Захаров В.П. Корпусная лингвистика.Учебно-методическое пособие. 2005. С-48
6. https://shokiryuldash.blogspot.com/2020/06/korpus-nima-korpus-tilshunosligi.html

QISHLOQ XO'JALIGIDA ZAMONAVIY SUV TEJOVCHI TEXNOLOGIYALAR

Xo'jamqulov Javlonbek Baxtiyor o'g'li
"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot unversiteti Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash fakulteti talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7264443

Annotatsiya: Maqolaning maqsadi suvni tejovchi texnologiyalardan foydalanish afzalliklari va istiqbollarini o'rganishdir. Aniqlangan innovatsion suvni tejash texnologiyalaridan foydalanishning iqtisodiy samaralari. Hozirgi suv taqchilli sharoitida qishloq xo'jaligida hosildorlikni saqlagan holda suv tejovchi zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanish va ortiqcha suv sarfini oldini olish.

Kalit so'zlar: Suv intensivligi, innovatsiya, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, suvdan oqilona foydalanish, resurslarni tejovchi texnologiyalar, tomchilatib sug'orish.

Mamlakatimiz miqyosida suvni tejaydigan ilg'or texnologiyalarni, jumladan tomchilatib sug'orish, egatga plyonka to'shab hamda o'q ariqlar o'rniga egiluvchan ko'chma quvurlar yordamida sug'orishni keng joriy etishga alohida e'tibor berilmoqda. Faqatgina oxirgi yillarning o'zida 7,6 ming gektardan ortiq maydonda tomchilatib sug'orish tizimi qurilib, muvaffaqiyatli tarzda ishlatilmoqda. Egatga plyonka to'shab va ko'chma egiluvchan quvurlar yordamida sug'orish texnologiyasi 4 ming gektarga yaqin maydonda qo'llanilib, uning asosiy qismi paxta maydonlarini sug'orishda ishlatilmoqda. Suv resurslaridan foydalanishning samaradorligini oshirishda suvni tejaydigan ilg'or texnologiyalarni qo'llash muhim ahamiyatga egaligini hisobga olib, davlatimiz tomonidan ushbu yo'nalishni rivojlantirish qo'llab-quvvatlanmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi 1-Prezidentining 2013 yil 19 apreldagi «2013-2017 yillar davrida sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga asosan 2013-2017 yillar davomida jami 25 ming gektar maydonda tomchilatib sug'orish tizimi, 45,6 ming gektar maydonda egatga plyonka to'shab sug'orish usuli hamda 34 ming gektar maydonda esa o'q ariqlar o'rniga ko'chma egiluvchan quvurlar yordamida sug'orish usullari joriy etilishi belgilangan.

Zamonaviy suvni tejaydigan texnologiyalarning afzalliklari, ekinlarni sug'orishda suv tejovchi istiqbolli usullarni qo'llashda yomg'irlatib sug'orishda dalaga suv berish miqdori 20-25 % gacha kamayadi, yer ostidan sug'orishda dalaga suv berish miqdori 25-30 % gacha kamayadi, tomchilatib sug'orishda dalaga suv berish miqdori odatdagidan 35-65 % gacha kamayadi, egat olinmaydi.

Dunyoning yetakchi davlatlarida zamonaviy uslublarda sug'orilayotgan maydon

Davlatlar	Yomg'irlatib sug'orish (mln. ga)	Tomchilatib sug'orish (mln. ga)	Zamonaviy uslublarda sug'orilayotgan maydon kulami (mln. ga)	Umumiy sug'orish maydoniga nisbatan foiz maqdorida
Xitoy	1,20	0,27	1,47	2,8
Kipr	0,002	0,025	0,027	49
Frantsiya	1,40	0,05	1,45	90
Germaniya	0,53	0,002	0,532	100
Isroil	0,07	0,16	0,23	100
Hindiston	0,66	0,26	0,92	1,6
Italiya	0,35	0,08	0,43	16
Iordaniya	0,005	0,038	0,043	62
JAR	0,26	0,22	0,48	37
AQSH	3,38	1,05	4,43	21

Respublikadamizda sug'orish suvlari taqchilligi sharoitida ekinlardan yuqori va sifatli hosil yetishtirishda suv resurslarini tejovchi texnologiyalar qo'llash eng muhim va dolzarb vazifa hisoblanadi. Suvni tejash texnologiyalaridan tomchilatib sug'orish usuli xozirgi kunda eng maqbul sug'orish usullaridan biri bo'lib qolmoqda. Dala sharoitida xar bir tomchi suvni tejash, ekinlarga kerakli miqdorda va o'z vaktida, dalada suv yo'qotishini oldini olish, ya'ni suv yo'qotilishini kamaytirish bo'yicha yechimlar qo'llash va suvning har tomchisidan ko'proq hosil olish imkonini yaratishdan iborat. Tomchilatib sug'orish o'simlikning ildiz qatlami ustiga o'simlikning suvga bo'lgan talabini hisobga olgan holda, suvni kerakli hajmda vaqti-vaqti bilan berishdir. Tomchilatib sug'orishda sug'orish suvi quvurlar orqali o'tib, maxsus tomizg'ichlardan o'ta kichik oqim yoki tomchi ko'rinishida tuproq ustidan o'simlikning ildiz qatlamiga uzatiladi. Tomchilatib sug'orishda o'simlikning ildiz tizimi boshqa sug'orish usullariga nisbatan yaxshi rivojlanadi. Namlantirish o'chig'i oldida ildizlar qalin bo'ladi. Agar tomchilatib sug'oriladigan ekinlarda boshqa sug'orish usuli qo'llanilsa, ildizi bu usulga tez moslashadi.

Tomchilatib sug'orish usulining quyidagi afzaliklari bor:

•O'simlik ildiz qatlaminining faol (aktiv) rivojlanishi va tuproqda havoning yaxshi almashinuvi hisobiga ozuqa moddalarning o'simlik tomonidan o'zlashtirilishi tezlashadi.

•Ekin dalasida ekinlarga dala ishlov ishlarining olib borishidan qat'iy nazar, kunning istalgan vaqtida sug'orish amalga oshirilishi mumkin.

•Qator oralig'i tuproqning sug'orilmay qolishi, istalgan vaqtda tuproqqa va o'simlikka ishlov berish va hosilni yig'ishtirib olishga imkoniyat yaratadi.

Tomchilatib sug'orishning quyidagi ustunliklari mavjud:

•Kam suv sarflanadi.

•Suvning bug'lanishga, faol qatlamdan foydasiz isrof bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

•Shamol kuchi sug'orish jarayoniga ta'sir ko'rsatmaydi.

•Qiyin re'lefli maydonni ham sug'orish imkoniyati mavjud.

•Namlik (sug'orish suvi) bir tekis taqsimlanadi.

•Sug'orish ishlarini 24 soatning istalgan vaqtida amalga oshirish mumkin.

•Begona o'tlar boshqa usulga qaraganda kam chiadi.

•Yomg'irlatib, tuproq ustidan sug'orish usullariga nisbatan tuproqdagi harorat yuqori bo'lishi buning oqibatida qishloq xo'jalik ekinlari erta yetiladi.

•Suvning tuproqqa shimilishi, asosan kapillyar printsipida amalga oshadi.

•Sug'orish jarayonida o'simlik ildiziga sug'orish suvi bilan birgalikda mineral o'g'itlar kiritim imkoniyati mavjud.

•Sug'orishlar orasidagi muddatlarning kichik (1-3 kun). Bunda o'simlik ildiz qatlamidagi namning keskin o'zgarishi kamayadi.

Tomchilatib sug'orishning quyidagi kamchiliklari mavjud:

•Tomizg'ichlar suvdagi tuz cho'kmalari va loyqa zarrchalari bilan tiqilib qolishi.

•Quvurlarga kemiruvchilar tomonidan ziyon yetkazilishi.

•Qimmatligi.

•Tomchilatib sug'orish tiziminining qo'llanish shart-sharoitlari cheklanganligi.

Tomchilatib sug'orish tizimini qurish katta mablag'larni tabal qiladi. Shuning uchun bu usulni yuqori rentabelli qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orishda, shu bilan bir qatorda boshqa sug'orish usullarini qo'llash imkoniyati bo'lmagan va katta nishabli (0,03 dan katta) yonbag'ir, suv resurslari tanqis, qiyin yer relefli, mexanik tarkibi yengil va suv eroziyasiga moyil bo'lgan tuproqlarda hamda kichik debitli toza suv manbali maydonlarda qo'llash tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Qishloq xo'jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada jadal tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida", PQ-4919-сон 11.12.2020.

2. "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti" Toshkent - "Exstremum press " – 2011

3. "Qishloq xo'jaligi mashinalari", "O'qituvchi" nashriyot – matbaa ijodiy uyi Toshkent – 2018.

ГРУНТ СУВЛАРИНИНГ САТҲИНИ ДИНАМИКАСИ ВА УНИ АВТОМОБИЛЬ ЙЎЛ ПОЙИНИНГ БАЛАНДЛИГИНИ БЕЛГИЛАШДА ҲИСОБГА ОЛИШГА ДОИР (БУХОРО ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА)

Туляганов А.Х.
Тошкент давлат транспорт университети доценти
Эшмуродов М.Ю.
Тошкент давлат транспорт университети магистри
https://doi.org/10.5281/zenodo.7264451

Аннатация. Мақолада Бухоро вилояти мисолида чўл ва суғориладиган минтақалардаги ер ости грунт сувларининг сатҳини ўзгаришида ўзига хослиги; грунт сувининг сатҳига таьсир этувчи табиий, иқлимий ва техноген омиллар натижасидаги ўзгарувчан қийматлари ва уларни автомобиль йўл пойининг баландлигини ҳисоблашларда белгилашлар баён этилган.

Калит сўзлар. Қуруқ ва иссиқ иқлим, чўл ва суғориладиган худуд, автомобиль йўл пойи баландлиги, грунт сув сатҳи, Волфь сони.

Кириш. Қуруқ ва иссиқ иқлимга шароитида суғориладиган минтақаларда автомобиль йўлларининг йўл пойини лойиҳалашда мустаҳкам, ишончлили ва узоқ муддат эксплуатация қилинишини таьминлашда худуднинг физик−механик хусусиятларидан ташқари “сув−иссиқлик” режимидаги грунт сувларининг сатҳининг ҳисобий қиймати амалий аҳамиятга эга [1,2,4,8,10]. В.М.Сиденкога [2,3] кўра, йўл пойининг “сув −иссиқлик” таркибини шакилланишида грунт сувларининг таьсири ҳисобга олиниши зарурлиги алоҳида кўрсатиб ўтилганлигини қайд этиш лозим.

Бугунги кунда, иқлимни кескинлашуви, суғориладиган майдонларни кенгайиши, уларга олинадиган сув ҳажмини ошиши ва турли техноген омилларни таъсири натижасида грунт сувларининг сатҳини ўзгаришига олиб келмоқда, бу эса автомобиль йўл пойини баландлигини лойиҳалашда мавжуд меьёри ҳужжатларга тузатмалар киритишни талаб этади.

Мақсад ва вазифа. Изланишларнинг асосий мақсади этиб, лойиҳалашларда автомобиль йўл пойини баландлигини ҳисоблашда грунт сувларини сатҳини белгилаш ва бунининг ҳисобига йўл пойини эксплуатациясида самарадорликни ошириш белгиланган. Бунда турли минтақаларда жойлашган гурунт сувларини сатҳини кўп йиллик ўзгаришини ва уларни табиий, техноген омилларининг таъсирини тадқиқ қилиш асосий вазифа этиб белгиланди.


Асосий қисм (мулоҳаза ва фикрлар). Изланишлар учун танланган суғортиладиган қуруқ, иссиқ иқлим минтақаларидан ҳисобланган Ўзбекистоннинг Бухоро вилояти (жами майдони 4183 км^2) суғориладиган (майдони 778 км^2) ва чўл худудларидан (3405км^2) иборат ва бу ерларда грунт сувларининг шаклланишининг ўзига хос хусусиятлари мавжуд бўлиб, гурунт сувларинг сатҳини ўзгариши, Зарафшан дарёсининг ҳозирги, ҳамда қадимги дельтаси, Аму−бухоро каналининг суғориш тармоқларининг оқимлари таьсирида бўлишлиги билан ажралиб туради [9]. Ушбу ҳолат автомобиль йўлларининг йўл пойини лойиҳалашда ўзгарувчан грунт сувларининг сатҳини қабул қилишда (белгилашда), қайд этилган омилларнинг таъсиридаги ҳисобий максимал кўтарилиш қийматини баҳолашни тақазо қилади. Н.Ильясов [5] фикри бўйича, бундай худудларда йўл пойини мусаххамлиги йўл пойининг ёнбағридаги зовур сувларидан (дренажлардан) ҳосил бўлган намликлар, ҳафли ҳисобланмай аксинча, ер ости грунт сувларининг сатҳини кўтирилиши (ер юзасига яқинлашиши), унинг давомийлиги йўл пойини мустаҳкамлигига таьсир ўтказади.

Бугунги кунда автомобиль йўл пойининг баландлигини грунт сувларининг сатҳини ҳисобга ҳолда аниқлаш амалиётга киритилган. В.М. Сиденко [2] таклиф этган ушбу ҳисоблаш тенгламаси қуйидаги кўринишга эга:

$$h_{к.қ} = (h_в + H_o) - (h_{н.ҳ} + n_{oi}), \quad (1)$$

бу ерда H_o − тўшама қалинлиги; n_o- йўл ёқаси эни; i – йўлнинг қиялиги; $h_{н.ҳ}$ − ер ости грунт сувларининг ер юзасига нисбатан чуқурлиги; $h_в$ - ер ости грунт сувлари сатҳидан тўшама тагигагача бўлган масофа.

Ушбу (1)−ифодадаги ўзгарувчан параметрлариининг кўриниши 1−расмдаги чизмада келтирилган.



1−расм. Автомобиль йўлининг йўл пойининг баландлиггини аниқлашдаги параметрларнинг жойлашув чизмаси


Белгилашлар юқорида кўрсатилган.


Йўл пойини баландлигини (1)−ифодага кўра аниқлашдаги $h_{н.ҳ}$ (ер ости грунт сувларининг ер юзасига нисбатан чуқурлиги) турли минтақаларда ўзгарувчан ва асосий параметр бўлиб ва уни тадқиқ қилиш амалий аҳамият касб этишлиги, изланишларимизни асосини ташкил этиб, материаллар таҳлили (таҳлилларда Бухоро вилоятидаги гидрогеологик станция қудуқлари: жами 123 та, 2010-2020 йиллар бўйича маълумотлари жалб этилган), ер ости грунт сувларининг сатҳи чўл минтақаларида 10−50м чуқурликда кузатилишини, янги суғориладиган ерларда 3−10м, ва ноҳоят воҳаларда 0,30−3м ва айрим ҳудудларда ер юзасига сизиб чиқиш ҳолатларини (2−расм) кўрсатди.




2−расм. Грунт сувларини ер юзасига чизиб чиқиши ҳалотининг кўриниши (А−380 Ғузор−Бухоро−Нукус−Бейнеу, 240−270 км).

Чўл минтақаларида грунт сувларининг сатҳи умумий кўтарилиши жараёнида (3−расм, нуқта−нуқта чизиқ билан кўрсатилган), сўнги йилларда йиллик ва ойлик ўзгаришида чуқурлик қийматининг амплитудасини кичрайганини, ҳамда бир ҳил нисбатан ўзгармас қийматда ҳолатда қолганлигини билан ажралиб туради. Ушбу қонуният табиий деб қабул қилинса, шу ерда Қуёш физикасини тадқиқ қилган профессор М.С. Эйгенсонни [12] Қуёш ва гидроеологик бағланишлари сўзсиз, шу билан биргаликда турлича кўринишда бўлишлигини ҳақидаги хулосасини қайд этар эканмиз грунт сув сатҳининг ўзгариши Қуёшнинг фаоллигини кўрсатгичи Волфь сони коффициенти билан боғлиқлигини, грунт сув сатҳини ўзгариши Қуёш фаоллигини тескари акси ва улар орсидаги ўз−аро боғлиқликлик юқори коэффицент корреляцияга (R=0,71) эга эканлигини (бундай боғланиш ҳақида Шимолий−Ғарбий Россиянинг Каменная Степь станциясида биринчи бор А.В. Шнитников [11] томонидан баён этилган) кўришимиз мумкин (3−расм, пастаги шакллар).








3–расм.Чўл ҳудудидаги грунт сувларининг сатҳини кўп йиллик ўзгариши (юқорида), унинг Волфь сони билан қиёслаш (пастда) ва боғланишлар чизмаси.

Бунда, Қуёш фаоллиги ўртача миқдоридан (Волфь сонининг ўртача коэффициенти W=98,6 тенг) юқори ҳолатларда грунт сувларининг сатҳини пасайиши ва кичик қийматларда кўтарилиши кузатилган. Шундай қилиб, Британия, Ақш ва Россия олимларини прогнози бўйича, Волфь сони кейинги юз йиллик давомида кичик қийматга эга бўлишлигини ҳисобга оладиган бўлсак, грунт сувларининг сатҳининг чуқурлиги “ҳафли ҳолат”дан узоқ ва таҳминан 6,0 м атрофида бўлишлиги йўл пойининг кўтармасини мустаҳкамлигига таъсир


этмаслигини ҳисобга олсак, чўл минтақалари учун меъёри ҳужжатларда [4,6,7] қайд этилган қийматдан 0,2−0,5 м пасайтириш мумкин бўлади.

Суғориладиган ҳудудларда грунт сувларининг сатҳиниг ўзгариши асосасан, суғориш майдонларига олинадиган сувларнинг ҳажмига, суғориш каналларининг сув сарфига боғлиқ ва аҳамиятли коэффициент корелляция ҳосил қилишлиги билан тавсифланади [9]. Суғориладиган ҳудудларда олиб борилаётган агротехник тадбирларга қарамай, суғориладиган майдонларни кенгайиши, иқлимни ўзгариши натижасида суғоришга олинадиган сув ҳажмини ошиши (4−расм,чапда), грунт сувларининг сатҳини кўтарилишига (4−расм, ўнгда) ва натижада юқорида кўрсатилгандек ер юзасига сизиб чиқиши, йўл пойи учун “ҳафли ҳолат”га олиб келди. Ушбу “ҳафли ҳолат”ларнинг қиймати апрель−июль ойлари вегитация даврига ва унинг минимал таъсирга эга бўлмаган қиймати (майдонларни тузликларини ювиш даврига қарамай) декабрь – февраль ойларига тўғри келишлиги кузатилди.




4−расм. Йиллар кесимида суғориш учун олинган сув ҳажмини динамикаси (чапда) ва уни грунт сувларининг сатҳи билан боғланишининг (ўнгда) чизмаси.


Ушбу ҳолат йўл пойининг баландлигини лойиҳалашда, ҳамда мавжуд йўлларни эксплуатацияси даврида грунт сувларини сатҳини пасайтириш бўйича чора тадбирларини қўллашда ва кенг фойдаланиш мақсадида турли туманлаштирилган минтақалар учун грунт сувларининг энг юқори қийматлари қайд этилган ArcGIS ёки IndorCad дастурлари бўйича тузилган топографик харитадан фойдаланиш тавсия этилади. 5−расмда биз томондан тажриба сифатида тузилган автоматлиштирилган Индоркад дастурида Бухоро вилояти кесимида грунт сувларининг кузатилган энг юқори сатҳининг минтақалар кўриниши жойлашиш харитаси келтирилган.



расм. Бухоро вилояти бўйича кўп йиллик маълумотлар асосидаги грунт сувларининг сатҳини минтақалардаги кўриниши

Кейинги ўринда, автомобиль йўлларини йирик магистраль суғориш каналларига паралель этиб лойиҳалаш талабидан келиб чиқиб, магистраль каналларни сув сарфининг йўл пойгача бўлган тасъсир масофаси ва у ерда кузатилиши мумкин бўлган грунт сувларининг энг юқори сатҳи тадқиқ қилинди. Изланишлар натижасида қуйидаги, яъний грунт сувларининг сатҳи каналларнинг сув сарфига боғликлиги (6–расм, чапда) ва сув сарфининг таъсири 1500 м гача кузатилиши мумкинлиги аниқланди (6–расм, ўнгда).





6–расм. Магистраль каналларнинг сув сарфини грунт сувларига таъсири

Ўнгда рақамларда: 1− грунт сувининг энг юқори кузатилган сатҳи; 2−грунт сувининг ўртача кўп йиллик қиймати

Ушбу маълумотларни аҳамиятли тарафи шундаки, сув марфининг таъсири доирасидаги 500 м гача ўтган автомобиль йўлининг баландлигини ҳисоблашдаги грунт сувининг сатҳини белгилашда меъёри ҳужжатлар ва адабиётларда иқлимий минтақалар учун қабул қилинган, “ҳисобий баландлик” қийматидан 0,5 м кичиклиги билан тавсифланади. Манбаларда кўрсатилган ҳисоблашлардаги грунт сувининг сатҳини кўп йиллик ўртача миқдори хатоликка олиб келишини ва амалда (1)−ифодан фойдаланишда қуйидаги кўринишдаги тенгламадан фойдаланиш тавсия этилади:

$$h_{к.қ} = (h_в + H_о) - (0{,}016\ L^{0{,}67} + n_{оі}). \quad (2)$$

Бу ерда L – каналдан узоқлик масофаси, м; Қолган белгилашлар юқорида берилган.

Хулоса. Изланишлар натижасида:

1)Чўл ва суғориладиган минтақаларда автомобиль йўлларини йўл пойини баландлигини ҳисоблашда, асосий параметр ҳисобланган грунт сувларининг сатҳини белгилашда, грунт сувининг сатҳига таъсир этувчи омилларни ҳисбга олиш;

2) Чўл худудларда грунт сувининг сатҳи йўл пойининг кўтармасини мустаҳкамлигига таъсир этмаслиги, чўл минтақалари учун мавжуд меъёри ҳужжатларда қайд этилган қийматдан 0,2−0,5 м пасайтириш;

3) Суғориладиган ҳудудларда мелоратив майдонларни кенгайиши, иқлимни ўзгариши натижасида суғоришга олинадиган сув ҳажмини ошиши грунт сувларининг сатҳини кўтарилишига ва натижада ер юзасига сизиб чиқиши, йўл пойи учун “ҳафли ҳолат”га олиб келади, “ҳафли ҳолат”ларнинг қиймати апрель−июль ойлари вегитация даврига ва минимал таъсирга эга бўлмаган сатҳи (майдонларни тузликларини ювиш даврига қарамай) декабрь – февраль ойларида кузатилиши ва “ҳафли ҳолат”лар даврида йўл пойининг баландлигини лойиҳалаш, мавжуд йўлларни эксплуатацияси даврида, грунт сувларини сатҳини пасайтириш бўйича чора тадбирларини қўллашда ArcGis ёки Индоркад дастурларида тузилган топографик харитадан фойдаланиш;

4) Автомобиль йўлларини йирик магистраль суғориш каналларига паралель этиб лойиҳалаш талабидан келиб чиқиб, магистраль каналларни сув сарфининг йўл пойигача бўлган тасъсир масофаси тадқиқ қилинди. Бунда грунт сувларининг сатҳи каналларнинг сув сарфига боғликлиги ва сув сарфининг таъсири кузатилиш даврида ҳисобга олишга;

5) Каналлардан 500 м гача ўтган автомобиль йўлининг йўл пойи баландлигини ҳисоблашдаги, грунт сувининг сатҳини белгилашда меъёри

ҳужжатлар ва адабиётларда иқлимий минтақалар учун қабул қилинган, “ҳисобий баландлик” қийматидан 0,5 м кичик бўлишлиги, ҳисоблашлардаги грунт сувининг сатҳини кўп йиллик ўртача миқдори бўйича эмас, энг юқори қийматни ҳисобга олган такомиллаштирилган (2)−ифодани қўллаш тавсия этилди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1.Бабков В.Ф., Андреев О.В. Проектирование автомобильных дорог. Ч.I.- М.: Транспорт, 1987.- 296 с.

2. Сиденко В.М.Расчёт и регулирование водно−теплового режима дорожных одежд и земляного полотна. М:, Автотрансиздат. 1962.− 274 с.

3. Сиденко В.М., Ильясов Н. Проектирование, сторительство и организация возведения землянного полотна в засушливых районах. Изд.Ўқитувчи. Ташкент.−1983.−288 с.

4.МШН47–2005. Қуруқ иқлимли суъний суғориладиган ҳудудларда автомобиль йўлларини лойиҳалаш, қуриш бўйича техник кўрсатмалар. Т.:, АЙИТИ.−2005.−53 б.

5.Илёсов Н. Автомобиль йўлларини лойиҳалаш. Узбекистон, Ташкент, 2001.−269 б.

6.ИҚН 70–12. Йўл пойининг сув иссиқлик тартибини бошқаришни лойиҳалаш услублари бўйича қўлланма. – Тошкент: «Ўзавтойўл» ДАК. −2013−80 б.

7.ШНҚ2.05.02-07. «Автомобиль йўлларини лойиҳалаш», Давлат архитек қурилиш, 2008.− 89 б.

8.Федотов Г.А., Поспелов П.И. и др. Проектирование автомобильных дорог. (СЭД) T.V.- М.: Информавтодор, 2007.−668 с.

9. Туляганов А.Х., Эшмурадов М.Ю. Суғориладиган ҳудудларда грунт сувларининг сатҳини динамикасига доир (Бухоро вилояти кесимида) «Автомобиль йўлларини лойиҳалаш, қуриш ва экплуатация қилишнинг долзарб муаммолари ва иннавацион технологиялари» мавзусидаги лмий техник конференциянинг мақолалар тўплами. Ташент. – 2022. −109−112б. 10. Қаюмов А.Д. Грунтшунослик (ўқув қулланма). ТДТУ, 2011. − 112 б.

11.Шнитников А.В. Внутривековая изменчивость компонентов общей увлажнеости. Наука, Ленингр.отд−ние.−1969, 245 с.

12.Эйгенсон М.С.Солнце, погода и климат. – Л.: Гидрометеоиздат. − 1963. −270 с.

SHAXSGA OID BELGI IFODALOVCHI LEKSEMALAR SEMANTIKASI HAMDA ULARNING SHAXS NOMIGA TA‘SIRI MASALASI.(ALISHER NAVOIYNING “MAJOLIS UN- NAFOIS” ASARI MISOLIDA)

Jo‘rayeva Nigora Bahtiyor qizi
NamDU 2-bosqich magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.7264456

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxsga oid belgi ifodalovchi leksemalarga leksik jihatdan yondashgan holda ularning mazmuniy tomoni yoritiladi. Bunda asosan shaxs nomi oldidan kelgan leksemalarga e‘tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: Leksema, sema, semema, semantik struktura, shaxs nomi, belgi, denotativ sema, ifoda sema, vazifa sema.

Tildagi har bir leksema ma‘no bildirishga xizmat qilish bilan birga turli belgilarni ham ifoda etadi. Belgi bildiruvchi tushunchalar tilning shakllanish jarayoni bilan bog’liq. Inson olamni anglashini tilida ifoda etar ekan, albatta uning belgilariga ham e’tibor qaratadi. Shu boisdan ko‘plab leksemalarda shakl va ma‘nodan tashqari belgi bilan bog’liq tushunchalar ham aks etadi.

Belgi bildiruvchi so‘zlar ilmiy adabiyotlarda turlicha tavsiflangan. Belgi tor ma‘noda sifat turkumiga mansub so‘zlarga nisbatan qo‘llangan[31]. Hozirgi zamon o‘zbek tilidagi shaxsga oid belgi ifodalovchi leksemalar va ularning semantik tarkibini aniqlash masalasi ilmiy jihatdan juda kam o‘rganilgan. Alohida olinganda belgi ifodalovchilar sifat leksemalar tarkibiga kiritiladi. Shuning uchun ular belgining nomi sifatida o‘rganib kelingan. Lekin ularning shaxs nomi bilan birgalikda kelib ot leksemalar xususiyatini konkretlashtirish jihati to‘la-to‘kis izohlanmay qolgan. Bunday leksemalar muayyan shaxsning xarakterli, farqlanuvchi sifatlari, belgilarining tavsifini ochib berishga xizmat qiladi.

“Majolis un-nafois” asarida shaxsga oid belgi ifodalovchi leksemalarni talaygina o‘rinlarda qo‘llanilganini guvohi bo‘lamiz. Biz asardagi shaxs nomlari va ularning semantik ottenkalariga e’tiborimizni qaratganimiz sababli belgi ifodalovchi leksemalarning faqatgina shaxs nomi oldidan kelib, uning semantik strukturasini ochiqroq namoyon qilishga yordam beruvchi leksemalarnigina tahlilga tordik. Ana shundan belgi ifodalovchi leksemalarning semantikasiga alohida to‘xtalib o‘tdik. Asarda quyidagi belgi ifodalovchi leksemalar: adabliq, donishmand, jome ko‘ngulluk, oshuftaruzgor, poktiynat, turkvash, hofizaliq, saodatmand, hazzol ta‘b, badzabon, hakimvash, ta‘bi muloyim, xush ta‘b, darveshvash, oshufta mijozroq, zarif,

[31] Содикова М. Ҳозирги ўзбек тилида сифат. – Тошкент: Фан, 1974. – Б. 3. Ўзбек тили грамматикаси. – Тошкент. 1975. - Б. 257.

ra‘no, kamsuxan, qobiliyatlig’, lavandvash, oshuftasifat, majnunvash, tolibi ilm, jahongashta, ozodavash, mazlumvash, obodon, insoniyatliq, faqirvash, sabukruh, salohiyatlik, sufivash, xushmuhovara, xushxon, xushnavis kabi leksemalar ba‘zi shaxs nomlari oldidan qo‘llanilib, o‘zi birikib kelgan shaxs nomini ifodalovchi leksema va shu nom bilan ataluvchi subyektning turli xususiyatlar(belgilar)ini izohlashga xizmat qilgan.

Har bir leksemadagi semalar sanog’ini birdan ortiq tarzda davom ettirish mumkin. Bu semalar semema tarkibiga kiradi va leksemani izohlashga xizmat qiladi. Ma‘no xususiyatiga ko‘ra semema tarkibidagi semalar uch xil bo‘ladi[32].

1.Atash semalari(denotativ semalar). Leksemaning alohida olingandagi, doimiy ma‘nosidir hamda ular leksemaning turli xil xususiyatlarini atovchi semalardir. Masalan, qobiliyatlig’ leksemasi

a) aqliy salohiyatiga ko‘ra “biror ish qo‘lidan keladigan”

b) ijodiy salohiyatiga ko‘ra “talantli”

c) harakatni bajarishga munosabatiga ko‘ra “uddalay olishlik” kabi semalarga ega bo‘lib, ayni shu semalar uning denotativ semalaridir.

2.Ifoda tasvir, qo‘shimcha ma‘no semalari(konnotativ semalar). Bunda leksemani tashkil etgan sememaning turli qo‘shimcha ma‘nolari tushuniladi. Bu qo‘shimcha ma‘nolar – shaxsiy munosabat, qo‘llanish doirasi, uslubiy ma‘no kabilardir. “Qobiliyatli” deyilganda yuqoridagi atash semalaridan tashqari “o‘ta aqlli”, “ustasi farang”, uslubiy betaraf kabi qo‘shimcha ifoda semalari bo‘lib, bunday semalar asosan matnda namoyon bo‘ladi.

3.Vazifa semalari(funktsional semalar). Leksemaning nutqda qanday vazifalarda kela olishini ifodalovchi semalar sanaladi.

Har bir semema tarkibida shunday semalar mavjuddir. Ammo ularning muayyan semema tarkibidagi o‘rni, ahamiyati, mavqeyi turlicha bo‘ladi. Biz belgi ifodalovchi leksemalarni ham yuqoridagi tarkibiy qismlarga ko‘ra tahlil etdik.

Belgi ifodalovchi leksemalar shaxs nomi ifodalovchi leksemalardan farqli o‘laroq, nomlash xususiyatini emas, balki shu nomni olgan shaxsning belgilarini izohlashga xizmat qiladi. Aslida belgi-xususiyatlar leksik birlikning semantik tabiatini ochib bermaydi, semantik tasniflash asosi bo‘lib xizmat qilmaydi. Leksik birliklararo sistem munosabatlar ham lug’aviy ma‘no asosida mavjud bo‘ladi. Tildagi barcha semantik mikrosistemalarni aniqlashda lug’aviy ma‘no hal etuvchi rol o‘ynaydi. Biz asardagi belgi ifodalovchi leksemalarni kichik guruhlarga birlashtirgan holda izohlashga harakat qildik.

Belgi ifodalovchi leksemlar turkumlik semasi jihatidan asosan sifat leksemalardir. Bunday leksemalar shaxsni turli tomonlama ta‘riflashga xizmat qiladi.

[32] Неъматов Ҳ. Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. Тошкент. Ўқитувчи. 1995.

Ular shaxsni qanday belgisini ifodalashiga ko‘ra quyidagicha semantik guruhlarga ajratiladi:

- Shaxsning tashqi ko‘rinishini;
- Shaxsning holatini;
- Harakter-xususiyatini;
- Harakat bajarishga munosabatini;
- Aqliy va ijodiy qobiliyatini;
- Umumiy belgi ifodalovchi.

Belgi ifodalovchi leksemalar tashqi va ichki ta‘sir munosabatlariga ko‘ra ijobiy va salbiy ma‘nolarga ega bo‘ladi[33]. Biroq, bizningcha so‘zlovchining munosabatidan kelib chiqib, ijobiylik va salbiylik semalariga ajratish ancha mukammalroq. Har qanday belgi ifodalovchi leksema turkumlik xususiyatidan qatiy nazar shu leksemaning ichki sememasi ijobiy yoki salbiy ma‘no ifodalovchi semalardan iborat bo‘ladi. Bu o‘z navbatida tildagi barcha so‘zlar semantikasiga xosdir.

Shaxsning tashqi ko‘rinishini ifodalovchi leksemalar – bir qarashda insonning tashqi belgilarini ko‘rsatib beruvchi leksemalardir. Bunday leksemalar insonning yuz ko‘rinishi, bo‘y-basti, tanasidagi biror alohida belgi yoki nuqsonni anglatuvchi leksik birliklardir. Abdolvash, darveshvash, abtarvash, ra‘no, abtarsheva, faqirsheva kabi leksemalarni shaxsni tashqi tomondan izohlashiga ko‘ra shaxsning tashqi ko‘rinishini ifodalashga xizmat qiladigan belgi bildiruvchi leksemalar sirasiga kiradi.

Shaxsning xarakter-xususiyatini ifodalovchi leksemalar – insonning ichki va tashqi fe’l-atvorini tasvirlash uchun ishlatiladigan leksemalardir. Bunda bir insonga nisbatan boshqalarning shaxsiy munosabati aks etadi. Bunday leksemalar subyektiv baho ifodalashi sabab unda bevosita ijobiylik va salbiylik xususiyati namoyon bo‘ladi. Xushta‘b, abluk, badzabon, badmaosh, badfe’l, dilkash, abtarsheva, abtarvash, sabukruh, xushbosh, insoniyatliq kabi leksemalar shaxsning xarakterini ochishga xizmat qiladi.

Shaxsning holatini (ruhiy yoki jismoniy, ijtimoiy)ifodalovchi leksemalar – tildagi so‘zlar shaxs, narsa, harakatlarning bir holatdan boshqasiga o‘tishi yoki barqaror holatni ifodalab kelishi ahamiyatlidir. Shaxsga oid belgi ifodalovchi leksemalarda ham bu xususiyatni ko‘rishimiz mumkin. Shaxsning holatini bildirgan leksemalarni ana shu shaxsga nisbatan qanday munosabatdagi holatini inobatga olgan holda, ularni

-ruhiy holatni ifodalovchi;

-jismoniy holatni ifodalovchi;

[33] Мамаражабова З. Ўзбек тилида сифатларнинг коннотатив ма’нолари. Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – Б. 18.

-ijtimoiy holatni ifodalovchi kabi leksik guruhlarga ajratishni lozim topdik. Quyida ularning sememalariga to‘xtalib o‘tamiz. Ma‘lumki, leksemaning ichki tuzilishi sememadir. Har bir leksemaning sememasi o‘z ichidagi kichik semalariga ko‘ra bir-biridan farqlanadi. Mutlaqo bir xil sememaga ega bo‘lgan leksemalar mavjud emas. Asarda shaxsning holatini ifodalovchi quyidagi leksemalar ishlatilgan. Zarifvash, zarif, dardmand, faqirvash, oshufta mijoz, majnunvash kabi.

Shaxsning harakat bajarishga munosabatini ifodalovchi leksemalar – bunday leksemalarni ajratishda xohlaymizmi yo‘qmi sifat leksemalar uchun xos bo‘lgan darajalanish xususiyatini hisobga olishimiz kerak bo‘ladi. Ya‘ni shaxs harakatni qanday tarzda bajaradi yoki unga munosabati masalasi quyidagi leksemalarda namoyon bo‘ladi. Sariul-qalam, xushnavis, xushmuhovara, xushtaqrir, xushtavr kabi leksemalar shaxsning harakatga bo‘lgan munosabatini ifoda qiladi. Sariul-qalam- tez yozuvchi, qalami chaqqon. Alisher Navoiyning yana boshqa asarlarida ham tez yozuvchi semasiga ega bo‘lgan chabukraqam leksemasini ham uchratishimiz mumkin.

Shaxsning qobiliyatini ifodalovchi leksemalar – bunday leksemalar shaxsning ijodiy, aqliy va jismoniy qobiliyatini ya‘ni boshqa shaxslardan farqlanuvchi xususiyatini aks ettiradi. Andeshalik, salohiyatlik, qobiliyatlik, tolibi ilm kabi leksemalar ana shu guruhga mansubdir.

Umumiy belgi ifodalovchi leksemalar – bunda yuqoridagi ma‘noviy guruhlarga kiritilmagan, shaxsga xos belgini umumlashgan holda ko‘rsatuvchi, har tomonlama aniqlashtirish uchun xizmat qiluvchi leksemalarni kiritdik. Bunday leksemalar shaxsga oid belgini umumiy holda ifodalashi bilan xarakterlanadi.

Belgi ifodalovchi leksemalar sifat turkumi jihatidan tilshunoslikda juda ko‘p ilmiy ishlar orqali tadqiq etilgan. Lekin aynan shaxsga oid belgi ifodalovchi leksemalar chuqur tadqiq etilmagan. “Majolis”da juda ko‘p o‘rinlarda bunday leksemalarga duch kelinadi. Ahamiyatli jihati sifatida biz aynan shaxs nomlari oldidan ularning aniqlovchisi bo‘lib xizmat qilgan leksemalarni izohladik. Shaxs nomlaridan alohida kelgan belgi ifodalovchilarga to‘xtalib o‘tmadik.

Ko‘plab belgi ifodalovchi leksemalar turkumlik jihatidan ot va sifat leksemlarga manub. Lekin komponent tahlilda ularning bu xususiyati e’tiborga olinmaydi. Belgi ifodalovchi leksemalar qaysi turkumga mansubligidan qatiy nazar shaxsni ifodalovchi nomlarni turli belgilar vositasida izohlab beradi. Shaxs nomlari oldidan kelganda ushbu leksemaning semantik strukturasiga ta‘sir etmagan holda alohida olib ta‘riflaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мамаражабова З. Ўзбек тилида сифатларнинг коннотатив ма’нолари. Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2004.

2. Неъматов Ҳ. Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. Тошкент. Ўқитувчи. 1995.

3. Содикова М. Ҳозирги ўзбек тилида сифат. – Тошкент: Фан, 1974. – Б. 3

4. Ўзбек тили грамматикаси. – Тошкент. 1975. - Б. 257.

5. Ўзбек тили лексикологияси. –Тошкент. Фан. 1981.

MUSTAQIL TA’LIMNING TASHKIL ETILISHI VA UNING ISTIQBOLLARI

Aliyev Qaxramon Yusupovich
Mahammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Qarshi filiali magistri
P.M.Jalolova
TATU Qarshi filiali p.f.PhD, dotsent
https://doi.org/10.5281/zenodo.7264458

Ta’lim tizimida AKT imkoniyatlaridan keng foydalanish bugungi kunning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Ta’limga texnologik yondashuv pedagogik jarayonga faol ta’sir etuvchi va uning samaradorligi, bir butunligi va muvaffaqiyatini belgilab beruvchi omillardan biridir. O‘zlashtirilishi murakkab bo‘lgan mavzular bo‘yicha o‘quvchilar bilan suhbat o‘tkazish kabi talablar qo‘yiladi. Qo‘yilgan talablar bo‘yicha axborot texnologiyalarining multimediya vositalari asosida dars jarayonini tashkil qilish pedagog-o‘qituvchilarning ish faoliyatini osonlashtirib, o‘quv jarayonini boshqarish, uning samaradorligini yanada ko‘tarishga erishiladi. Ma’ruzani kompyuter yordamida taqdimot shaklida namoyish etish, seminar darsida talabalarning javob berishi, kuzatuvchi taqdimotlar, talabalar nashri darsda maxsus dasturiy vositadan foydalanish talabalarning o‘qish jarayoniga qiziqishini orttiradi va ta’lim sifatini oshirishga olib keladi.

Ta’limga texnologik yondashuv pedagogik jarayonga faol ta’sir etuvchi va uning samaradorligi, bir butunligi va muvaffaqiyatini belgilab beruvchi omillardan biridir. Interfaol usullardan ta’lim jarayonida samarali foydalanish ham o‘ziga nisbatan talabchanlikni oshiruvchi, faolligini ta’minlovchi, bevosita o‘zini vaziyatni faol ishtirokchisi sifatida erkin idrok qilishiga va voqeaga real ko‘z bilan qarashga o‘rgatadi. Bunda esa ta’limni multimedia ko‘rinishida tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Xalqaro kongress markazida Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida: “Yangi O‘zbekiston — maktab ostonasidan, ta’lim-tarbiya tizimidan boshlanadi”, degan g‘oya asosida keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshiramiz.

Birinchidan, yosh avlodga bog‘cha, maktab va oliygohda sifatli ta’lim-tarbiya berishni yo‘lga qo‘yamiz, ular jismoniy va ma’naviy sog‘lom, vatanparvar insonlar bo‘lib ulg‘ayishi uchun barcha kuch va imkoniyatlarni safarbar etamiz.

Ikkinchidan, yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo‘lgan insonlar etib voyaga yetkazamiz,-deb ta’kidlab o‘tdilar.

Ta’limda qanchalik murakkab bilish jarayonlarini ishtiroki talab etilishiga erishilsa, talaba shaxsini yashirish bo‘lgan ichki imkoniyatlari, qobiliyat qirralari namoyon bo‘ladi. Bevosita ta’lim jarayonida talaba o‘zi ham ta’lim mazmunini yorituvchi sifatida faollik ko‘rsatishi, muammoni ifodalashda izlanishi o‘zlashtirish darajasini yuqori saviyaga ko‘tarilishiga olib keladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tantanali marosimdagi nutqida: “Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug‘ istiqboli, birinchi navbatda, ta’lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog‘liq.

Buyuk yunon olimi Aristotelning **«Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi»,** degan so‘zlari bor”.-deb aytib o‘tganlar. Yosh mutaxassislarda kasbiy amaliy malaka va ko‘nikmalarni shakllantirishda mustaqil ishlar, ishlab chiqarish amaliyoti va ishbilarmon o‘yinlar muhim o‘rin tutadi. Metodologik o‘yinlar hayotiy voqelikka eng yaqin keluvchi metod bo‘lib, katta amaliy ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchi ta’lim jarayonini texnologik yondashish asosida tashkil qilishi uchun pedagogik ko‘nikma-malakalarni mukammal egallagan bo‘lishi lozim. Buning uchun talabalik davrida bo‘lajak o‘qituvchini pedagogik ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish talab etiladi. Ta’lim jarayonining yutuq va kamchiliklari, ta’lim natijasining sifat ko‘rsatkichlari, ta’lim jarayoniga tatbiq qilinadigan pedagogik nazariyalar, zamonaviy texnologiyalarning ta’lim amaliyotini rivojlantira olish yoki ta’limning taraqqiyotiga to‘sqinlik qilish darajasini aniqlashga yo‘naltirilishi kerak.

Bugungi kunda ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda asosiy omillardan biri–bu talabalar uchun mustaqil ta’limni tashkil etish va ularda mustaqil o‘qish faoliyatini shakllantirishdan iboratdir. Talabalar dunyoqarashini shakllantirishda va o‘zgartirishda kreativ texnikalarni qo‘llab yechimni topish mumkin bo‘lgan ijodiy vazifalar muhim ahamiyatga ega. Har qanday o‘quv fani bo‘yicha bilimlarni o‘zlashtirishda mustaqil o‘quv faoliyati muhim hisoblanib, bilimlarni mustaqil o‘zlashtirish bugungi kunning eng dolzarb vazifasiga aylanib bormoqda.

Izlanishlar va kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim tizmining barcha pog‘onalarida talabalarning mustaqil ishini tashkil etish va amaliy tajribalarni qo‘yishda texnologik muammolar yuzaga keladi. Ya’ni, aksariyat talabalarda mustaqil o‘qish va mustaqil ishlash ko‘nikmalari yetarli darajada emas. Shuning uchun o‘qituvchilar ko‘p hollarda talabalarga mustaqil ishlash uchun har doim bir xil shakldagi vazifalarni (taqdimot tayyorlash, seminarlarda ma’ruza qilish, konspekt qilish, referat tayyorlash va hokaz) beradi. Bu esa talabaning ijodiy ishlash faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. **Mustaqil o‘qishning asosiy maqsadi, talabaning o‘qituvchining yordamisiz shug‘ullanishi bilan emas, balki uning o‘z oldiga**

qo‘ygan maqsadiga erishish uchun yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Talabalarning mustaqil o‘qish faoliyatining samaradorligi quyidagi faktorlar bilan aniqlanadi:

a) talabalarning mustaqil o’qish faoliyatiga tayyorligi;

b) mustaqil o‘qish faoliyatini sifatli pedogogik ko‘nikmalar bilan ta’minlanganligi.

Talabalarning mustaqil o‘qish faoliyatiga tayyorligi, quyidagi komponentalar orqali aniqlanadi: o‘zida tasavvur etishni shakllantiruvchi qiymatli-motivatsion komponenta va kasbiy motivatsiya; - umumlashgan bilimlarni egallagan, kognitiv komponetalar (birinchi navbatda dunyoqarash g‘oyalari va ilmiy tushunchalar) hamda umumta’lim ko‘nikmalari va o‘z-o‘zini tashkil qilish: - shaxsning erkinlik sifatlari bilan aniqlanuvchi erkinlik kompanentalari, bunda birinchi o‘rinda tartib-intizom, trishqoqlik, mustaqillik, talabchanlik va javobgarlikni his qilish turadi. Talabalarning mustaqil ishini pedagogik kuzatish-bu o‘qituvchi tomonidan talabalarning mustaqil o‘qish jarayonini ilmiy-pedagogik jihatlarini ta’minlash va o‘quv vazifalarini bajarishda talabalarga amaliy yordam berishdan iboratdir. Pedagogik texnologiya – bu o‘qituvchining o‘qitish vositalari yordamida talabalarga muayyan sharoit va ketma-ketlikda ta’sir ko‘rsatish va bu faoliyat mas’uli sifatida ularda oldindan belgilangan sifatlarni shakllantirish jarayonidir. Talabalarning mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil qilishda o‘ziga xos texnologik jihatlariga e’tibor qaratish muhim ahamiyatga ega. Ta’lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o‘qituvchilar uchun bir qancha qulayliklar yaratadi, masalan: fan materiallarini elektron shaklda tayyorlash, taqdimotlar tayyorlash, mavzularni multimedia yordamida tushuntirish, tajriba ishlarini visual tarzda bajarib ko‘rsatish, amaliy masalalarning yechimlarini yuqori aniqlikda olishni o‘rgatish va boshqalar. Hozirgi kunda darslik va o‘quv qo‘llanmalarni chop etish juda qimmatga tushmoqda. Buning ustiga kitoblar 2-3 yilda o‘quvchisini yo‘qotmoqda. Bu jarayon yengil kechishi uchun darslik va o‘quv qo‘llanmalarning elektron variantlaridan unumli foydalanishni tashkil etish zarur. Elektron o‘quv adabiyotlari bilim oluvchilarning tasavvurini kengaytirishga, dastlabki bilimlarni rivojlantirishga va chuqurlashtirishga, qo‘shimcha ma’lumotlar bilan ta’minlanlashga mo‘ljallangan bo‘lib, chuqurlashtirib o‘qitiladigan fanlar bo‘yicha yaratilishi lozim. AKT o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etishda, talablarga tavsiya etish va tavsiya etilayotgan o‘quv materiallarini to‘liq o‘zlashtirishga qo‘l keluvchi vosita bo‘lib, o‘quv materiallarini tinglovchilarga tushunarli va jonli, qisqa muddatda ko‘p ma’lumotlarni yetkazib berish kabi yuqori samarali pedagogik-didaktik usullardan foydalanish zarur bo‘ladi. AKTni ta’lim jarayonlariga tadbiq etilishi talabalarning, nafaqat talabalarning, balki pedagoglarning ham axborot madaniyati davr bilan hamnafas tarzda shakllanishiga munosib zamin yaratadi. Inson uchun, axborot madaniyati axborot-lashtirilgan jamiyatni yaratishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan komponentlardan hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda oliy ta’lim muassasalarida keng doirada qo‘llanishni o‘z ichiga olgan:

-kompyuter dasturlari va o‘rgatuvchi tizimlar –eletron o‘quv qo‘llanmalar, bilimni baholashning test shakli:

-vediotexnikalarni qo‘llash bilan yasalgan multimedia texnologiyalari;

-aniq sohalarda qo‘llanishga yo‘naltirilgan va ta’lim jarayonida va tadqiqotlarda amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan intellectual o‘rganuvchi ekespert tizimlar;

-elektron pochta, telekonferensiya, SKYPE tizimi va jahon kommunikatsiya tarmoqlariga chiqish imkoniyatiga beruvchi telekommunikatsiya tizimlari;

-ta’lim oluvchilar uchun jahon axborot manbalariga kirish imkoniyatini beruvchi elektron kutubxonalar.

Axborot-kommunikatsiyalar texnologiyalarini ta’lim jarayoniga keng ko‘lamda joriy qilish quyidagilarni beradi:

- O‘quv va limiy axborotlarni talaba hamda professor-o‘qituvchilar tomonidan qidirib topishga ketadigan vaqtning qisqarishi;
- Elektron o‘quv adabiyotlar mazmunini davr talabidan kelib chiqqan holda o‘zgartirishni tezlashtirilishi;
- Talabalarning mustaqil ta’lim olishlari uchun qo‘shimcha vaqtning ajratilishi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saidov J.N, Xodiyeva S.Sh “Ta’lim sifatini oshirishda AKT va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o‘rni”
2. Turdiboyev D.X, Abduraimov D, Nafasov G‘.A “Ta’lim samaradorligini oshirishda pedagogik va axborot texnologiyalarining o‘rni”
3. Shoyqulov Sh.Q, Rahmatov M.I “Ma’lumotlarni va ta’limni boshqarish tizimlari ta’lim muassasasining axborot muhitini yaratish vositasi sifatida”
4. Muslimov N.A., Qo‘ysinov O.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda musta- qil ta’limni tashkil etish. Metodik-qo'llanma. -T.: TDPU,2006. -46-b

INGLIZ TILIDA RANG KOMPONENTLI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING O'RNI

Shamsutdinova Diyora
Andijon Davlat Universiteti Pedogogika Instituti
1-kurs magistri
https://doi.org/10.5281/zenodo.7264462

Annotatsiya: Ushbu maqola ingliz tili rang komponentli frazeologik birliklarning tilshunoslikdagi hususiyati haqida bo'lib, unda frazeologiya tilshunoslikning bir qator bo'limlari bilan, jumladan, leksikologiya, stilistika, semantika, etimologiya morfologiya, grammatika bilan bevosita bog'liqligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: semasiologiya, lingvistik struktualizm, ijtimoiy hodisa, semiotic lingvistika, frazeologik konkresiyalar.

Annotation: This article deals with the linguistic features of the phraseological units of the English color component, which provides information on the direct connection of phraseology with a number of branches of linguistics, including lexicology, stylistics, semantics, etymology, morphology, grammar.

Keywords: semiotics, linguistic structuralism, social phenomenon, semiotic linguistics, phraseological concretions.

Inson his-tuyg'ularini har tomonlama mukammal tarzda ifodalashning eng samarali vositasi tildir. U shunday xususiyatga ega bo'lganligi uchun ham inson his-tuyg'ularini "boshqara oladi", ya‘ni uning qalbida turli kechinmalar va hissiyotlar paydo qilish xususiyatiga ega [F.Sharifian: 88]. Binobarin, tilning har bir sohasi - fonetika, morfologiya, leksika va semantika ortida psixologiya yashiringandir [V. Belyanin : 8]. Shu sababli lingvistika va psixologiya o'zaro aloqador sohalar hisoblanadi. So'nggi vaqtlarda tilshunoslikda rang va uning turli xil jilosi hamda ularga xos ekspressiv-emotsional xususiyatlarning og'zaki va yozma nutqda aks etishiga doir masalalar tadqiqotchilar e‘tiborini tortmoqda. Shunday ekan, tilda ranglarning qo'llanishi va ular bilan bog'liq ekspressiv-emotsional xususiyatlarning aynan frazeologiya sohasida ham tadqiq etish inson ichki kechinmalari va ruhiyatini ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, frazeologik iboralarda ranglarning qo'llanilishi ichki ruhiyatni tashqi ruhiyatda aks ettirish jarayonini ancha osonlashtiradi, ya‘ni boshqacha qilib aytganda, ruhiyat olamidagi ichki histuyg'uning rangin manzarasini «ko'ra olish»ga yordam beradi. Bu borada faylasuf Taftazoniy inson ichki his-tuyg'usi tashqi hissiyot asosida paydo bo'lishini qayd etadi, shuningdek, narsalar to'g'risida biror tushuncha hosil qilish his-tuyg'u uyg'otgan

qiyofa orqali amalga oshishini ko’rsatib o’tadi [Taftazoniy :e-tarix.uz›shaxslar/483]. Binobarin, olim Sh.Safarov ta‘kidlaganidek, insonlar o’rtasidagi muloqot maqsadi ham oddiygina axborot almashish bilan chegaralanib qolmaydi, balki, axborot uzatish orqali «hamkor»ga ta‘sir o’tkazish, uni biror narsaga ishontirish, bo’ysundirish, harakatga undash kabi maqsadlar ham e‘tiborga olinadi [SH.Safarov : 81].

Til va tafakkurning, lisoniy va mantiqiy birliklarning o‘zaro aloqasi muammosi tilshunoslik va falsafa tomonidan baravar, bir vaqtning o‘zida o‘rganiladi. G.S.Kolyadenko va M.P.Senkevichlarning fikriga ko‘ra,“tilvafikrlash o‘rtasidagi aloqa shuni tasdiqlaydiki,harqanday so‘z, shuningdek so‘z birikmasi, gap ma'lum bir ma'noga ega fikrni ifodalaydi”. Biroq A.N.Radishev nutqning fikrlash bilan o‘zaro chambarchas bog‘likligini quyidagicha izohlaydi: “...ruhning tanasizligiga kuchli dalillardan biri - bu bizning nutqimiz. U bizning fikrlashimizning eng a'lo, balki yagona tashkilotchisidir” Umumiy tilshunoslik asoslari, tilni "faoliyat" va "faoliyat mahsuli" sifatida tushunish, tilning tashqi va ichki shakli haqidagi ta’limot, tillarning tipologii tasnifi va boshqa muammolar nemis olimi V.Gumboldt tomonidan ishlab chiqildi. Uning fikrlari 19-20-asrlar g‘arb tilshunoslikning bir qancha yo‘nalishlari rivojiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Gumboldt tilshunoslik mantiqiylikdan qutulishi va o‘z metodiga ega bo‘lishi kerakligini, tilning tizim xususiyatiga egaligini, uning 2 jildi - tovush va ma’nosi borligini qamda ijtimoiy hodisaligini asosli bayon qildi. 19-asr o‘rtalarida A. Shleyxer tilshunoslikda biologik nazariyalarni qo‘llashga urinib ko‘rdi. Struktural oqimlar bilan bir katorda boshqacha yo‘nalishlar va qarashlar rivojlana boshladi: psixologik yo‘nalish (nemis olimlari X.Shteyntal va V.Vundt asarlari; rus olimi V.V.Potebilanya ham ushbu yo‘nalishga qo‘shiladi), neyrolingvistika va boshqa Materialistik dunyoqarashning keng yoyilishi bilan eksperimental fonetika va lingvistik geografiya xam rivojlana boshladi. Keyinchalik tilshunoslikda yangi yo‘nalish va bo‘limlar: psixolingvistika, sotsiolingvistika, etnolingvistika, semiotik lingvistika, matn lingvistikasi paydo bo‘ladi. Hozirgi xorijiy tilshunoslikda materialistik nazariyalar bilan bir qatorda idealistik tamoyillarga asoslangan nazariyalar ham mavjud.

Frazeologiyani "so‘z birikmalarining tuzilishi, ma'nosi va ishlatilishini o‘rganish" (Cowie 1994) deb belgilash mumkin. Til leksikasi va grammatikasining ajralmas yekanligi haqidagi qarashni qamrab oladi". Frazeologiyadagi asosiy tahlil birliklari ko‘pincha iboralar yoki frazeologik birliklar deb yuritiladi. Frazeologik birliklar (Prof. Kunin A.V. bo‘yicha) qisman yoki to‘liq ko‘chirilgan ma'nolarga ega bo‘lgan barqaror so‘z guruhlari, masalan "to kick the bucket", “Greek gift”, “drink till all's blue”, “drunk as a fiddler (drunk as a lord, as a boiled owl)”, “as mad as a hatter (as a March hare)”.

Rosemarie Galgserning fikriga ko‘ra esa frazeologik birlik leksikallashgan, reprezentativ bileksemik yoki polileksemik so‘zlardir. Frazeologik birlik ma'nosini

uning tarkibiy qismlaridan biri (undalganda) orqali topishimiz mumkin. Kognitiv tilshunoslik an'anasida idiomalar konseptual motivasiyaga yega (Lakoff, 1987), boshqa tomondan, bir qancha frazeologik birliklar borki, ularning ma'nosi uning tarkibiy qismlaridan birining ma'nosini bilish orqali topilmaydi (undalma bo‘lganda). Uning ma'nosini kompozitsion tahlil usuli yordamida kuzatish kerak. Bu usul semantik sohada semantik ma'noni kashf etishga yordam beradi. Ingliz tilida, shuningdek, o’zbek tilida biz ularning tarkibiy qismlaridan biriga ega bo‘lgan ko‘plab frazeologik birliklarga egamiz.

Ranglarni o‘rganish yaqinda ingliz tilini o‘rganishning eng zamonaviy yo’nalishlari sirasiga kirdi. Muhokama va natija. Til bilish uchun shu til tilda so’zlashuvchi xalqning madaniyati, urf-odatlari, urf-odatlarini bilish muhim ahamiyatga ega. Ba'zi olimlar madaniyat orqali nafaqat tilni, balki millatning boshqa jihatlarini ham o’rganish mumkin. Biri madaniy ' seme '(yoki semantik komponent) bo‘lib, madaniy element so‘z yoki so‘z birikmasining umumiy ma'nosining bir qismini tashkil etadi. Ikkinchi yo’l-madaniy tushunchalar. Madaniy konsepsiya tushunchalar va kichik tushunchalarni talqin qilishdan kelib chiqishi mumkin. Madaniyat va frazeologiya o‘rtasida yaqin bog‘liqlik mavjud. Bu eng yaxshi hikmatlar va to‘liq idiomatik iboralar bilan aniqlanadi, chunki ular ma'lum bir madaniyatga xos bo‘lgan tasvirlar, an'analar yoki odatlarga tayanishga moyil. Frazeologik birliklar yoki idiomalar, G‘arb olimlarining ko‘pchiligi tomonidan tahlil qilinganidek, tilning so‘z boyligining eng chiroyli, rang-barang va ifodali qismi sifatida ta'riflanishi mumkin bo‘lgan narsalarni ifodalaydi. Turli qog‘ozlarni o‘qiyotib, albatta, quyidagi jumla bilan taqqoslash mumkin: "sinonimlar majoziy ma'noda so‘z qirralari va ranglar deb atalishi mumkin bo‘lsa, keyin frazeologiya yorqin va xalq urf-odatlari kulgili to’qimalar to‘plangan rasm galereyasi kabi bir xil bo‘ladi, xalq qo‘shiqlari, ertaklari, an'analariyu uning o‘tgan tarixini xotirlaydi.

Frazeologik birliklar (idioma deb ham ataladi), qat'iy leksik tarkib va grammatik tuzilishga ega bo‘lgan so‘z guruhidir; uning berilgan tilning ona tiliga tanish bo‘lgan ma'nosi obrazli bo‘lib, frazeologik birlikning tarkibiy qismlari ma'nolaridan kelib chiqib aniqlab bo‘lmaydi. Frazeologik birliklarning ma'nolari berilgan tilning tarixiy taraqqiyoti bilan bog’liq. Frazeologik birliklarning bir necha turlari mavjud. Frazeologik konkresiyalarda so‘zma-so‘z va majoziy ma'nolar umuman ularning ma’nolariga aloqador bo’lmaydi, ushbu misoldagi kabi: “he turned as red as a red pepper”; majoziy ma’nosi “uyalmoq”; “he turned green around the gills ”; adabiy shakli, “he became as yellow as the wax.

Bunday holda biz frazeologik birliklarni frazeologik birliklar orqali tarjima qilishimiz mumkin. Frazeologik birliklarning turiga ko'ra boshqa tasniflari ham mavjud. Ularga o'zgaruvchan strukturaviy elementlarni tanlashdagi cheklashlar, so'z komponentlarining qat'iy yoki o'zgaruvchan tarkibiga asoslanganlar va frazeologik

birlikning tuzilishi va tarkibiy qismlarining qay darajada mustahkamlanganligi asosidagi tasniflar kiradi. Ma'no va tuzilish jihatidan farq qiluvchi frazeologik birliklarning jami tilning lug'at zaxirasini tashkil etadi. Tahlil, lingvistik tavsiflar yoki to'g'ri tadqiqotlar bugungi kunda tilshunoslik sohalari orqali amalga oshiriladi. Tavsifiy va taqqoslash darajasiga tegishli bo'lgan qog'ozimizda u to'g'ridan - to'g'ri va zarur bo'lib qoladi, chunki kontseptual maydon - leksik maydonsemantik maydon o'rtasidagi aloqa har qanday joydan ko'ra ko'proq til ma'nosida ko'rsatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. The importance of the didactic system in teaching english in non-phylological direction Makhsetova Zuhra Turebaevna Almalyk branch of Tashkent state technical university named after Islam Karimov, English language teacher eurasian journal of academic research Volume 1 Issue 9, December 2021

2. O'zbek va ingliz badiiy asarlarida g'ayriodatiy birikmalarning leksik-semantik tahlili (Ernest Xeminguey va Abdulla Qahhor ijodida) M.I.Dexqonova, I. Karimov nomidagi TDTU Olmaliq filiali "Ozbek tili va adabiyoti" kafedrasi assistenti андрияновские педагогические чтения 11 февраля 2022 года

3. Phraseological units in translation Makhsetova Z.T. master's student Chirchik Pedagogical Institute Tashkent region "Экономика и социум" №7(74) 2020

4. Теоретические основы исследования фразеологических единиц с компонентом-зоонимом в китайском и английском языках з. Т. Махсетова academic research in educational sciences volume 1 | issue 3 | 2020

5. Academic research in educational sciences volume 1 | issue 3 | 2020 Zuxra Makhsetova academic subject integration in teaching pedagogy in different establishments

MUAMMOLI TA’LIM YONDASHUVLARI: SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN, EVRISTIK (TADQIQOTCHILIK) VA LOYIHAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARI

Ibragimova Intizor Butanbayevna
Toshkent farmatsevtika instituti
akademik litseyi biologiya o’qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7264464

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o’rta ta’lim maktablarida biologiya fanini o’qitishda interfaol metodlardan foydalanish masalalari yoritib berilgan bo’lib, bir nechta interfaol metodlarning qisqacha bayoni keltirilgan.

Kalit so’zlar: interfaol, metod, pedagog, xarita, kichik guruhlar, “klaster”, “B\B\B”.

Muammoli o‘qitish jarayonida o‘quvchining mustaqilligi o‘qitishning reproduktiv shakllariga nisbatan tobora o‘sib boradi.

Hozirgi pedagogikaga oid adabiyotlarda muammoli o‘qitishning turli ta’rif va tavsiflari bor. Nisbatan to‘liq va aniq ta’rif M.I.Maxmutova tomonidan berilgan bo‘lib, unda muammoli o‘qitish mantiqiy fikrlar tadbirlari(tahlil, umumlashtirish) hisobga olingan o‘rgatish va dars berish usullarini qo‘llash qoidalari va o‘quvchilarning tadqiqot faoliyatlari qonuniyatlari (muammoli vaziyat, bilishga bo‘lgan qiziqish va talab...) tizimi sifatida izohlanadi.

Muammoli o‘qitishning mohiyatini o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarning o‘quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o‘quv vazifalarini, muammolarini va savollarini hal qilish orqali yangi bilimlarni o‘zlashtirish bo‘yicha ularning bilish faoliyatini boshqarish tashkil etadi. Bu esa bilimlarni o‘zlashtirishning ilmiy-tadqiqot usulini yuzaga keltiradi.

Muammoli ta’lim-bu o‘quv materialini o‘quvchi ongida ilmiy izlanish asosida bilish vazifalari va muammolarini vujudga keltiradigan yo‘sinda o‘rgatish uslubidir.

O‘quvchining fikrlash faoliyatida muammoli vaziyatlar vujudga keladi va ular bolani ob’ektiv ravishda izlanishga va mantiqiy to‘g‘ri ilmiy xulosalar chiqarishga da’vat etadi.

Muammo - ilmiy bilishni rivojlantirish zarurligini ifodalashning sub’ektiv shaklidir.

U muammoli vaziyatda, ya’ni jamiyat rivojlanishi jarayonida bilish va bilmaslik o‘rtasida ob’ektiv ravishda vujudga keladigan ziddiyat.

Muammoli vaziyat - o‘quvchining ma’lum psixik holatidir. Bunday holat ma’lum topshiriqlarni bajarish (masala yyechish, savolga javob topish) jarayonida ziddiyatlarni anglash tufayli vujudga keladi.

Ana shu ziddiyatni anglash o‘quvchilarda ishni bajarishning usuli yoki shartlari to‘g‘risidagi yangi bilimlarni izlash ehtiyojini uyg‘otadi.

Muammoli vaziyat muammodan farqli ravishda unga o‘quvchini jalb etishdan iboratdir. Didaktika va psixologiyaga doir adabiyotlarda muammoli vaziyatlarning tiplarini tasniflash asosida ularni yaratishning eng muhim yo‘llari va usullari ishlab chiqilgan. M.Mahmutov muammoli vaziyat tiplarini ta’riflash bilan birgalikda ularni yaratishning quyidagi asosiy usullarini ifodalaydi.

1. O‘quvchilarning nazariy tushunchalarini talab qiladigan xodisalarga, faktlarga, shuningdek, xodisalar o‘rtasidagi tashqi nomuvofiqliklarga duch kelishi ularni ana shu nomuvofiqliklarni tushuntirishga intilishga undaydi va bu intilish bilimlarni faol o‘zlashtirishga olib keladi.

2. O‘quvchilar maktabda, uyda yoki ishlab chiqarishda amaliy topshiriqlarni bajarayotganida vujudga keladigan ta’limiy va hayotiy vaziyatlardan foydalanish. Bunday holda muammoli vaziyatlar o‘quvchining o‘z oldiga qo‘ygan amaliy maqsadga mustaqil ravishda erishish uchun harakat qilishda muammoni o‘zlari vujudga keltiradilar.

3. Hodisani tushuntirishga yoki uni amalda qo‘llash yo‘llarini izlashga doir ta’limiy-muammoli topshiriqlar qo‘yish.

4. O‘quvchilarni hayotiy tasavvurlar bilan faktlar va hodisalarni tahlil qilishga qiziqtirish.

5. Tahminlar, xulosalarni bayon qilish va ularni tajribalarda tekshirish.

6. O‘quvchilarni faktlar, harakat va hodisalarni taqqoslashga hamda qarama-qarshi qo‘yishga da’vat etish.

7. O‘quvchilarni yangi faktlarni umumlashtirishga, taqqoslashga rag‘batlantirish. Bunda odatda muammoli vaziyat vujudga keladi, chunki taqqoslashda yangi faktlarning qandaydir alohida, tushuntirib bo‘lmaydigan belgi va xususiyatlari aniqlanadi.

8. Fanlararo aloqadorlikni tashkil etish. Ko‘pincha o‘quv materiali muammoli vaziyatni vujudga keltirishni ta’minlaydi. Bunday holda boshqa o‘quv fanlaridagi o‘rganilayotgan materialga bog‘liq fakt va ma’lumotlardan foydalanish lozim.

Shunday ekan, ta’lim jarayonini o‘qituvchi va o‘quvchi hamkorligida ongli, ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan faoliyat deb qarash to‘g‘ridir. Uning tarkibiy qismlari: maqsadga yo‘nalganlik, ehtiyoj-intilish, mazmun, faoliyat, jarayon, nazorat-tuzatish va natijalarni baholashdan iborat. Muammoli darsda yangi o‘rganilayotgan qonun qoidaga oid faktlar to‘plash, ularni taqqoslash va tahlil qilish, bilimlarni o‘rganish va mustahkamlash parallel ravishda olib boriladi.

Ta’lim tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan har bir o‘qituvchi dars jarayonida muammoli ta’lim usulini qo‘llash uchun, avvalo quyidagi ketma-ketlikni aniq bilib olishi zarur.

Muammoli ta’lim usuli quyidagicha amalga oshiriladi:

- muammoni qo‘yish;
- muammoni xarakterlovchi sharoitni o‘rganish;
- qo‘yilgan muammoni hal qilish;
- topilgan yechimning to‘g‘riligini asoslash;
- muammoning yechimini izlash va hal qilish jarayonida paydo bo‘lgan yangi bilimlarni anglash;
- muammoni tizimlash, motivlashtirish va umumlashtirish;
- muammoni yechimini o‘rganish, uning yanada ixcham va qulay yo‘llarini izlash.

Ta’lim texnologiyasi bo‘yicha qilinadigan barcha ishlar o‘ziga xos amaliy asosga ega. Ta’lim loyihasini tayyorlash o‘qituvchi va o‘quvchining kelajakda birgalikda amalga oshiradigan faoliyatini oldindan belgilaydi.

O‘qituvchi ta’lim loyihasini amalga oshirishda, eng avvalo, o‘quvchining fikrlash faoliyatida mantiqiy to‘g‘ri, ilmiy xulosalarni chiqarishga va o‘zlashtirishga rag‘batlantiradigan muammoli vaziyatlarni vujudga keltirishni nazarda tutmog‘i lozim.

Muammoli vaziyatni vujudga keltirish, undan foydalanish usullarini yaratish, ta’lim tizimining har bir bosqichida o‘rganiladigan fanlar, ularning xususiyatlari, o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini xisobga olgan xolda yaratiladi. Bir xil yoshdagi o‘quvchilarning jismoniy va aqliy xususiyatlariga ko‘ra tushunishi, fikrlashi, ishni bajarish qobiliyati turlicha bo‘ladi. Shuning uchun muammoli vaziyatni yaratishdan avval o‘quvchini ruhiy jihatdan puxta tayyorlash zarur.

Psixologlarning fikriga ko‘ra fikrlash doimo muammo yoki savoldan, ajablanish yoki tushuna olmaslikdan va ziddiyatdan boshlanadi (S.O.Rubinshteyn). Dars jarayonida muammoli vaziyatlarni hal etishda aniq vaziyatlarni tahlil qilish, baholash va keyinchalik qaror qabul qilishga e’tibor berish lozim.

Muammoli vaziyatlarni hal qilish usullarida asosiy yetakchi funksiyalar:

-o‘rgatuvchi: bilimlarning dolzarbligini aniqlashga asoslanadi.

-rivojlantiruvchi: tahliliy tafakkurni, alohida faktlar orqali hodisa va qonuniylikni ko‘ra bilishni shakllantiradi.

-tarbiyalovchi: komunikativ ko‘nikmalarni shakllantiradi.

Muammoli vaziyatlar o‘quvchilarning mustaqil ishlarini takomillashtirishga asoslangan bo‘lib, ularda ilmiy tushunchalarni, amaliy ko‘nikmalar va malakalarni shakllantirish, boshqa materiallarni chuqur mantiqiy tahlil qilishga asoslangan. Muammoli dars o‘tishdan avval muammoli vaziyatlarni yaratish yo‘llarini yaxshi

bilish lozim. Bunda quyidagilarga e’tibor beriladi:

-aniq savol qo‘yasiz: umumlashtirishga, isbotlashga, aniq mantiqiy fikr yuritishga undovchi;

-o‘quvchilarga fikrlashga undovchi savollar berilib, uning yechimini mustaqil ravishda o‘zlariga topishni taklif etasiz;

-nazariy va amaliy topshiriqlar orqali o‘quvchilarni taqqoslashga, umumlashtirishga, xulosalar chiqarishga, berilgan faktlarni solishtirishga da’vat qilasiz;

-bir savolga turli nuqtai nazardan qarash lozimligini tushuntiriladi va berilgan javoblarni asoslashga undaysiz;

-o‘quvchilarga xodisani turli vaziyat orqali ko‘rib chiqishni taklif etasiz hamda amaliy ish jarayonida duch keladigan qarama-qarshiliklarni ma’lum qilasiz;

Shunday qilib muammo hech qanday tayyorgarliksiz, to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘yilmaydi. U butun darsdagi bosh masala sifatida bayon qilinadi. Qo‘yilgan muammolarning murakkabligi tabiiyki, o‘quvchilar saviyasiga mos bo‘lishi kerak. Tanishtiriladigan materiallar uncha katta bo‘lmasligi lozim. Materialni, xususan masala va topshiriqlarni o‘quvchilarning o‘zlari hal qila olsalargina, ularning muammolarni hal qilishga salohiyati ortadi.

Muammoli darslarda mavzuga oid beriladigan savollar shunday tuzilishi lozimki, o‘quvchi savolga javob berishda kamchiliklarni to‘ldirsin, noma’lumni aniqlasin, o‘xshashlik va farqini topsin, fikrini ifodalasin. Muammoli vaziyatni xosil qilish tadqiqot, evristik suhbatlar, namoyish etish, muammoli bayon qilish, reproduktiv metodlardan foydalangan holda tashkil etiladi. Tadqiqot metodida o‘quvchilarni izlanishga, o‘zlari uchun yangi muammoni hal qilishga yo‘naltiriladi va u quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Fakt va hodisalarni kuzatish va o‘rganish.
2. Tushunarsiz xodisalarni oydinlashtirish.
3. Gipotezani olg‘a surish.
4. Reja tuzish va uni amalga oshirish.
5. Yechimni topish va uni tekshirish.
6. Bu metoddan og‘zaki va matbuot so‘zlari, ko‘rsatmali vositalar, amaliy ishlar, yozma va grafik ishlar, labaratoriya mashg‘ulotlarida foydalaniladi.

Muammoli bayon etishning mohiyati o‘qituvchi muammoni qo‘yib, uni o‘zi xal qilishi va yechimning ahamiyatini o‘quvchilarga tushunarli ziddiyatlar orqali ko‘rsatishdan iborat.

Muammoli topshiriqlar o‘quvchilarning mustaqil bilim olishlarini kuchaytiradi, erkin va mustaqil fikrlashga o‘rgatadi.

Muammoli darsni tashkil etishning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari	O‘qituvchi faoliyati	O‘quvchi faoliyati
Tayyorlov bosqichi.	Darsni tashkil etish mazmunini, qo‘yiladigan muammoli vaziyatni hamda ushbu vaziyatning o‘quvchilar tomonidan hal qilinish yo‘llarini, ta’limiy, rivojlantiruvchi, tarbiyalovchi maqsadni, kutilayotgan natijani va baholash mezonini belgilaydi.	Dars maqsadini va belgilangan muammoni yozib oladilar.
Tashkil etish bosqichi, ya’ni muammo qo‘yish, da’vat bosqichi.	Dars maqsadini bayon qiladi, mavzuga oid muammoli vaziyat hosil qiladi (muammoli savollar qo‘yadi) o‘quvchilarga qo‘yilgan muammoni yechishga doir ko‘rsatmalar va yo‘llanmalar beradi va ish natijalarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi.	Muammoli vaziyat va muammo bayon etilgan materiallar bilan tanishadilar va uni hal qilish yo‘llarini o‘ylaydilar.
Mustaqil ishlash jarayoni muammoning yechimini topish. Anglash va fikrlash bosqichi.	Qo‘yilgan muammoni o‘quvchilarning to‘g‘ri tushunishlari, ularni muammoga yo‘llash maqsadida munozara va aqliy hujum, klaster, kubik, zigzag usullaridan foydalanadi va yakka, ikkita hamda guruh bilan ishlashlarini tashkil etadi. O‘quvchilarni faollashtirish maqsadida bir guruhdan ikkinchisiga o‘tish yo‘llarini amalga oshiradi.	O‘quvchilar berilgan muammolarni yakka tartibda, ikkita bo‘lib yoki guruhlarga bo‘lingan holda yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, tahlil qilib, eng qulaylarini topadilar bir fikrga keladilar.
Natijalarni taqdim etish.	Diqqat bilan tinglaydi. O‘quvchilarning fikrlarini, tushunchalarini aniqlashtiruvchi savollar beradi.	Natijalarni bayon qiladilar va boshqa guruhlar taklif qilgan natijalar bo‘yicha fikr yuritadilar va savollar berish orqali tushunchalarini mustahkamlaydi
Yakunlash va umumlashtirish bosqichi	Belgilangan muammoni yechish usul va yo‘nalishlarining eng asosiylarini ko‘rsatib, ko‘pchilik fikriga mos kelganlarini alohida ta’kidlaydi. O‘quvchilarning qanchalik muammolarni yechishdagi intilishlari, fikrlashlari va yechimini topishini inobatga olingan holda baholaydi.	O‘qituvchining xulosalarini tinglaydi, yozib oladi. Guruhlar bir-birlariga va o‘z-o‘zlariga baho qo‘yishlari ham mumkin.

Ma’lumki, o‘qitishning har qanday asosida inson faoliyatining muayyan qonuniyatlari, shaxs rivoji va ular negizida shakllangan pedagogik fanning tamoyillari va qoidalari yotadi. Insonning bilish faoliyati jarayoni mantiqiy bilish

ziddiyatlarini hal qilishda obektiv qonuniyatlari didaktik tamoyil – muammolilikka tayanadi.

O‘qitishning hozirgi jarayonitahlili psixolog va pedagoglarningfikrlash muammoli vaziyat, kutilmagan xayrat va mahliyo bo‘lishdan boshlanadi, degan xulosalari haqiqatga yaqin ekanligini ko‘rsatadi. O‘qitish sharoitida insonning o‘sha psixik, emotsional va hissiy holati unga fikrlash va aqliy izlanish uchun o‘ziga xos turtki vazifasini bajaradi.

Muammoli vaziyat muayyan pedagogik vositalarda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan o‘ziga xos o‘qitish sharoitida yuzaga keladi. Shuningdek, o‘rganilgan mavzular xususiyatlaridan kelib chiqib, bunday vaziyatlarni yaratishning maxsus usullarini ishlab chiqish zarur. Shunday qilib, o‘qitishda muammoli vaziyatshunchaki «fikr yo‘lidagi kutilmagan to‘siq» bilan bog’langan aqliy mashaqqat holati emas. U bilish maqsadlari maxsus taqozo qilgan aqliy taranglik holatidir. Bunday vaziyat negizida avval o‘zlashtirilgan bilim izlari va yangi yuzaga kelgan vazifani hal qilish uchun aqliy va amaliy harakat usullari yotadi. Bunda har qanday mashaqqat muammoli vaziyat bilan bog’liq bo‘la bermasligini ta’kidlash o‘rinli bo‘ladi. Yangi bilimlar avvalgi bilimlar bilan bog’lanmasa, aqliy mashaqqat muammoli bo‘lmaydi. Bunday mashaqqat aqliy izlanishni kafolatlamaydi. Muammoli vaziyat har qanday fikrlash mashaqqatlaridanfarq qilib, unda o‘quvchi mashaqqat talab qilgan obekt (tushuncha, fakt)ning unga avval va ayni vaqtda ma’lum bo‘lgan vazifa, masala bo‘yicha ichki, yashirin aloqalarini anglab yetadi.

Shunday qilib, muammoli vaziyat mohiyati shuki, u o‘quvchi tanish bo‘lgan ma’lumotlar va yangi faktlar, hodisalar (qaysiki, ularni tushunish va tushuntirish uchun avvalgi bilimlar kamlik qiladi) o‘rtasidagi ziddiyatdir. Bu ziddiyat bilimlarni ijodiy o‘zlashtirish uchun harakatlantiruvchi kuchdir.

Muammoli vaziyatning belgilari quyidagilar:

- o‘quvchiga notanish faktning mavjud bo‘lishi;
- vazifalarni bajarish uchun o‘quvchiga beriladigan ko‘rsatmalar, yuzaga kelgan bilish mashaqqatini hal qilishda ularning shaxsiy manfaatdorligi.

Muammoli vaziyatdan chiqa olish hamma vaqt muammoni, ya’ni nima noma’lum ekanligini, uning nutqiy ifodasi va yechimini anglash bilan bog’langan.

Muammoli vaziyatning fikriy tahlil qiladigan bo‘lsak, u avvalombor o‘quvchilarning mustaqil aqliy faoliyatidir. U o‘quvchini intellektual mashaqqat keltirib chiqargan sabablarni tushunishga, unga kirish, muammoni so‘z bilan ifodalash, ya’ni faol fikr yuritishni belgilashga olib keladi. Bu o‘rinda izchillik yorqin ko‘rinadi: avvalo muammoli vaziyatyuzaga keladi, so‘ng o‘quv muammosi shakllanadi.

O‘qitish amaliyotida boshqa variant – o‘sha muammo tashqi ko‘rinishda muammoli vaziyatyuzaga kelishiga muvofiq kelganday bo‘ladigan variant ham

uchraydi. Faktlar, hukmlar nazariy qoidalar ziddiyatlari mazmunidagi savollar ko‘rinishidagi muammoning ifodasi odatda «nimaga» savoliga javob bo‘ladigan muammoli vaziyatning mavjudligini aks ettiradi.

Shunday qilib, o‘quvchilar biladigan vazifa va uni mustaqil hal qilinish usuli o‘quv muammosi bo‘la olmaydi, ikkinchidan, biror vazifaning yechilish usullarini va uni izlash vositalarini bilishmasa ham o‘quv muammosi bo‘la olmaydi.

O‘quv muammosining muhim belgilari quyidagilar:

- yangi bilimlarni shakllantirishga olib keladigan noma’lumning qo‘yilishi;
- o‘quvchilarda noma’lumni topish yo‘lida izlanishni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan muayyan bilim zahirasining bo‘lishi.

O‘quv muammosini yechish jarayonida o‘quvchilar aqliy faoliyatining muhim bosqichi uning yechilish usulini o‘ylab topish yoki gipoteza qo‘yish hamda gipotezani asoslashdir.

O‘quv muammosi muammoli savollar bilan izchil rivojlantirib boriladi va bunda har bir savol uning hal qilinishida bir bosqich bo‘lib xizmat qiladi.

Muammoning tarkibiy qismlari, ma’lum va noma’lumning o‘zaro munosabati xarakteri bilimga bo‘lgan ehtiyojni keltirib chiqaradi va faol bilishga bo‘lgan izlanishga undaydi.

Ta’kidlash joizki, muammoli o‘qitishning zaruriy sharti o‘quvchilarda haqiqatni va uning natijasini izlash jarayoniga bo‘lgan ijobiy munosabatni vujudga keltirish hisoblanadi.

O‘quvchilarning muammoli o‘qitishdagi ijodiy va qidiruv bilish faoliyati muammoli vaziyat paydo qilinganda o‘quvchilar mashg’ulotda muammoni ifodalab berishdan iborat bo‘ladi, ya’ni bilishdagi qiyinchiliklarning paydo bo‘lishi mohiyatini (ya’ni ushbu damda unga nima ma’lum bo‘lsa) so‘z bilan ifodalab beradi, so‘ngra muammoning yechilish usullarini qidiradi va bunda turli tahminlarni olg’a suradi, o‘quvchilar haqiqiy deb topgan taxminlardan birini gipoteza sifatida asos qilib oladi va uni isbotlaydi, izlanish muammo yoki vazifa bajarilgandan so‘ng tugallanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘ofurov A.T. va boshqalar. Biologiyani o‘qitishning umumiy metodikasi. (O‘quv-metodik qo‘llanma). - T.: TDPU. 2005.

2. Tolipov O‘., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot.- T.: Fan, 2005. -205 b.

3. Tolipova J.O., Azimov I.T., Sultonova N.B. Biologiya darslari.(Oqituvchi kitobi) O‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma. (9-sinf) “Tafakkur” nashriyoti. Toshkent-2016.

REGULAR QORA TUYNUKLAR VA KVAZI DAVRIY TEBRANISHLAR

Jalolova Ziyodaxon Mahmudjon qizi
Urganch Davlat universiteti magistranti
Ilmiy ishi raxbari **J.Rayimboyev**
O'z RFA.k.i.x Astranomiya inisituti PhD.
https://doi.org/10.5281/zenodo.7264466

Annotatsiya: Mazkur maqolada muntazam qora tuynuklarning eng ichki barqaror dumaloq orbitalarda (ISCOs) radiusidagi zaryadi va 4D EGB tortishish kuchida oddiy Bardeen qora tuynukga tushadigan sinov zarralaridan energiyani chiqarish samaradorligi, shuningdek kvazi davriy tebranishlar (QPO) va Keplerian va garmonik tebranishlar, kabi asosiy chastotalar haqida qisqacha ma'lumotga ega bo'lasiz.

Insoniyat koinotni o'rganib,u haqidagi bilimlarini oshiraveradikan,inson bizning nazarimizga sig'mas darajada ulkan koinotning mitti bir zarrasi ekanligi va borliq oldida naqadar ojiz ekanligini anglab boraveradi.

Kalit so'zlar: qora tuynuk, energiyani chiqarish samaradorligi, garmonik, kvazi davriy tebranishlar.

XX-asrda fazoviy jismlar va koinotdagi hodisalarga doir ko'plab kashfiyotlar qilindi. Ulardan biri bu "Qora tuynuk" larning aniqlanishidir. O'zining butun energetik zaryadini sariflab bo'lgan yulduz o'z-o'zining ichiga qarab toraya boshlaydi. Mana shu siqilish natijasida yulduzning o'rnida zichligi cheksiz yuqori bo'lgan, massasi esa nolga yaqin qudratli gravitatsion maydon hosil bo'ladi. Mana shu maydon astranomiyada "qora tuynuk" deb ataladi.

Qora tuynuklarni eng qudratli teleskoplar bilan ham ko'rib bo'lmaydi. Chunki ular fotonlarni yutib yuboradi. Natijada inson ko'zi sezishi mumkin bo'lmagan yorug'likni ham yo'qotib yuboradi va ularni mutlaqo akslantirmaydi. Qora tuynuklarning avjudligini unung atrofidagi hosil bo'lgan g'oyatda kuchli magnit maydoniga qarab bilib olish mumkin. Olimlar so'ngi to'rt asrdan beri koinotdagi shu g'ayrioddiy jism haqida fikir yuritib, bu borada ba'zi kashfiyotlarni ham qilganlar. Ulkan massaga ega bo'lgan yulduzlar koinotda tortishish maydonlarini hosil qiladi. Qora tuynuklar o'zlariga yaqinlashgan barcha jism va moddalarni o'z qa'riga tortib ketadi va ularning hisobiga o'z zichligini uzliksiz ravishda orttirib boradi.

Natijada ularning tortishish kuchi ham kuchayib boraveradi. Bu jixatdan qaraganda, so'ngan yulduzlar o'rnida paydo bo'lgan va atrofidagi hamma narsalarni o'z domiga tortib ketadigan bunday qora nuqtalarni qora tuynukka o'xshatish

mumkin. Shu sababdan falakkiyot olimlari bunday yulduzlarni qora tuynuklar deb atashgan.

1994-yilda astrafizik olimlar Habbl teleskopi vositasida M 87 gallaktikasi markazida ko'zga ko'rinmas ulkan jism borligini aniqlashdi.

Olimlarning ta'kidlashicha, og'irligi Quyosh vaznidan 20 marta katta bo'lgan yulduzlar oxir-oqibat qora tuynukka aylanishi mumkin ekan. Bunga sabab ularning ulkan tortishish maydoni va yirik massaga ega ekanligidir. Lekin hajmi va massasi kichik bo'lgan yulduzlarning qora tuynukka aylanishi uchun yetarlich bosm bo'magani sababli ular qora tuynukka aylana olmas ekan.

Qora tuynuklar 1916-yilada Karl Schwarzschild tomonidan Eynshteyn tenglamalarining yechimi sifatida bashorat qilingan.

Qora tuynuklar esa bu katta gallaktikamiz orasida yuzlab yoki yuzmillionlab bo'lishi hamdir. Insonlar aniqlaganlari esa bor yo'g'i bir necha xolos. Qora tuynuk sirlari hozircha sirligicha qolmoqda. Chunki qora tuynukka borishni borishni hech ham iloji yo'q. Balki qora tuynuk vaqtlararo sayohatdir, balki insonlar sonini keltiruvchi bir vositadir. Bunisi esa bizga hozircha qorong'u.

Shunday bir fazo jismi borki u Quyoshimiz kabi yulduzlardan milyard marta yorqin va trillion marta katta va ko'p energiya ishlab chiqaradi. U o'z yo'lida uchragan nafaqat, sayyora va yulduzlarni balki butun boshli gallaktikani yo'q qila oladi. Ilim fanga ma'lum bo'lgan, eng yorug' bo'lgan, ushbu quyosh jismiga KVAZARLAR deb nom berilgan.

Kvazarlar nima? degan savolga mana bundek javob aytilgan. Insoniyat qadim zamonlardan dunyoni kuzatib borib, osmon jismlariga, koinotga qiziqish bildirib kelgan. So'ngi yuz yillikdan buyon insonlar imkoniyati kengroq teleskoplar yordamida osmon jisimlarini kuzatib o'rganib kelmoqda. Ammo kvazarlar o'tgan asrning 50-yillarida ham fan uchun mutloq noma'lum edi. Kvazarlar sayyoramizdan shu qadar olislardaki, osmonimizda xuddi yorqin yulduzlardek ko'rinadi. Shuning uchun uzoq vaqitgacha insoniyat, kvazarlarni oddiy yulduzlardan ajrata olmaganlar. Kvazarlar o'zlaridan o'ta katta miqdorda energiya va yorug'lik taratadi. Shu sababdan bizdan nixoyatda olisda joylashgan bo'lishiga qaramasdan, osmonimizda yorqin ko'rinishda, go'yoki bizga yaqin masofada joylashgan yulduzlardek nomoyon bo'ladi. Kvazar atamasi ham ingilizcha "quasi-steller" ya'ni yulduzga o'xshash so'zidan olingan.

O'tgan asrning 50-yillarida AQSH ning falakkiyotchi olimlari Alan Sendij va Tomas Matyuezlar DIVA yulduz turkimidagi yulduzlarni kuzatib borib, kvazarlar yulduz emas, aksincha yulduzlardanda milyardlab katta milyard marta yorug' bo'lgan fanga noma'lum bo'lgan fazo jismi ekanligini aniqlashdi. Kvazarlar nima ekanligi anchagacha jumboq bo'lib keldi.

1963-yilda Galland astranomi Martin Shmidt kvazarlar bizdan ancha olisda joulashganini, ularning ko'rinmas spektri qizil tusga o'tayotganini va ular bizdan katta tezlik bilan uzoqlashayotganini aniqlab beradi.

Keyinchalik fanga ma'lum bo'ldiki, kvazarlar Somon Yo'li gallaktikasidan tashqarida, bizdan nixoyatdagi olis gallaktika markazida joylashgan ekan.


Bugungi kun astrafizikasida kvazarlar paydo bo'lishi haqida bir qancha farazlarmavjud. Ularning ichida eng to'g'ri faraz, bu kvazarlarning paydo bo'lish qora tuynklar hisoblanadi.

Eynshteyn- Gauss-Bonnet (EGB) nazariyasi belgilagan D>4 o'lchovli fazoda va D. Lavelok teoremasi D= 4 o'lchovli fazoda umumiy munosabatni ta'kidlaydi, nolga teng bo'lmagan kosmologik doimiy tortishish haqidagi yagona nazariyadir. D.Lavelok teoremasi yaqinidagi 4D yechimini olish uchun yangi yondashuvni qabul qildi. Ushbu yondashuvda asosan qayta o'lchash Gauss- Bonnet (GB) termini 4D chegarasida 1/(D-4) omili bo'lgan.

Foton harakati va kvazinarmal rejimlar orqali tortishishning barqarorligi 4D EGB, tortishish Refda o'rganilgan. Qora tuynuk gravitatsion jixatdan beqaror agar a kichik bo'lmasa yetarli (0<a<0.15) salbiy a ning mavjudligi qora tuynuk eritmasiga imkon beradigan bo'lishi uchun, 4D EGB tortishish kattaroq qiymatlari uchun ham, barqaror (0> a> -2) ning elektr zaryadlangan qora tuynuk eritmasi 4D EGB tortishish, shu jumladan kosmologik constan ham Refda olingan.

4D EGB nazariyasida Bardeen muntazam ravishda qora tuynuklar zaryadlangan aniqlagan. Bundan tashqari sinovdagi zarralarning harakatini o'rgangan, va taxlil qilgan joyda samarali potensial energiya va burchak moment xususiyatlari, orbitadagi zarralarni kuzatgan. 4D EGB tortishish kuchi ega ekanligi aniqlagan, yuqorida aytib o'tilgan fizikaga oid bir xil miqdordagi harakatga ega, yaqin atrof- muxit parametrning turli qiymatlar uchun qora tuynukning a ya'ni a ning musbat qiymatlarining oshishi ularning minimal darajaga tushishiga olib kelishini, ularga minimal joylashgan masofa esa markaziy ob'yekt tomon siljishini kuzatgan. Shuningdek qora tuynukning eng ichki barqaror dumaloq orbitalarida (ISCOs) radiusidagi zaryadi va 4D EGB tortishish kuchida oddiy Bardeen qora tuynukga tushadigan sinov zarralaridan energiyani chiqish samaradorligini aniqlagan. Qora tuynuk atrofidagi yig'ish diskining energiya samaradorligini anglatadi. Eng yuqori maksima energiya markaziy qora tuynukga tushadigan moddadan nurlanish sifatida olinish mumkin. Sinov zarrasini to'planish samaradorligini quyidagi formula orqali hisoblash mumkin.

F= 1- E isco



Bu yerda E isco – ISCO dagi zarrachaning energiyasi tomonidan ta’sirlangan bog’lanish energiyasining nisbatidir. Energiya samaradorligining magnit parameter g ga bog’liqligi ko’rsatilgan. Yuqoridagi rasmda parametrning turli qiymatlar uchun chizmasi keltirilgan. Bunda qaramlikni ko’rishimiz mumkin, samaradorlik aqilni oshiradiva qora tuynukning ortishi, paramrtri esa a ning kamayishiga sabab bo’ladi. a ning kesishishi tufayli samaradorlikning maksimal qiymati haddan tashqari magni zaryadga egaligi, Doim a=-0 bo’lganda, 1 samaradorlikga yetadi va qiymati 16% gacha. Boshqa tomondan bizning raqamli taxlilimiz ushbu samaradorlikka ega.

Kerr qora tuynuk va BKBH spini o’rtasidagi degnaratsiya munosabatlari BKBH parametrlarining turli qiymatlari uchun ISCO radiusining bir xil qiymatini taminlaydi.

Fotonlarning dumaloq orbitalari uchun ta’sir parametri BKBH soyasining kengayishi qora tuynuk magnit zaryadining funksiyasi sifatida tasvirlangan Yuqoridagi rasmda ko’rinib turibdiki, c qiymatlari ortishi bilan ta’sir parametri ham, c kichikroq bo’lgan holatga nisbatan yuqori qiymatlarni oladi. c=0 uchun RN va BK qora tuynuk uchun ta’sir parametrlarining qiymatlari teng bo’ladi. Bundan tashqarI, Wq= -1/3 ning kattaroq qiymatlari uchun ta’sir paramaetri kichikroq bo’ladi, chunki Wq qiymatining pasayishi bilan Bc kattalashadi. E’tibor bering, qora tuynuk magnit zaryadining g qiymatlari ortishi bilan foton sferasi radiusi kamayadi. Sinov zarralarining haddan tashqari zaryadlangan BKBH qora tuynuk atrofidagi radial tebranish chastotasining radial bog’liqligi, haddan tashqari aylanadigan Kerr BH qora tuynuk holatidagi chastotani taqqoslashish ko’rinishi.

Ushbu maqolada yangi to’rt o’lchovli Eynshteyn –Gauss-Bonnet (4D EGB) nazariyasida oddiy Bardeen qora tuynBirinchidan, biz Gauss-Bonnet (GB) ulanish parametri bo’yicha Bardeen qora tuynugi atrofidagi fazoviy vaqtning xususiyatlarini tahlil qildik va qora tuynuk zaryadining qiymatlarining diapazoni va gorizant sifatida mavjud bo’lgan a parametrlarini o’rgandik. Muntazam qora tuynuklarning eng ichki

barqaror dumaloq orbitalarida (ISCOs) radiusdagi zaryadi va 4D EGB tortishish kuchida oddiy Bardeen qora tuynukga tushadigan sinov zarralaridan energiyani chiqarish samaradorligini, bundan tashqari, Keplerian va garmonik tebranishlar kabi asaosiy chastotalar, shunungdek kvazi davriy tebranshlar (QPO) ilovalari bilan tanishdik. Bundan tashqari kvazarlar va qora tuynuk atrofida harakatlanayotgan jismlarning ajralib chiqarayotgan energiyasi haqida qisqacha ma’lumotga ega bo’ldik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.G. D Karssen, M.Bursa, A.Eckart, M.Valensiya- S, M.Dovcik, V.Karas va J. Hoak, dus, R. Astron. Soc. 472 (2017) 4422, arXiv : 1709.09896 [astro-ph. GA].

2.C. Nemisa, fizika. Rev.D 96 (2017) 103015, arXiv: 1711.01626 [astro-ph.HE].

3.A. Ingram va S. Done, Mon. R.Astron. Soc 405 (2010) 2447, arXiv: 0907.5485 [astro- ph. SR].

4.J. Rayimboyev, A. Abdujabborov va H. Ven-Biao, fizika. Rev. D 103 (2021) 104070.

5.https:/ /ui. adsabs. harvard. edu /abs / 2021 Galax…9…75R/ /abstract.

6.https: / /ui. adsabs. harvard.. edu /abs/ 2021 Galax…9…71R/ abstract.

7.J. Bardin, Proc. GR5, C. DeWitt va B. DeWitt (taxrirlar) (Gordon va Breakh, 1968),b 174.

DINIY QARASHLARNING RIVOJLANISHIDA DEHQONCHILIKNING O`RNI

Fayziyev Abdusamad Abduxoliq o`g`li
Termiz davlat universiteti tarix fakulteti 2-kurs magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.7264468

Ilk sivilizatsiyalarda Diniy e’tiqodlarning shakllanishi va rivojlanishi bevosita dehqonchilik bilan bog’liq hisoblanadi. Dehqonchilikning o`rni va roli beqiyos hisoblanadi. Shunisi e'tiborga loyiqki, qishloq xo'jaligining kelib chiqishi va xudolar o'rtasidagi bog'liqlik haqidagi bu nuqtai nazar qadimgi sivilizatsiyalar kelib chiqishining barcha ma'lum hududlarida mutlaqo hukmronlik qiladi. Har bir sivilizatsiya vakillari o’zlarida mavjud bo’lgan oziq mahsulotlarini o’zlarining xudolari tuhfasi sifatida qabul qilishgan va bu uchun doimiy ravishda xudolar uchun qurbonliklar keltirishgan. Masalan:

- ❖ Buyuk xudo Quetzalcoat Meksikaga makkajo'xori olib keldi.
- ❖ Peru And tog'laridagi odamlarga Virakocha xudosi qishloq xo'jaligini o'rgatgan.
- ❖ Osiris dehqonchilik madaniyatini Efiopiya (ya’ni Habashiston) va Misr xalqlariga berdi.
- ❖ Shumerlarni qishloq xo‘jaligi bilan osmondan tushib, ularga bug‘doy va arpa urug‘larini olib kelgan xudolar Enki va Enlil olib kirishgan.
- ❖ Xitoyliklarga qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda “Samoviy daholar” yordam bergan.
- ❖ Tibetga esa "Donolik lordlari" ilgari Yerda noma'lum bo'lgan mevalar va don ekinlarini olib kelishdi.

Hindistonda Sanskrit tilidagi moy va kunjut so‘zlari bir xil bo‘lishi kunjut o‘stiriladigan birinchi moyli o‘simliklardan biri bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi (Sampson 1936). Bu so‘zlar (’tíla’, ’jartíla’, ’tilpínja’, ’tilapíñjí’) miloddan avvalgi Vedik matnlarida uchraydi. Tila eng qadimgi davrlardan beri diniy marosimlarda ishlatilgan. U avliyo deb hisoblangan (Xopkins, 1968) va til urug‘larini taklif qilish gunohlarni yo‘q qilishning samarali vositasi hisoblangan. Aytishlaricha, suv va kunjut qurbonligi odamni ota-bobolarining barcha qarzlaridan xalos qiladi degan aqida ham bo’lgan.

Qadimgi Sharq manbalari ko‘rsatmoqdaki, don - o‘lim va tirilishning ramzi hisoblangan. U pishib, o‘lib, yerga tushib, singib, o‘sib chiqib, barglar va boshoqlar chiqaradi. Ibtidoiy insonlar mifologiyasida don timsolida “o‘lim ustidan o‘ziga xos g‘alaba va matonat” yaratilgan. Inson bug‘doy siklogenezida o‘z taqdirini – o‘lish, o‘zidan zurriyot qoldirish, dondan paydo bo‘lgan bug‘doy boshog‘i kabi farzandlari timsolida yashash falsafasini kashf etgan ko‘rinadi.

Albatta, paleolitda ham bu g‘oya bo‘lgan, fikrimizcha u davrlarda kuchli hayvonlar yaratuvchanlik tushunchasini anglatgan, ammo ular o‘lim va tirilishga oid ramziy ma’no kasb etmasdan, faqat o‘limdan oldingi hayot uchun mavjud bo‘lgan, don esa to‘liq anastatik ma’noni ifodalay olgan.

Shunday qilib, diniy tasavvurlar o‘simliklar dunyosi hayotidagi ritm, ya’ni tug‘ilish (ko‘karish), o‘lish (qurish) va qayta tug‘ilish sirlarini o‘rganishdan hosil bo‘lgan. Shuning uchun biz donni yanchish va saqlash bilan bog‘liq ob’ektlarni o‘simliklarni madaniylashtirishdan oldingi davrlarga xos yodgorliklarda, aynan muqaddas nuqtalarda uchratamiz.

Ayol naslni erkakdan olganidek, yer ham urug‘ni sepuvchidan oladi. “Qabr – yerning qorni” timsolida tushunilgan, marhum ham yangi hayotning urug‘i, ibtido esa uning ekuvchisi sanalgan. M. Dunantga ko‘ra, marhum jasadini don saqlaydigan idishlarga joylashtirishdan maqsad marhumlarning qayta tirilishiga ishonch e’tiqodidir.

Ta’kidlanganidek, bug‘doy ko‘plab xalqlar e’tiqodida o‘ziga xos ahamiyat kasb etgan. Ayniqsa, O‘rta Osiyo aholisining ijtimoiy hayotida bug‘doy va undan tayyorlanadigan mahsulotlar bilan bog‘liq qadimgi e’tiqodiy tasavvurlarning izlari saqlanib qolgan. O‘rta Osiyoda bug‘doyning muqaddaslashtirilishi zardushtiylik dinida o‘zining yorqin ifodasini topgan. Bug‘doy boshqa dinlarga nisbatan zardushtiylikda ko‘proq diniy ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Zardushtiylikda bug‘doy nafaqat yerni alqab poklovchi, balki yovuzlik timsoli bo‘lgan dayevalarga qarshi kurashni vositasi ham hisoblangan. Bu haqda “Avesta”ning “Videvdat” qismida alohida alqovlar bitilgan.

Dayevalarga qarshi kurash zardushtiylikning asosiy mazmunini tashkil etishi hisobga olinsa, bug‘doyning nechog‘lik muqaddasligi, hattoki yovuzlikdan saqlovchi qurol ekanligini anglash mumkin. Bug‘doy “Videvdat”da ko‘p bora tilga olinsada, “Avesta”ning qadimgi qismlarida deyarli uchramaydi. Nega aynan bug‘doy devlarga qarshi kurash vositasiga aylangan degan savolga ham aynan mazkur muqaddas kitobdan javob topishimiz mumkin.

Avestada bug‘doy “gantuma”, Rigvedada “godhūma”, nomi bilan tilga olinib, hindiariy tilidagi “ga/ondh” kelib chiqqan. Bu nom deyarli barcha hindieroniylar tillarda qisman dialektik o‘zgarishlar bilan saqlanib qolgan. Bug‘doy so‘g‘d tilida “γntm”, “γandum”, qadimgi xorazm tilida “γnd(y)m” shaklida uchraydi. Biroq lingvistlar Avestadagi bug‘doy so‘zining etimologiyasi haqida aniq bir xulosaga kelishmagan. O‘rta Osiyoning sharqiy eroniy tilida so‘zlovchi ba’zi aholisi bug‘doyni žindam, žandam deb ham atashini hisobga olib, bu so‘zlar eroniy tillardagi “zinda - tirik” so‘zi bilan aloqadorligini taxmin qilish mumkin. Bu ehtimolning asoslari tadqiqot davomida o‘z aksini topgan.

Avestaning dastlabki qismlarida bug‘doy, don ekilgan dalalar juda kam tilga olinadi. Yasna 42.2; Yetti kichik yashtning 3 va 8-bandlari; Yetti Buyuk yashtning 44-bandlarida yazadlarga bag‘ishlangan alqovlarda najotbaxsh bug‘doy dalalari olqishlangan. “Zamyad-yasht”da tog‘larni ulug‘lovchi matnda “qurbonlik noni”, “ehson noni” iboralari alohida ahamiyatga ega. Ushbu bandning tarjimasiga oid sharhlarda A.Mahkam va I.M.Steblin-Komenskiylar bu iborani “dron” (Avesta. draonah) deb izohlashgan.

“Yer sha’niga aytilgan so‘zlar” deya ataluvchi, “Videvdat”ning 3-fragardi dehqonchilikni ibodatga tenglashtiradi. Ushbu fragardda eng baxtiyor yer sifatida Ahura Mazda don (bug‘doy) ekiladigan yerlarni ta’riflaydi (Videvdat III.4.), ishlov berilmagan yer baxtsiz, umr yo‘ldoshini kutayotgan barkamol qizga o‘xshatilgan (Videvdat III.24.), qo‘riq yerlarni o‘zlashtirib, unga don ekkan kishi pokiza qizni baxtiyor etgandek savobga ega bo‘lib, oilasiga farvonlik taqdim etgan (Videvdat III.25.). Yer mehnatkash dehqonga rizq-ro‘z va’da etgan (Videvdat III.26-27.), aksincha g‘ayratsiz kishilarni esa yerdan foydalanmaslik xor-zorlikka olib borishi bilan ogohlantirgan (Videvdat III.28-29.). Yerga ishlov berish va don sepish Mazda dinining manbai, qudrati sifatida yuzlab sajda, minglab ta’zim, o‘n minglab qurbonliklarga teng deb bilingan, don ekish guyo Ashah (Haqiqatni), imon urug‘ini ekishdir, har bir sepilgan don duo sanalib, Mazda Yasna dinini yuzlab qishloqlarga, minglab qo‘rg‘onlarga yoyish savobiga ega bo‘lgan (Videvdat III.29-30.). Yerga don sepilsa daevalarni ter bosib, o‘rnidan qo‘zg‘aladi, don unib chiqqanda kuchsizlanib titray boshlaydi, don yanchilib un qilinganda esa yanada uv solib faryod chekadilar, xamir qorilganda esa og‘zi kuyib shataloq otib qochadilar, undan non tayorlanishi bilan daevalar halok etilgan. Bug‘doyning xirmonga uyilishi daevalarning halokatiga olib keladi deb sanalgan. Bug‘doy bosh chiqargan xonadondan daevalar uzoqlashgan va boshqa yaqinlashmagan. Xonadonda bug‘doy omborining borligi daevalarni qizdirilgan temir bilan kishanlash deb tushunilgan (Videvdat III.31-32.). Shuning uchun ham O‘rta Osiyo xalqlarida odatda “uying bug‘doyga to‘lgur” degan duo ishlatiladi.

Uylarning kirish qismida bug‘doy boshoqlari dastasini ilib qo‘yiladi, maqsad yovuz nazardan saqlash hisoblanadi, bu odatning negizlari ham g‘azab va hasad daevasi Aeshmaga qarshi kurashga borib taqaladi. Hatto hozirga qadar O‘rta Osiyo musulmon aholisi marhumni janozasini o‘qishdan oldin uning yoshini hisoblab, yoshiga mos ravishda bug‘doy miqdori bilan sadaqa berish odati mavjud. Shuningdek marhumning qabri ustiga bug‘doy sepishdan maqsad ham uni o‘lim daevasi Nasudan himoya qilish bo‘lishi mumkin.

Videvdatning 5 fragardiga ko‘ra homilasi tushgan yoki nobud bo‘lgan ayolning vujudiga Nasu – o‘lim daevasi kirgan hisoblangan, bu ayolning vujudidan daevalarni haydash uchun ayol kishi alohida saqlanib unga navbatdagi tabiiy poklanishi uchun

uch, yo olti, yo to‘qqiz jom kul aralashtirilgan kumiz ichmog‘i kerak hisoblangan. Shundan keyingina ayol biyaning, sigirning, qo‘yning echkining qaynatilgan sutini qaymoq qo‘shib yoki qaymoq qo‘shmay ichishlari mumkin, so‘ngra oftobda toblab dudlangan go‘sht yeyishlari, quruq lekin yanchilmagan don yeyishlari, suv qo‘shib yumshatilgan may ichishlari mumkin (Videvdat V.50-54.).

Zardushtiylar uchun Nasu kirgan mayit vujudiga tekkan kishini poklash nihoyatda muhim hisoblangan, buni bajaruvchi ashavan (kohin) mazdayasnani mukamal bilishi lozim bo‘lgan, aks holda soxta ashavanning kasofati tufayli Nasu daevasi inson vujudida qudratga to‘ladi. Shundan so‘ng bu zamindan osoyishtalik, farovonlik, tandurustlik, darmon barakot va afzunlik, bug‘doy va giyohlarning unumdorlik hamda hosili yo‘q bo‘ladi. Toki soxta ashavan jazolanib, qatl etilmaguncha hayot o‘z o‘rniga qaytmaydi (Videvdat IX.51-57.). Avestada yalqovlik, dangasalik daevalarga xos illat sifatida talqin etilgan, shu nuqtai nazardan mehnat ibodat darajasiga ko‘tarilgan. Shuning uchun ham mayit tanasiga tekkan odamni Nasu nafasidan saqlash muhim sanalgan.

Avestada yer tirik jonli mavjudot sifatida talqin etilgan, jamiyatda yuz bergan ma’naviy illatlar yerga ta’sir ko‘rsatadi deb tushunilgan. Jumladan zardushtiylar uchun muqaddas sanalgan it kabi mavjudotlarni o‘ldirish qurg‘oqchilikka olib kelishi oqibatida obod yerni qutu baraka tark etadi, sog‘liq, bardamlik bu manzildan ketadi. Bu yer gullab yashnamaydi, ne’matlari ko‘paymaydi. U yerdan maysalar o‘sib chiqmaydi, don unda yetishmaydi, o‘tloqdar bo‘lmaydi. Faqatgina gunohkor jazolansa – qatl etilsagina avvalgi farovonlik qaytadi deyiladi (Videvdat XIII.50-56.).

Videvdatda kemiruvchilarga salbiy munosabatda bo‘lishga sababni ifodalovchi muhim bir jihat bayon tilgan. Suv itini o‘ldirgan odam tavbasi qabul bo‘lishi uchun qilishi lozim bo‘lgan ishlardan biri sifatida donni tashib ketuvchi mingta katta chumolini o‘ldirishi kerak bo‘lgan(Videvdat XIV.5) [37]. Chumolilarni o‘ldirishni fors maglari ulkan savob deb bilishganini Gerodot ham ta’kidlab o‘tgan [38]. Ya’ni kemiruvchilar aynan bug‘doyga zarar yetkazgani uchun ham ular Ahriman xizmatida hisoblangan.

Videvdatda oy ko‘rgan ayolga taom berish qoidalarida ham nonga alohida e’tibor qaratilgan. Jumladan, bunday ayolga taom beruvchi kishi uch qadam kam yaqinlashmasdan ikki dinor miqdorida non, bir dinor miqdorida taom berishi lozim bo‘lgan (Videvdat XVI.5-7.). Bu o‘rinda oy ko‘rgan a’zoyi badanida, vujudida Axriman yaratgan nopok xrafstralar – devlar, jinlar, turli zararli hashoratlar bo‘ladi degan fikr mavjud bo‘lgan. Biroq, bu o‘rinda non (don, bug‘doy) poklovchi vosita sifatidami? Yoki shunchaki yemish sifatida berilayotgani aniq emas. Avestaning keyingi matnlarida ham bug‘doy, don ekilgan maydonlar (Videvdat XIX.26), bug‘doy rizq-nasiba (Vishtasp Yasht 6; 36.) sifatida tilga olingan.

ИРОНИЯ В АНГЛИЙСКОЙ И РУССКОЙ КУЛЬТУРАХ

Файзуллаева Зулайхо
Андижанский Государственный Университет Пед.Институт
https://doi.org/10.5281/zenodo.7264472

Аннотация: Статья посвящена иронии как многостороннему феномену, который является предметом изучения многих сфер: истории, философии, культуры, литературы, языкознания и др. Анализируются различные взгляды на производство и интерпретацию иронии, а также ее развитие в истории. Ирония рассматривается как явление историко-культурное, а также языковое.
Ключевые слова: ирония, irony, интерпретация иронии
Annotation:The article focuses on irony as a multilateral phenomenon, which is the subject of many spheres: history, philosophy, culture, literature, linguistics etc. Different views on irony's production and interpretation, as well as its development in history, are analyzed. Irony is viewed as a historic and cultural phenomenon, as well as a linguistic one.
Key words: ирония, irony, interpretation of irony

Ирония - явление многостороннее и многоликое. Она является предметом изучения философов, литературоведов, лингвистов. Существует даже термин «иронология», как сфера науки, изучающая иронию. Классифицируя виды иронии, исследователи выделяют Сократову иронию, драматическую иронию, ситуативную иронию (иронию судьбы), а также вербальную.

Ирония традиционно рассматривается как категория комического. Проблемой комического и его типов издавна занималось в основном литературоведение. По мнению исследователей, недооценка иронии как художественной формы критического освоения действительности берет свое начало «в неопределенном статусе иронии прежде всего в системе эстетической категории комического». Иронию предлагается рассматривать как философско-эстетическую категорию, как феномен культуры, ирония рассматривается с точки зрения антропоцентрического подхода, а также как ментальное и лингво культурное образование. Юмор, частью которого является ирония, находит свое отражение в образе жизни народа, его культуре и языке. Многие исследователи определяют юмор как способ коммуникации, и как вид воздействия на собеседника. Знать и понимать механизмы функционирования юмора и иронии необходимо для обеспечения эффективной межкультурной коммуникации.

Термином «ирония» сегодня обозначаются разнообразные явления, которые объединяет идея несовпадения ожидаемого и реального положения вещей. Исследователи указывают на расхождение объективных свойств предмета и его нормы, имеющейся в нашем сознании, как на основную предпосылку комического. Иронию также определяют как намеренную передачу неискренности по отношению к иллокутивному акту.

Поскольку в интерпретации иронии большое значение имеет анализ просодического оформления высказывания, в частности, таких важных просодических параметров, как громкость, высота тона, паузы, при анализе материала принимать во внимание такой ключевой фонетический параметр, как тембр голоса, «лежащий в основе создания смысловых оттенков и служащий своего рода слуховым фоном, на котором происходит взаимодействие других элементов просодического выражения».

Существует несколько способов актуализации косвенного адресата в речи участников: отождествление прямого и косвенного адресата; самоидентификация адресанта с косвенным адресатом; использование прямого адресата как посредника. Роль косвенного адресата в данном случае очень важна, поскольку ведущий и гость апеллируют к аудитории, именно ее реакция служит индикатором достижения целей коммуникации. В данном случае мы солидарны с М.Р. Радовелем, предлагающим расширить понятие «диалог» и рассматривать «реальные диалоговые ситуации в составе сложных многоярусных коммуникативно-диалоговых конструкций..., где участниками взаимодействия могут быть индивиды (отдельные личности), коллективные, групповые субъектыи социальные институты». В контексте более широкого понимания диалога материал был проанализирован с разных сторон: с позиции говорящего, с позиции адресата (который проявлял определенную реакцию на иронию, выраженную адресантом) и с точки зрения косвенного участника - зрительской аудитории, одобрение или неодобрение которой четко прослеживалось в диалоге.

Лексико-семантические особенности слов "irony" и «ирония» в английском и русском языках находят отражение на функциональном уровне; функционально-прагматические особенности иронии и разная степень ее частотности в сопоставляемых лингвокультурах сказываются на английском и русском стилях коммуникации.

Ирония давно является предметом изучения лингвистов, философов, культурологов, социологов. Подходы к ее изучению отличаются многообразием и разно плановостью. Ирония рассматривается в философско-эстетическом, литературном, лингвистическом аспектах. Лингвисты различают риторико-стилистический, структуральный и прагматический подход,

последний из которых рассматривает иронию в аспекте теории речевой деятельности, в аспекте речевых актов, максим и принципа кооперации.

Важным вопросом в изучении иронии является следующий: принадлежит ли ирония языку или это - самостоятельная категория? Некоторые исследователи решают вопрос о сложных взаимоотношениях иронии и языка в пользу исключения иронии из системы языка и придания ей статуса особого канала передачи информации, нуждающегося в специфических условиях и пользующегося языковым кодом в качестве одной из возможностей означивания. Данная точка зрения обосновывается тем, что ирония функционирует в специфической ситуации с опорой на когнитивные структуры участников и, не являясь единицей системы языка, реализуется преимущественно с использованием языкового кода. Сигналом иронии для рецепиента является контекстуальная неуместность сообщаемого. Подобный подход представляется не вполне правомерным, поскольку иронию, на наш взгляд, следует воспринимать не как фрагмент объективного мира в виде иронической ситуации, а как языковое явление. Ирония и язык неразрывно связаны, ирония выражается языковыми средствами.

Список используемой литературы:

1. Алиференко Н. Ф. Современные проблемы науки о языке: учебн. пособие/Н.Ф. Алиференко. - 2-е изд. - М.:Флинта: Наука, 2009. - 416 с.

2. Английский национальный характер. Сборник статей и извлечений из работ об английском языке и культуре (на английском и русском языках) Составитель М. М. Филиппова: Пособие для студентов гуманитарных вузов. Вып. 2. - М.: Издательский дом «Городец», 2009. - 224 с.

3.Гудков Д.Б. Теория и практика межкультурной коммуни-кации. - М.: ИТДГК «Гнозис», 2003.

4. Дырин А.И. Ирония и сарказм как речеязыковые средства отражения морально-этических ценностей британского социума (на материале произведений современной художественной британской литературы) Автореф. дисс... канд. филол. наук, М., 2012. - 19 с.

3- SINF MATEMATIKA DARSLARIDA FAKULTATIV MASHG'ULOTLARNI O'TKAZISH METODIKASI

Norkulova Dilorom Oybekovna
BuxDU Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7264474

Annotatsiya: Ushbu maqolada 3-sinf matematika darslarida fakultativ mashg'ulotlarni o'tkazish metodikasi haqida fikr yuritiladi. Buning uchun 3-sinf matematika kursi mavzulari asos qilib olinadi.

Kalit so'zlar: fakultativ mashg'ulot, kasr, yuza, rim raqamlari, to'rt xonali sonlarni raqamlash, yozma ko'paytirish, o'nli kasr, vaqt.

Ma'lumki,boshlang'ich sinf matematika kursida boshqa fanlar singari 1-2-sinfda bilimlar amaliy jihatdan va soddaroq ma'lumotlarga asoslangan holda beriladi. 3- sinfga kelib esa, bu bilimlar uzviy ravishda to'ldirilib, murakkablashtirilib boriladi. O'quvchilar uchun esa bu jarayon ko'p hollarda qiyinchilik tug'diradi. Ayniqsa, 3-sinfda o'tiladigan quyidagi mavzular o'quvchilarda yangi tushunchalar bo'lganligi uchun ham o'zlashtirish jarayonida muammoli vaziyatlar yuzaga keladi.

- To'rt xonali sonlarni raqamlash;
- Rim raqamlari;
- Natijasi 10 000 ichida yozma ko'paytirish;
- Kasr tushunchasi;
- O'nli kasrlar;
- Yuza o'lchov birliklari;
- Vaqt o'lchov birliklari;

Bu kabi mavzularni o'rgatish uchun yangi mavzu bayoniga ajratilgan 20-25 daqiqa kamlik qilishi mumkin. Chunki barcha o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari birdek emas. Dars uchun ajratilgan 45 daqiqa vaqt esa har bir o'quvchi bilan ishlash imkonini cheklab qo'yadi. Darsdan tashqari mashg'ulotlar davomida xuddi shunday masalalarni hal etish ko'zda tutiladi. 3- sinf matematika darslarida fakultativ mashg'ulotlarni tashkil etish bunday muammoli vaziyatlarning oldini olish va ularni hal etishda yordam beradi.

Fakultativ mashg‘ulotlar darsdan tashqari jarayonda o‘tkazilib, dars davomida o‘tiladigan mavzular bilan bog‘liq holda, bu mavzularni mantiqiy jihatdan to‘ldirib borishi kerak. Fakultativ mashg‘ulotlar jarayonida foydalaniladigan materiallar darslikdan tashqari va darslikdagi materiallarni mazmunan davom ettira olishi, bu bilan o‘quvchida o‘rganayotgan tushunchasiga nisbatan malaka hosil qilish vazifasini bajarishi kerak. 3-sinf matematika darslarida fakultativ mashg‘ulotlarni tashkil etish

jarayonida o’quvchilar uchun tushunish qiyin bo’lgan mavzular boshqa usullar bilan tushuntiriladi, bo’sh o’zlashtiruvchi o’quvchilar bilan ishlanib,ularni a’lochi o’quvchilar darajasiga olib chiqish masalasi hal etiladi, darslikdan tashqari topshiriqlar o’quvchilar bilan birgalikda ishlanib, o’rganilayotgan tushunchalarga oid malakalar hosil etiladi. 3- sinf matematika kursidagi bu mavzularda o‘quvchilar duch kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklar va fakultativ mashg’ulotlarni tashkil etish jarayonida foydalanish mumkin bo‘lgan topshiriqlar quyidagilar :

✓ To’rt xonali sonlarni raqamlash va shu mavzu bilan uzviy bog’liq mavzularda o‘quvchilar xona birliklarini ajratishga va to‘rt xonali son aytilganda xona birliklariga raqamlarni joylashtirishga qiynalishadi. Ayniqsa, to‘rt xonali sonning xona birliklari orasida nol raqami qatnashgan bo‘lsa, bu kabi sonlarni yozishda to‘rt xonali sonni uch xonali son ko‘rinishida yozish hollari ham kuzatiladi. Bu jarayonda o‘qituvchi fakultativ mashg‘ulot uyishtirishi va yuqoridagi kabi muammolarni bartaraf etishga e‘tibor qaratishi lozim. Harflar kassasiga o‘xshash raqamlar kassasi tayyorlab, kassaning ustiga minglik, yuzlik, o‘nlik, birlik tarzida barcha xonalarning nomlanishini yozib chiqishi va har bir o‘quvchi bilan birgalikda aytilgan sonlarni shu kassada aks ettirish mashqini o‘tkazishi kerak. O‘qituvchi tomonidan aytilgan sonni o‘quvchi kassaga joylash orqali sonlarni raqamlashni yanada yaxshi anglaydi. Masalan: to‘rt ming olti yuz yigirma besh - to‘rt raqamidan keyin ming so‘zi ishtirok etdi, demak, bu sonni mingliklar xonasiga, olti raqamidan keyin yuz so‘zi ishtirok etdi, bunisini yuzliklar xonasiga, yigirma, bilamizki, o‘nliklar xonasida turadi, besh raqamini esa birliklar xonasiga joylaymiz. Shu tariqa o‘quvchi bilan xona birliklarini o‘rganish uchun mashg‘ulot olib boriladi. Mashg‘ulot davomida quyidagi kabi masalalardan foydalanish mumkin:

Ikki guruh sayyoh poyezdda sayohatga jo’nashdi. Birinchi guruh sayyohlari birinchi poyezdning 40 ta kobinasiga 4 tadan bo’lib joylashishdi. Ikkinchi guruh sayyohlari ikkinchi poyezdning kobinalariga 4 tadan joylashishdi. Ikkinchi guruh joylashgan kobinalar soni birinchi guruh joylashgan kobinalar sonidan 5 ta kam bo’lsa, ikkala guruhda nechta sayyoh bor?

I guruh – 4 tadan – 40ta kobinada

II guruh – 4 tadan – ?, 5 ta kam kobinada

Ikkala guruhda - ? ta sayyoh

Yechish: 1) 4*40= 160 ta (I guruh sayyohlari)

2) 40- 5 = 35 ta (II guruh kobinalari)

3) 35* 4= 140 ta (IIguruh sayyohlari)

4) 160+140= 300 ta (ikkala guruh sayyohlari)

Javob: Ikkala guruhda 300 ta sayyoh bor.

✓ Natijasi 10 000 ichida yozma ko’paytirish mavzusida o‘quvchi bu kabi ko‘p xonali sonlarni raqamlashga qiynalgani singari 10 000 ichida yozma

ko‘paytirishga ham qiynaladi. Dars davomida barcha o‘quvchilar bilan shug‘ullanish uchun vaqt yetmasligi tufayli fakultativ mashg‘ulot jarayonida ham tushuntirish ishlarini davom ettirish yaxshi samara beradi. Tushuntirish jarayoni sonni ko‘paytirish jarayonida xona birliklarining ostma-ost yozilishi tushuntirilib ba‘zi xususiy hollar ham o‘rgatib boriladi. Masalan uch, to‘rt, besh xonali sonlarni bir xonali songa ko‘paytirishda ko‘paytirishning og‘zaki usuli singari hisoblash. Bunda ko‘p xonali son xona qo‘shiluvchilari yig‘indisi ko‘rinishida yoziladi va har bir xona qo‘shiluvchisi bir xonali ikkinchi ko‘paytuvchiga ko‘paytirib, yuzaga kelgan natijalar qo‘shiladi. 4235× 5= (4000+200+30+5) × 5=4000 × 5 + 200 × 5 + 30 × 5 + 5 × 5 = 20000+1000+150+25=21175 Fakultativ mashg‘ulot davomida quyidagi kabi tenglamalardan ham foydalanish mumkin:

850 + 720 = x : 3

1570 = x : 3

x = 1570 * 3

x = 4710

✓ Kasr tushunchasi va shu tushuncha bilan bog’liq mavzularda o‘quvchilar dastavval kasr va ulush tushunchasini farqlashga, keyinchalik esa ular ustida amallar bajarishga qiynalishadi. Fakultativ mashg‘ulot jarayonlari esa bunday qiyinchiliklarning oldini olib o‘quvchilarda hosil bo‘lgan savollarga javob berishga va tushunchalarni bir-biridan farqlashga imkon yaratadi. Mashg‘ulot davomida ulush kasrning xususiy holi ekanligi, bir necha teng qismga ajratilgan obyektdan faqat bittasi olinganini ifodalashi, kasr tushunchasi esa teng bo‘laklarga ajratilgan obyektdan bir necha bo‘lakning olinganini ifodalay olishi tushuntirib o‘tiladi.

Kasrlarni taqqoslashda maxraji bir xil kasrlarlarning surati kattasi katta bo‘lishi, surati kichigi esa kichik bo‘lishi, kasrlarni qo‘shish va ayirishda faqatgina suratlari qo‘shib- ayirilishi maxrajlari esa o‘zgarishsiz qolishi turli misollar yordamida qayta tushuntiriladi, mustahkamlanadi. Bu kabi mavzular yuzasidan fakultativ mashg‘ulot o‘tkazish jarayonida quyidagi kabi masalalardan foydalanish ham yaxshi samara beradi:

Nonvoyxonada 100 ta non yopildi. Bu hamma buyurtmaning 2/4 qismiga teng bo’lsa, jami nechta non buyurtma qilingan?

Buyurtma- ? ta non

Yopildi – 100 ta non– 2/4 qismi

Yechish : 100*4 :2=200 (ta)

Javob: Nonvoyxonaga jami 200 ta non buyurtma qilingan.

✓ O’nli kasr mavzusida o‘quvchilar o‘nli kasrning mohiyatini anglashlari murakkablikka sabab bo‘ladi. Bu jarayonda o‘qituvchi fakultativ mashg‘ulotlarni o‘tkazish davomida o‘lchov birliklaridan foydalanib tushuntirishi maqsadga muvofiq. Masalan: 1 cm = 10 mm ekanligi o‘quvchilarga ma‘lum. Agar 1 millimetrni

santimetrda ifodalamoqchi bo‘lsak qanday yo‘l tutamiz? degan muammoli savollarni o‘quvchilar oldiga qo‘yib, tushunchani anglashlariga zamin hozirlash mumkin. 1 millimetrimiz santimetrni hosil qilishi uchun bunday millimetrlardan 10 ta kerak bo‘ladi. Demak, 1 millimetrimiz 1 santimetrning o‘ndan bir qismini ifodalar ekan.

1mm=0.1 cm

Mashg‘ulot davomida quyidagi kabi topshiriqlardan foydalanish yaxshi samaraga ega:

Oddiy kasr ko’rinishida yozing.

a) surati 5, maxraji 6 c) maxraji 10, surati 8

b) surati 2, maxrzji 4 d) maxraji 12, surati 5

✓ Yuza o’lchov birliklari mavzusini o‘rganish davomida o‘quvchilar cm kv, dm kv, m kv tushunchalaridagi kvadrat so‘zi qanday hosil bo‘lgani va bir yuza o‘lchov birligidan ikkinchi yuza o‘lchov birligiga o‘tishga qiynalishadi. O‘quvchilar bilan mashg‘ulot davomida hal qilinadigan birinchi masala o‘lchov birligi ortidan qo‘llanilayotgan kvadrat tushunchasining mohiyatini ochib berish hisoblanadi. Bunda ikkita uzunlik o‘lchov birligi misol sifatida olinadi: 6 cm va 3 cm endi ularni ko‘paytiramiz.6 cm × 3 cm= bunda 6 × 3 sonlarining ko‘paytirilishidan 18, cm × cm uzunlik o‘lchovlarining ko‘paytirilishidan santimetr kvadrat tushunchasi hosil bo‘lishi aytib o‘tiladi. Ikkita bir xil sonning ko‘paytirilishidan kvadrat hosil bo‘lishi aytilmasa ham, bu kabi tushunchalarni mavzuning mohiyatini ochib berish uchun amaliy jihatdan o‘rgatish foydadan xoli emas.

Ikkinci masala esa bir yuza o‘lchov birligidan ikkinchi yuza birligiga o‘tish. Bunda quyidagicha ish ko‘rish maqsadga muvofiq:

1 detsimetr kvadrat necha santimetr kvadrat ekanligini topish uchun 1 dm=10cm ga teng ekanligini ifodalab olamiz. Tenglikning chap tomonida 1 dm kv hosil bo‘lishi uchun 1 dm kv ga 1 dm kvni ko‘paytiramiz. Endi tenglik ishorasi o‘rinli bo‘lishi uchun tenglikning chap tomonida bajargan amalimizni tenglikning o‘ng tomonida ham bajaramiz, ya‘ni 10 cmni o‘z-o‘ziga bir marotaba ko‘paytiramiz. 100 cm kv hosil bo‘ldi. Demak, 1dm kv=100 cm kv

Bu kabi mavzuga oid mashg‘ulotlarda darslikdan tashqari quyidagi masalalardan foydalanish mumkin:

Oshxona devorining bo’yi 5 dm, eni 3 dm bo’lgan qismiga kafel plitkasini yopishtirish kerak. Agar har bir plitka yuzi 1 dm^2 bo’lsa, nechta plita kerak?

✓ Vaqt o’lchov birliklari mavzusi o‘quvchilar uchun kundalik hayot bilan bog‘liqligi bilan ahamiyatli bo‘lsa, ular orasidagi bog‘lanishni anglash jihatidan muammoli vaziyatlarni yuzaga keltiradi. Mavzu davomida o‘quvchilar duch kelishi kuzatiladigan muammoli vaziyatlardan biri mexanik soatdagi strelkalar, ular orasidagi bog‘lanish, ular ifodalayotgan vaqt o‘lchov birligining mohiyatini anglash bo‘lsa, yana biri bir vaqt o‘lchov birligidan ikkinchi bir vaqt o‘lchov birligiga

o‘tishda yuzaga keluvchi muammoli vaziyatlar sanaladi. Bunday muammoli vaziyatlarni bartaraf etishda o‘qituvchi fakultativ mashg‘ulot o‘tkazishi va bu mashg‘ulotga ijodkorlik bilan va amaliy tarzda yondashishi muammoning yechim topishiga yordam beradi. Mashg‘lot davomida qo‘llaniladigan topshiriqlar ham mashg‘ulotning qay darajada samarali bo‘lishini belgilab beradi:

Anvar 3 ta dorini qabul qilish oralig’i 30 daqiqadan bo’lgan vaqt oralig’ida ichishi kerak. U dorilarni qabul qilishni 11: 30 da boshlasa, soat nechada yakunlaydi?

Xulosa qilib aytganda, 3- sinf matematika darslarida fakultativ mashg’ulotlarni o’tkazish o’quvchilarga bilimlarni samarali berishda,ularga tanqidiy fikrlashni o‘rgatishda, bir masala yoxud muammoni turli xil yo‘llar bilan yechishda, shu bilan birgalikda o’rganayotgan tushunchalariga oid malaka hosil qilishda katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Burxonov S., Xudoyorov O’., Norqulova Q.,Ruzikulova N. 3-sinf uchun darslik.T:”Sharq” nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati,2019

2.Jumayev M.E., Tadjiyeva Z.G`.,,Boshlang`ich sinflarda matematikadan fakultativ darslarni tashkil etish metodikasi”. Toshkent. TDPU, 2005 yil.

3.Jumayev M.E.,,Matematika o`qitish metodikasi” (KHK uchun) Toshkent. Ilm Ziyo, 2011 yil.

4.Jumayev M. E.,,Bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi”. (KHK uchun) Toshkent. Ilm Ziyo, 2009 yil.

5.Jumayev E.E.,,Boshlang`ich matematika nazariyasi va metodikasi”. (KHK uchun) Toshkent. Turon-iqbol, 2011 yil.

МЕҲНАТ ҚОНУНЧИЛИГИДА ХОДИМЛАРНИ РАҒБАТЛАНТИРИШНИНГ НАЗАРИЙ ВА АМАЛИЙ МУАММОЛАРИ

Аъзамова Лазиза Тўлқин қизи
Тошкент давлат юридик университет қошидаги академик лицей
https://doi.org/10.5281/zenodo.7264478

Аннотация: Ушбу мақолада меҳнат қонунчилигида ходимларни рағбатлантириш масалалари кўриб ўтилган. Мақолаларга қўйиладиган талаблар келтириб ўтилган.
Калит сўзлар: Конституция, Меҳнат кодекси, Адлия вазирлиги, рағбатлантириш турлари, интизомий жазо, тўлов турлари, ҳуқуқий газета.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ МОТИВАЦИИ РАБОТНИКОВ В ТРУДОВОМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ.

Аъзамова Лазиза Тулкин кизи
Академический лицей при Ташкентском государственном юридическом университет

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы стимулирования работников в трудовом праве. Предлагаемые требования к статьям.
Ключевые слова: Конституция, Трудовой кодекс, Министерство юстиции, виды поощрений, дисциплинарные взыскания, виды выплат, юридическая газета.

THEORETICAL AND PRACTICAL PROBLEMS OF EMPLOYEE MOTIVATION IN LABOR LEGISLATION.

Azamova Laziza Tulqin qizi
Academic lyceum under the Tashkent State University of Law

Abstarct: This article discusses the issues of employee incentives in labor law. The proposed requirements for the articles.
Keywords: Constitution, Labor Code, Ministry of Justice, types of incentives, disciplinary sanctions, types of payments, legal newspaper.

Асосий бош қомусимиз булмиш конститутцямизнинг II-бўлим IX-боб 37-моддасида ҳар бир шахс меҳнат қилиш, эркин касб танлаш адолатли мехнат

шароитларда ишлаш ва қонунда курсатилган ҳолларда ишсизликдан ҳимояланиш ҳуқуқига эга. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг 1995-йил 21-декабрда қабул қилинган ва 1996-йил 1-апрелдан амалга киритилган Ўзбекистон Республикаси Мехнат кодексида хам ушбу кафолатлар белгиланган. Мазкур кодекс 2 қисм (умумий ва махсус) XXVI боб 294 моддадан иборатдир. Мехнат кодексининг XI-боби 10 та моддани (174-184) ўз ичига олиб улар ичида 180-модда алоҳида ахамятга эга. Мехнат кодексининг 180-моддаси Меҳнат учун рағбатлантириш деб номланиб Ишдаги ютуқлар учун ходимга нисбатан рағбатлантириш чоралари қўлланилиши мумкин. Рағбатлантириш турлари, уларни қўлланиш тартиби, афзаллик ва имтиёзлар бериш жамоа шартномалари, ички меҳнат тартиби қоидалари ва бошқа локал ҳужжатларда, жамоа келишувларида, интизом тўғрисидаги устав ва низомларда белгилаб қўйилади дейилган. Айни пайтда эътиборли жихати шундаки мазкур модданинг 3-қисмида Иш ҳақи, мукофотлар, қўшимча тўловлар, устамалар ва меҳнат ҳақи тизимида назарда тутилган бошқа тўловлар рағбатлантириш турларига кирмаслиги 4-қисмида эса интизомий жазо амал қилиб турган муддат мобайнида (1йилдан ошиб кетмаган ҳолда асос МК 184) ходимга нисбатан рағбатлантириш чоралари қўлланилмаслиги курсатилган. Ўз ўзидан савол пайдо бўлади қонунда рағбатлантириш турларига агар мукофотлар устамалар қушимча тўловлар кирмаси унда нималар киради? ва қолаверса рағбатлантириш чоралари деганда қонун чиқарувчи ҳокимят нимани назарда тутаябди. Амалётда интизомий жазо хайфсан олган ходим мукофот ёки устама олаолмайдими деган хақли савол туғилади? ушбу савол жавоб беришда бир неча ҳуқуқшуносларнинг қарашлари турличадир хусусан таниқли ҳуқуқшунос блогер Хушнудбек Худойбердиев уз блог сайтида хайфсан олган ходим мукофот олишида хеч қандай чеклов йуқлигини билдирган. Бироқ ҳуқуқий газета бўлмиш Адолат кўзгуси ҳуқуқшуноси И. Хамидова худди шу мазмундаги саволга хайфсан олган ходим мукофот олаолмаслиги айтилган. Мен бу саволга турли ҳуқуқшунослар орасида ягона фикрлар йуқлиги учун ва буни қонун буйича кодекс нормаларига Ўзбекистон Республикаси Конститутциясининг 109-моддаси 3-бандига мувофиқ Ўзбекистон Республикаси Конститутциявий суд бу масалада қарор бериши лозим деб хисобладим. Бундан ташқари Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 1999-йил 14-июндаги 746-сонли идоравий мансублиги, мулкчилик ва хўжалик юритиш шаклларидан қатъи назар корхона, муассаса, ташкилот ички меҳнат тартибининг намунавий қоидаларининг 3.2 бандида бу масалага ёритилгандек ушбу намунавий қоидаларнинг 3.2. Меҳнат мажбуриятларини тегишли равишда бажариш, меҳнатда юқори натижаларга эришиш, корхонада узоқ муддат намунали ишлаш ва ишдаги бошқа ютуқлари учун корхона

ходимларига нисбатан қуйидаги рағбатлантиришлар қўлланиши мумкин: 1)миннатдорчилик; 2) пул мукофоти билан тақдирлаш; 3) қимматбаҳо совға билан мукофотлаш. 4) жамият ва давлат олдидаги алоҳида хизматлари учун ходимлар қонунчиликда белгиланган тартибда давлат мукофотларига тақдим этилиши мумкин. Демак намунавий қоидаларнинг 3.2 бандида рағбатлантириш турлари тулиқ кўрсатилган ушбу чораларнинг 1,3,4 кичик хат бошилари тушунарли бироқ 2 бандида пул мукофоти билан тақдирлаш деганда қайси манбалардан олинган пул маблағлари назарда тутилаябди? Агар корхона давлат бюджетидан молялаштирилса уни бериш тартиби қандайлиги кўрсатилмаган. Кундалик хаётимда айрим фуқароларнинг ходимнинг атестатциядан утиши муносабати билан унинг иш хақи ва лавозимининг оширилишига рағбатлантириш деб қаралади мен эса бу фикрга қушилмайман чунки атестатция бу ходимнинг мажбурияти рағбат олиш эса ҳуқуқи деб бахолайман. Хулоса урнида шуни айтишим керакки Ўзбекистон Республикасининг хозирги кунда янги таҳрирдаги мехнат кодексида бу масалага ойдинлик киритилса мақсадга мувофиқ булар эди.

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ОРОНИМОВ ДЖИЗАКСКОЙ ОБЛАСТИ

Закиров А.А
доцент Джизакского государственного
пединститута им. А.Кадыри
Каримов М.Б
магистрант Джизакского государственного
пединститута им. А.Кадыри.
https://doi.org/10.5281/zenodo.7264480

Аннотация: В статье описаны типонимические особенности некоторых оронимов в узбекском языке. Объясняет происхождение, формирование и развитие названий оронимов, раскрывает этимологические особенности оронимов на примерах из литературы. Делается вывод о том, что типономические признаки оронимов имеют большое значение не только для названий рельефных сооружений или свойств горных пород, но и для других географических названий.

В статье описываются особенности тономии некоторых оронимов в узбекском языке. Вывод статьи состоит в том, что потономические признаки оронима имеют большое значение не только для именования рельефной структуры или родовых признаков, но и для других географических названий.

Ключевые слова и фразы: оронимы; топонимы; этимологические особенности; узбекский язык; древние монументы; фраза.

Одним из важнейших и актуальных вопросов изучения узбекского языка являются топонимы и их поля, в том числе оронимы, являющиеся основными компонентами ономастики.

Ороним — греческое слово; орос означает гора, кувшин, а ониома означает существительное. Оронимы - это разновидность топонимов, обозначающих названия вещей, имеющих разную форму земли (горы, долины, холмы, равнины).Употребление оронимов в узбекском языке нашло отражение в различных памятниках древней узбекской истории. История оронимов настолько древняя, что их можно встретить в древних памятниках.

Оронимия является важным источником в изучении истории языка. На наш взгляд, необходимо изучение оронимов, включение выявленных фактов в учебный процесс. В связи с этим изучение оронимов, определение их классификации и раскрытие особенностей художественной обработки

оронимов является одним из важнейших и актуальных вопросов, представляющих большой интерес.

Цель данной статьи - рассмотреть оронимы как самостоятельную отрасль языкознания, выявить их особенности в процессе возникновения и развития. Для достижения цели будут решаться следующие задачи:

1) определить значение топонимов как одну из важнейших и актуальных проблем ономастики;

2) указать причины образования названий-оронимов;

3) на основе примеров выявить семантику и стилистические особенности узбекских оронимов не только для рельефной структуры, но и для других географических названий.

Рассмотрим избранные оронимы из произведений искусства.

Известно, что в основе топонимов лежит локальная географическая терминология Горные районы, особенно низкогорья, заселенные и широко используемые в сельском хозяйстве, богаты орографической терминологией.

Nапример, в Бахмальском и Зааминском районах перевал называют талией, а перевал — более равнинным участком, где можно отдохнуть у вершины горы. (У Сангзора большая талия и пас.)

Называние гор именами людей не было распространено в Джизаке с древних времен. В Зааминском районе, на вершине села Тамтум, есть скалы, где летала дочь муллы, летала Надир, летала Саодат, и летала хорошо. Объекты названы так потому, что с таких камней падают и умирают люди.

Вторым оронимом, который мы находим в приведенном выше предложении, является долина реки Сангзор. Название реки, очевидно, влияет на название долины.

Таким образом, река Сангзор является одним из основных участков реки Аму. Расположение вокруг реки повлияло на его имя. Название реки связано с тем, что она названа в честь мест.

Топонимическое значение имеет название малых гор Галлаорольского района, гор «Койтош», гор «Гобдун», названия которых также являются именами людей и событий.

Короче говоря, законы наименования орономических предметов таковы. Можно также сказать, что, как и во всех географических объектах, среди названий орономических объектов много оронимов без семантики. Это требует этимологического исследования.

Можно полагать, что элементы, влияющие на возникновение и формирование оронимов, имеют свои географические особенности.

Итак, можно прийти к заключению, что оронимы - малоизученная область лингвистики. Тем не менее исследование оронимов проводилось в составе

топонимов. По результатам нашего исследования можно отметить, что способы формирования оронимов различны.

На формирование названия оронимов могут повлиять различные факторы:
а) название другой близкой топонимии;

б) свойство пород, воздействие климата;

в) растительный покров территории;

г) название оронимов на родном языке народов, населяющих данные местности.

В соответствии с названиями оронимов на языке местных народностей данные наименования можно классифицировать по следующим языковым подгруппам:

1) кельтская;

2) латинская;

3) англосаксонская;

4) скандинавская;

5) французская и др.

Надо отметить, что в одной статье трудно давать отдельные примеры каждой из этих подгрупп, и в перспективе эта проблема будет рассмотрена нами последовательно.

Литература:

1. Абдурахмонов Ф. Шукуров Ш. Историческая грамматика узбекского языка. Морфология и синтаксис. Ташкент: Фан, 1973. 316 с.

2. Баскаков Н. А. Каракалпакский язык. Т.II. Ч.1. М.: Изд-ва. Акад.наук. СССР, 1952. 411 с. Бухори Хафиз Таниш. Абдулланаме. Ташкент: Фан, 1966. 399 с.

3. Бегалиев Н., Туробов А. Топонимия Самарканда. Издательство Сам ГИМЯ, 2015. 156 с. Дусимов З. Топонимы Хорезма. — Ташкент: Фан, 1985. 104 с.

АЛИШЕР НАВОИЙ ШЕЪРИЯТИДА БАЪЗИ ШАХС ОТЛАРИНИНГ УНДАЛМА ВАЗИФАСИДА ҚЎЛЛАНИЛИШИ ВА УЛАРНИНГ СЕМАНТИК-УСЛУБИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ

Нафиса Қувватова
СамДЧТИ академик лицейи ўқитувчиси
https://doi.org/10.5281/zenodo.7264486

Аннотация: мақолада Алишер Навоий шеъриятида айрим шахс отларининг ундалма вазифасига хосланиши ва уларнинг турли семантик-услубий вазифада қўлланилиши таҳлил килинади.

Калит сўзлар: Навоий шеърияти, шахс оти, ундалма, табиб, ҳаким, муғанний, ғани, муҳаррир, семантик-услубий вазифа, нидо.

Маълумки, ҳар қандай шеърий асарнинг ўзига хос хусусияти унинг эстетик таъсирчанлиги ҳисобланади. Лирик асарнинг таъсир кучи муаллиф томонидан танланган луғавий бирликларга, шу билан бирга турли бадиий-тасвирий воситаларнинг қўлланилишига боғлиқ. Шеърий матн эмоционаллигини юзага чиқишида ундалмаларнинг ўрни катта. Улуғ мутафаккир шоир Алишер Навоий шеъриятида айрим шахс отларининг ундалма вазифасида келишига кўпгина мисоллар топилади. Тилшуносликка доир адабиётларда ундалманинг нутқдаги вазифаси, ўрни ва хусусиятлари ҳақида керакли фикрлар билдирилган. Хусусан, Ҳозирги ўзбек адабий тили дарслигида “ундалма, ўз характерига кўра, асосан киши отларидан бўлади. Бадиий асарларда, айниқса лирикада, инсондан бошқа жонли ва жонсиз предметларнинг номи ҳам ундалма бўлиб кела олади”, - дейилган[3, 184]. Шу маънода Навоий шеъриятида баъзи шахс отларининг ундалмага хосланиши эътиборга молик жиҳатдир. Буюк шоир ғазалларида турли касб эгалари масалан, муғанний(созанда), мусаввир(рассом), наққош, муҳаррир, табиб, ҳаким, боғбон шунингдек, турли ижтимоий қатлам вакиллари – шоҳ, фақир, соқий, солик, ғани(тавонгир) каби сўзлар ундалма бўлиб келади ва улар турли семантик-услубий вазифалар бажаради. Масалан, ўтмишда хаста одамларни халқона усулларда гиёҳлар билан даволовчи кишилар табиб ҳисобланган. Бундай кишилар ҳозирги кунда ҳам топилади. Алишер Навоийнинг ишқий ғазалларида жумладан, “Бадойеъ ул-бидоя” девонида турли муносабатлар билан 12 марта табибга мурожаат этган байтлар маълум. Қуйидаги байтда шоир кўп дардларнинг давоси бор, лекин ҳижрон дардидан бемор бўлган кишига даво йўқлигини айтиш истагида табибга мурожаат этади:

Чораси ё бодадур, ё васл, ё марг, эй табиб,
Ҳар кишиким топса ҳижрон дардидин беморлиғ.[1, 264]

Бошқа бир ғазалида шоир ёр(маҳбуба)га нисбатан табиб нисбатини ишлатади:

Дафъ ўлмиш эрди нўши лабингдин малолатим,

Лутф айла, эй табибки, бемормен яна.[1, 507]

Навоий шеъриятида табиб сўзига яқин ҳаким сўзи ҳам қўлланилган. Ҳаким арабча сўз бўлиб, икки маънога эга:

1.Табиб(шифо улашувчи киши) 2. Донишманд, файласуф, аллома[6, 762]. Алишер Навоий ўз асарларида ушбу сўзнинг ҳар икки маъносида қўллайди:

Ишқ дардиға давоким васл дебсен, эй ҳаким,

Бу балоға кимса эрмас мубтало андоққи мен.[1,465]

Телба деб қилма Навоийнинг иложин, эй ҳаким

Ким, мушаввашдур анга бир ўзга савдодин димоғ.[3, 244]

Бундан ташқари шоир ижодида худди шу сўзга яқин муолиж сўзи ҳам ундалма сифатида келган. Муолиж ар. “илож қилувчи”, “даволовчи”, “табиб” маъноларини англатади[6, 417]. Қуйидаги байтда ушбу сўзнинг “илож қилувчи” маъносида келганини кўришимиз мумкин.

Кўнглум ичра гулбуни дард узра ҳар ён ғунчадур,

Эй муолиж, дафъиға саъй этмаким, пайкон эмас.[1, 228]

Бадиий адабиётда, яъни мумтоз шеъриятимизда ундалмага олинган сўз нидо санъати деб юритилади. “Нидо бошқа шеърий санъатлардан бевосита инсон қалбидаги ҳис ва ҳаяжонларни очиқ ва кучли тасвирлаб бера олиш имконияти билан ажралиб туради. Инсоннинг ички туйғулари пўртана мисоли жунбушга келганида лирик қаҳрамон оламдаги ҳар қандай нарса-ҳодисаларга, табиатдаги исталган нарсага, ўзининг қалбига, суҳбатдошига мурожаат этиши мумкин [5, 181]”. Алишер Навоий ғазалларида турли касб эгалари, маълум ижтимоий табақа кишиларга мурожаат этар экан, бунда шоир ўз ички туйғулари, фикрлари, ҳис-кечинмаларини изҳор қилишни мақсад қилади. Қуйидаги байтларда шоирнинг муғанний(санъаткор, созанда)га, муҳаррир(ҳарф терувчи)га қилган нидоси эътиборга лойиқ:

Эй муғанний, тут «Ироқ» оҳангию кўргуз «Ҳижоз»,

Ким Навоий хотири бўлмиш «Хуросон»дин малул.[1, 335]

Зулфи ичра зор жисмим ҳолатин қилсанг рақам,

Эй муҳаррир, зарҳал этгайсен қаро таҳрир ила. [1, 514]

Шунингдек, Навоий ғазалларида қўлланилган ундаламалар ўзининг чуқур ижтимоий-фалсафий мушоҳадаларга урғу бериши билан ажралиб туради. Масалан, шоирнинг ғанига (яъни, бой, давлатманд. Бу сўзнинг ҳам шоир асарларида турли маъноларда қўлланилиши кузатилади) мурожаати муҳим саналади:

Ком еткурмак ғанимат англа ҳожат аҳлиға,

Эй ғани, бу дамки коминг бирладур даврон ҳануз.[1, 213]

Қуйидаги байтда шоирнинг фикрлари тавонгар(форсий тилда ушбу сўзнинг икки маъноси бор: 1.кучли, қувватли, қудратли 2. бой, бадавлат) сўзи орқали кенгайтирилган:

Эй тавонгар, нечаким қасрингни қилдинг заркигор,

Асру холи кўрма дарвеш ўлтурур вайронни ҳам.[1, 395]

Байтда шоир сўзнинг ҳар икки маъносида қўллаган. Бунда тавонгар дарвешга зидланса, қаср вайронага тазод қилинган.

Шундай қилиб, Алишер Навоий шеъриятида ундалмалар ўзига хос ўрин тутади. Шоир лирикасида шахс отларининг ундалма бўлиб келиши турлича бўлиб, уларнинг ҳар бирида лирик қаҳрамонга хос эмоционал ҳис-кечинмалар юзага чикарилади. Шоир нидоларида ўзининг ишқий, ижтимоий-фалсафий фикр-мушоҳадаларини очиқ-ойдин баён қилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1.Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами(20 жилдлик, 1-жилд) – Тошкент: Фан, 1987. - 689 б.

2.Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами(20 жилдлик, 3-жилд) – Тошкент: Фан, 1988. - 575 б.

3. А.Ғуломов, М.А.Асқарова. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1965. - 315 б.

4.Ғ.Абдураҳмонов,Ш.Шукуров. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси(морфология ва синтаксиси). – Тошкент: Ўқитувчи, 1973.- 316 б.

5. Б.Тўхлиев, Б.Каримов, К.Усмонова. Адабиёт(10-синф учун дарслик-мажмуа).- Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017. – 184 б.

6. Шамсиев П. Навоий асарлари луғати(Алишер Навоий асарларининг ўн беш томлигига илова) – Тошкент: Ғ.Ғулом, 1972.- 781 б.

СПОСОБЫ УЛУЧШЕНИЯ ОБСЛУЖИВАНИЯ С ПОМОЩЬЮ ЯЗЫКОВ ПРОГРАММИРОВАНИЯ И ТЕХНОЛОГИЙ

Асқарова Наргиза
Ассистент, Ташкентского Университета Информационных Технологий
Каршинский филиале имени Мухаммада аль-Харезми
Алихан Сайфиев
студент Ташкентского Университета Информационных Технологий
Каршинский филиале имени Мухаммада аль-Харезми
https://doi.org/10.5281/zenodo.7264490

Аннотация: В этой статье рассматриваются способы улучшения сервиса с помощью языков программирования и технологий, а также способы редактирования данных с помощью базы данных.

Ключевые слова: Данные, база данных, система управления базами данных, автоматизированная информационная, модель, иерархическая модель, сетевая модель.

Одним из важнейших понятий в теории баз данных является понятие информации. Под информацией понимаются любые сведения о каком-либо событии, процессе, объекте.

Данные — это информация, представленная в определенном виде, позволяющем автоматизировать ее сбор, хранение и дальнейшую обработку человеком или информационным средством. Для компьютерных технологий данные — это информация в дискретном, фиксированном виде, удобная для хранения, обработки на ЭВМ, а также для передачи по каналам связи.

База данных (БД) — именованная совокупность данных, отражающая состояние объектов и их отношений в рассматриваемой предметной области, или иначе БД — это совокупность взаимосвязанных данных при такой минимальной избыточности, которая допускает их использование оптимальным образом для одного или нескольких приложений в определенной предметной области. БД состоит из множества связанных файлов.

Система управления базами данных (СУБД) — совокупность языковых и программных средств, предназначенных для создания, ведения и совместного использования БД многими пользователями.

Автоматизированная информационная система (АИС) — это система, реализующая автоматизированный сбор, обработку, манипулирование данными, функционирующая на основе ЭВМ и других технических средств и включающая соответствующее программное обеспечение (ПО) и персонал. В

дальнейшем в этом качестве будет использоваться термин информационная система (ИС), который подразумевает понятие автоматизированная.

Каждая ИС в зависимости от ее назначения имеет дело с той или иной частью реального мира, которую принято называть предметной областью (ПрО) системы. Выявление ПрО — это необходимый начальный этапразработки любой ИС. Именно на этом этапе определяются информационные потребности всей совокупности пользователей будущей системы, которые, в свою очередь, предопределяют содержание ее базы данных.

Банк данных (БнД) является разновидностью ИС. БНД — это система специальным образом организованных данных: баз данных, программных, технических, языковых, организационно-методических средств, предназначенных для обеспечения централизованного накопления и коллективного многоцелевого использования данных.

Под задачами обработки данных обычно понимается специальный класс решаемых на ЭВМ задач, связанных с видом, хранением, сортировкой, отбором по заданному условию и группировкой записей однородной структуры.

Отдельные программы или комплекс программ, реализующие автоматизацию решения прикладных задач обработки данных, называются приложениями. Приложения, созданные средствами СУБД, относят к приложениям СУБД. Приложения, созданные вне среды СУБД с помощью систем программирования, использующих средства доступа к БД, к примеру,

Delphi или Visual Studio, называют внешними приложениями.

Модель – способ структурирования данных, описания взаимосвязей между данными.

Очевидные требования к модели:

• Модель должна быть достаточно универсальной, позволяя работать с данными различной структуры и сложности.

• Модель должна допускать автоматическую обработку данных, т.е. должна быть реализуема программными средствами.

• Модель должна быть наглядной, «прозрачной». Поскольку задача описания структуры данных средствами выбранной модели возлагается на разработчика (человека), чем сложнее модель – тем труднее избежать ошибок при проектировании.

Ниже перечислены основные разновидности моделей представления данных, используемых или использовавшихся в прошлом.

Иерархическая модель. Модель (как видно из названия) представляет данные в виде иерархии (рис. 1). Модель ориентирована на описание объектов, находящихся между собой в отношении подчинения. Например, структура

кадров некоторой организации. Организация состоит из отделов, каждый отдел имеет руководителя и сотрудников. Другой пример: объект «колесо» является составной частью объекта «автомобиль». Между автомобилем и колесом имеется связь, смысл которой можно озвучить следующим образом: объект «автомобиль» включает в себя несколько объектов «колесо».




Рисунок 1– Иерархическая модель

Сетевая модель. Сетевая модель (рис. 2) представляет собой развитие иерархической. Модель позволяет описывать более сложные виды взаимоотношений между данными. Однако расширение возможностей достигается за счет большей сложности реализации самой модели и трудности манипулирования данными.




Рисунок 2 – Сетевая модель

Объекты, имеющие одинаковые наборы атрибутов и различающиеся только их значениями, образуют некоторый класс объектов. Например, класс

«клиент» может иметь следующие атрибуты: «фамилия», «имя», «отчество», «номер кредитной карты». Для каждого объекта из этого класса определены конкретные значения перечисленных атрибутов. Говорят, что объект является экземпляром класса. На основе существующего класса могут создаваться новые, наследующие свойства исходного. При этом исходный класс именуется родителем нового класса. Производный класс называют потомком исходного. При этом объекты – экземпляры класса-потомка принадлежат также и родительскому классу, поскольку обладают всеми его атрибутами. Пример: на основе класса «клиент» может быть определен класс «постоянный клиент». Новый класс наследует атрибуты родительского и при этом добавляется новый атрибут – «процент скидки». Все постоянные клиенты

продолжают оставаться клиентами в прежнем понимании, но о них имеется еще и дополнительная информация. В настоящее время не существует единого подхода к реализации объектных баз данных. Объектный подход – набор общих принципов, которые могут применяться при проектировании различных приложений.

Гибридные модели. В некоторых приложениях предпринимаются попытки смешения различных моделей представления данных. Пример такого смешения – объектно-реляционная модель. В ней использовано некоторое сходство между реляционной и объектной идеологией. Строки таблиц реляционной модели соответствуют объектам объектной модели, столбцы таблиц – атрибутам объектов. Таблицы в целом являются аналогом классов. Отсюда вытекает возможность введения наследования при определении таблиц – таблица-потомок содержит те же столбцы, что и родительская, и, кроме того – дополнительные, определенные при наследовании. По идее создателей, объектно-реляционная модель должна унаследовать от реляционной легкость описания и манипулирования данными, а от объектной – возможность определения более сложных взаимоотношений между объектами.

Реляционные базы данных Базы данных, хранение информации в которых основано на реляционной модели, называют **реляционными базами данных**. Как было сказано ранее, реляционная модель предполагает организацию данных в виде таблиц. Строки таблиц называют **записями или кортежами**, столбцы – **полями или атрибутами.**

Клиент

Id кл	Фамилия	Имя	Отчество
15	Иванов	Иван	Иванович
16	Петров	Петр	Петрович
17	Николаев	Николай	Николаевич

Товар

Id тов	Название
1	Шкаф
2	Стул
3	Стол

Заказ

Id зак	Клиент	Товар	Дата	Количество
1	15	1	15.09.2003	1
2	17	1	17.09.2003	2
3	15	2	20.09.2003	12

Рис. 3 Таблицы в реляционной модели

В примере (рис. 3) показано, как могут быть представлены данные и связи между ними в БД некоторой торговой организации. Таблица «Клиент» содержит данные о каждом клиенте – фамилию, имя и отчество.

Кратко сформулируем основные современные принципы организации баз данных:

•значительная часть современных СУБД способна работать на компьютерах различной архитектуры под управлением разных операционных систем;

•подавляющее большинство современных СУБД обеспечивают поддержку полной реляционной модели данных, обеспечивая целостность категорий и целостность на уровне ссылок;

•современные СУБД для определения данных и манипуляции ими опираются на принятые стандарты в области языков, а при обмене данными;

•между различными СУБД базируются на существующих технологиях по обмену информацией.

Список литературы:

1. Джон К. ВанДик, Мэт Вестгейт. Pro Drupal 7 Development: Third Edition / Todd Tomlinson. John K. VanDyk - Apress, 2010.

2. Стивен Хольцнер. Golang в примерах. / Стивен Хольцнер. М.: 000 «Бином-Пресс», 2007 г. Пер. с англ. 352 с

3. Ларри Ульман. Ульман Л. Основы программирования на PHP:/Ларри Ульман. Пер. с англ. -М.: ДМК Пресс, 2001. -288 с.: ил. (Самоучитель).

4. Александр Мазуркевич. MB DDD: настольная книга программиста /Александр Мазуркевич, Дмитрий Еловой.Мн.: Новое знание, 2003. 480 с.

NASRIY ASARLARDA RITORIK SO'ROQ GAP

Iqboloy Fatxiddinova Faroxiddin qizi
Andijon davlat universiteti Filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek tili) ta'lim yo`nalishi 3-bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7264494

Annotatsiya: Mazkur maqolada ritorik so`roq gap tushunchasi izohlangan, uning badiiy asarlarda bajaruvchi vazifasi misollar keltirish orqali tahlil etilgan.
**Kalit so`zlar:** ritorik so`roq gap, sof so`roq gap, badiiy asar, yashirin ma'no.
Annotation: This article explains the concept of rhetorical interrogative speech, its role in fiction is analyzed by giving examples.
Keywords: rhetorical interrogative pronoun, pure interrogative pronoun, work of art, hidden meaning.

Ritorik so‘roq gaplar yashirin tasdiq, yashirin inkor, taajjub, tashvish, g‘amxo‘rlik, g‘azab, gumon, kuchli hayajon kabi ma’nolarni o‘zida mujassam etadi. Uning bu xususiyatidan badiiy adabiyotda yozuvchi va shoirlar mahorat bilan foydalanadilar. Bu orqali ular badiiy asarning (xoh u nazmiy, xoh nasriy asar bo‘lsin) estetik qiymatini oshirish, badiiy ta’sirchanligini oshirish kabi vazifalarni bajarishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘yadilar. O‘zbek badiiy matnida ritorik so‘roq gaplar qo‘llanmagan birorta namunani topish amri mahol. Bu, ayniqsa, she’riy matnlarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ammo nasriy matnlar ham bundan mustasno emas. Hikoya, qissa, roman kabi nasriy asar turlarida ritorik so‘roq gapning turli ma’nolari qo‘llanilib, asar qahramonining holati, xarakteri kabilarni yanada aniq ifodalash uchun foydalaniladi.[34]

Quyida o‘zbek nasrida o‘z o‘rniga ega adiblarning asarlaridagi ritorik so‘roq gaplardan ba’zilarini tahlilga tortamiz.

- Ha, ho‘kizni uylariga eltib berilsinmi?! Axir, borilsin, arz qilinsin-da!

Fuqaroning arzga borishi arbobning izzati bo‘ladi!

Bu misol Abdulla Qahhorning mashhur “O‘g‘ri” hikoyasidan olingan bo‘lib, unda ho‘kizini yo‘qotgan Qobil boboning uni so‘rab ellikboshiga borgani va ular o‘rtasidagi dialogdan parchadir. Berilgan parchadagi birinchi gap ritorik so‘roq gapga misol bo‘la oladi. Bu yerda ellikboshi Qobil boboga yo‘qolgan ho‘kizni amaldorlar o‘zlari topib uyingga olib borishi kerakmi degan savolni bermoqda. [35]

[34] Abdurahmonov G‘. Adabiy asar tilini o‘rganish haqida. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi masalalari,- Toshkent:, Fan, 1966. 4 – 11 – betlar.
[35] Abdurahmonov G‘. O‘zbek tili grammatikasi (sintaksis). –Toshkent: O‘qituvchi, 1996.

Ma’lumki, ritorik so‘roq gaplar javob talab qilmaydi, ularning javobi ichida bo‘ladi. Yuqoridagi gapda ham ho‘kizing hech qachon uyingga eltib berilmaydi, buning uchun o‘zing harakat qilishing darkor degan mazmun mujassam. Ritorik so‘roq gapning bu mazmunini undan keyin kelgan gaplar yanada aniqlashtiradi. Badiiy matnlarda, umuman, nutqning barcha ko‘rinishida ritorik so‘roq gaplardan oldin yoki keyin uning mazmun-mohiyatini aniqlashtiruvchi gaplar mavjud bo‘ladi. Bu qoida badiiy matnlarda ham amal qiladi.[36]

Turobjonning boshi g‘ovlab, ko‘zi tindi.

— O‘tgan bozor kuni yegan anoringni o‘ynashing olib kelganmidi?!

— O‘ynashim olib kelgan edi!

Turobjon bilolmay qoldi: xotinining yelkasiga tepib, so‘ngra o‘rnidan turdimi, yo turib keyin tepdimi; o‘zini obrezning oldida ko‘rdi.

Bu konteksda “O‘tgan bozor kuni egan anoringni o‘ynashing olib kelganmidi?!” gapi ritorik so‘roq gap hisoblanadi. Bu gap orqali bozor kuni yegan anoringni men olib kelgandim degan mazmunni uqish mumkin. Ma’lumki, Qahhorning “Anor” hikoyasida qo‘li kalta, oilasini zo‘rg‘a tebratadigan Turobjon va uning ayoli anor mevasiga boshqorong‘i bo‘lish voqeasi tasvirlangan. Homilador ayol bu mevani har kuni yegisi keladi, lekin u qimmatligi sababli buning iloji yo‘q. Ikki-uch kun yoki bir hafta oldin olib kelingan va tanovul qilingan anor u uchun hech narsa bo‘lmaydi.[37] Mana shu jarayonning natijasi sifatida yuqoridagi dialog vujudga kelgan va Turobjon o‘tgan bozor kuni anor olib kelganligini aynan ritorik so‘roq gap orqali bildirgan. Bunday gaplarni og‘zaki nutqimizda ham juda ko‘p uchratamiz. Bunday vaziyatlarda gap egasi o‘zi qilgan ishni aytish, eslatish, pisanda qilish ma’nosida oddiy so‘roq yoki darak gaplardan emas, aynan ritorik so‘roq gaplardan foydalanadi. Bu orqali esa tinglovchiga ta’sir qilish maqadi amalga oshadi.

Bu sukunatni yetmish yoshlardagi bir chol buzdi. U, mulla Norqo‘ziga qo‘lini paxsa qilib dedi:

— Sadqai odam keting-e, ayb emasmi?! Xotin qilish qo‘lingizdan kelmasa taloq qiling!

Qo‘ying-e, ko‘chib keting mahalladan, yo biz ko‘chib ketamiz!..

Bu misol Abdulla Qahhorning “Mayiz yemagan xotin” hikoyasidan olingan bo‘lib, uning syujeti ko‘pchilika yaxshi tanish. Konteksdagi “…ayb emasmi?!” gapi ritorik so‘roq gap bo‘lib, bu ayb degan ma’noni bildirmoqda. Ya’ni sof so‘roq gap emas. Bu gapda inkor orqali yashirin tasdiqqa ishora mavjud.

Foydalangan adabiyotlar:

[36] Abdurahmonov X., Mahmudov N. So‘z estetikasi. – Toshkent: Fan, 1981.

[37] Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. Toshkent: Fan, 2007. - 156 b

1.Abdurahmonov G‘. Adabiy asar tilini o‘rganish haqida. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi masalalari,- Toshkent:, Fan, 1966. 4 – 11 – betlar.

2.Abdurahmonov G‘. Qo‘shma gap sintaksisi. –Toshkent:, 1964.

3. Abdurahmonov G‘. O‘zbek tili grammatikasi (sintaksis). –Toshkent: O‘qituvchi, 1996.

4. Abdurahmonov X., Mahmudov N. So‘z estetikasi. – Toshkent: Fan, 1981.

5.Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. Toshkent: Fan, 2007. - 156 b

KOMIL INSONNI TARBIYALASHDA FUTUVVAT G‘OYALARINING O‘RNI

Umarov Sardorbek Akmalovich
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
tayanch doktaranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.7264497

Annotatsiya: Mazkur maqolada komil insonni axloqiy jihatdan yetuk qilib tarbiyalashda futuvvat ilmining o‘rni haqida keng to‘xtalib o‘tiladi. Futuvvat ilmi tasavvuf ilmining amaliy xalqona ko‘rinishi ekanligi aytildi. Jumladan, komillik martabasiga yetishda insonda saxovat, javonmardlik, axiylik sifatlari bo‘lishi kerakligi ta’kidlandi. Futuvvat nazariyasi haqida sharq mutafakkirlarining fikrlari va badiiy adabiyotga kirib kelishi, shuningdek, Alisher Navoiyning “Xamsa” asari orqali atroflicha tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: Komillik, oriflik, futuvvat, fatiylik, javonmardlik, axiylik, G‘azzoliy, irfon, ruh futuvvati.

Annotation: This article discusses the role of futuwwat in the upbringing of a perfect human being. Futuvvat is said to be a practical popular form of mysticism. In particular, it was emphasized that in order to reach the level of perfection, a person should have the qualities of generosity, generosity and generosity. The views of Eastern thinkers on the theory of futuwwat and their entry into the literature were also analyzed through Alisher Navoi's Hamsa.

Key words: Perfection, enlightenment, Futuwwat, fatwa, bravery, ahi, Ghazali, gnosis, futuvvat of the soul.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль футуват в воспитании совершенного человека. Футувват считается популярной формой мистицизма. В частности, подчеркивалось, что для достижения уровня совершенства человек должен обладать качествами великодушия, великодушия и великодушия. Взгляды восточных мыслителей на теорию футувват и их вхождение в литературу также были проанализированы через Хамсу Алишера Навои.

Ключевые слова: Совершенство, Ариф, футуват. Фатий. Джаванмардлик, Ахыйик, Газзали, Ирфан.

Inson butun hayoti davomida har qancha ko‘p kitob o‘qib uni amalda qo‘llamasa, bari befoyda. Xuddi yong‘oqni mag‘ziga kirmasdan po‘stida yugurib yurishga o‘xshaydi. Komillikning sharti ham unga amal qilishdir. Zero komillik hamma narsani me’yori va unga amal qilish orqali hosil bo‘ladi. Misol uchun non

yopmoqchi bo‘lsangiz unga suv, achitqi va tuz solib qoriysiz. Ko‘pchigan xamirni esa rostlab qizigan tandirda yopasiz. Agar mana shu jarayonlarni amalga oshirishda biror xatoga yo‘l qo‘ysangiz xamiringiz pishmagan, yopgan noningiz sho‘r yoki tuzi kam bo‘lib mukammallik kasb etmaydi. Aslida insonning komillikka erishuvi ham shunga o‘xshab ketadi.

Sharq allomalari Beruniy, Farobiy, Ibn Sino, Motrudiy, G‘azzoliy, Termiziy, Yusuf Xos Hojib, Naqshbandiy, Jomiy, Alisher Navoiy kabi buyuk zotlar komillikka erishishning inson fenomeni doirasida bir qancha yo‘l va usullarini ishlab chiqishgan. Ana shu komillikka olib boruvchi yo‘llardan biri – bu tasavvuf va tavhid ilmining bir bo‘lagi sanalgan futuvvat ilmidir.

Futuvvat ilmi ko‘hna Sharq adabiyotida chuqur o‘rin olgan ta’limotdir. Pok ilohiy ishq, Haq va haqiqat, sof insoniy xislatlar, kamolot kasb etish, ishq va inson konsepsiyalari, soflik, saxovat, himmat, axiylik, fatiylik kabi sifatlarini o‘zida jam etib adolat va haqiqat timsoli bo‘lmish Mutlaq ilohga muhabbat zavqi ushbu mo‘tabar ilmning asosini tashkil etadi. Zohiriy jihatdan futuvvatning asosini xalq ichida ma’lum bir ijtimoiy guruhlarga uyushib, xalqning g‘amlari va qayg‘ulari, zolimlar zulmidan ezilgan xalqning manfaatlarini himoya qilguvchi mard, jasur yigitlar tashkil etgan bo‘lsa, botiniy jihatdan esa futuvvat qalbda Allohni nomini zikr qilishni qo‘ymaydigan, saxovat va himmatli, iymonli, diyonatli, mard, saxiy komil insonni tushunamiz.

Inson tabiati faqat ruhiy dunyodan iborat bo‘lmagani sababli, u agar to‘liq moddiy dunyo ehtiyojlarini rad etsa, yo bu foniy dunyoni tark etmog‘i, yo ikkiyuzlamachilikni, ya’ni riyokorlikni kasb etmog‘i lozim. Ahli futuvvat ushbu ziddiyatni yengib o‘ta olgan jamoadir. Futuvvat ma’naviyatini o‘zlashtirgan kishi amalda yaratuvchi va ruhiyatda darveshdir. Uning axloqiy jihatdan sifati – javonmardlik, ya’ni saxovatlilik, oliyhimmatlik, kamtarinlik, to‘g‘riso‘zlik, mardlik kabi xislatlarning uzviy yaxlitlikda namoyon bo‘lishidir. “Bu guruh mehnat bilan topgan nonini boylik deb bilgay”, deb yozadi Kaykovus.

Shariat, falsafa va tasavvuf ham aslida irfoniy jihatidan bir-biriga yaqin tushunchalardir. Ilmi qol deya e’tirof e’tilgan shariat ilmlari hamda dunyoviy ilm hisoblangan falsafa komillikka intilayotgan solihni zohiriy tarbiyalasa, ilmi hol sanalgan tasavvuf ilmi solihni botiniy qalb dunyosini tarbiyalaydi. Insonning komillikka intilishi shu ikki tushunchaning qorishuvidan, amalda qo‘llay olishdan va unga amal qilishidan shakllanadi. Bu haqida imom G‘azzoliyning quyidagi fikrlari e’tiborlidir: “Bilgilki, hazrati Haq subhanahu va taoloni tanimoqning kalidi o‘z nafsini tanimoqdir. Ushbu ma’nida aytibdirlarki, “Man arofa nafsahu fa qod arofa robbahu”, ya’ni har kishi o‘z nafsini tanisa, batahqiq Parvardigorini tanigaydir… Ikki nimarsidin biri zohir badandirki, ani tan atabdurlar, muni zohir ko‘z birla ko‘rgali bo‘lur. Yana biri ma’nii botindirki, ani nafs derlar, jon atarlar va dil ham derlar. Bu

ma’nini botinni (yashirin ma’noni) botin (ichki) ko‘z birla tanigani bo‘lur, zohir ko‘z birla ko‘rgali bo‘lmas. Va sening haqiqatining ushbu ma’nii botindir…”

Komillikning eng asosiy sharti esa qalbni nafs qutqusidan tozalash va qo‘lni kasb-hunar bilan band etmoqlikdir. Kamollikning muhim zohiriy shartlaridan biri ham aynan insonning kasb-hunari borligi hisoblanadi. Bu yo‘lning tarixi esa komillikning timsoli bo‘lgan payg‘ambarlarning hayot yo‘li bilan bog‘liqdir. Payg‘ambarlar tarixidan ma’lumki, ular qandaydir kasb-hunar bilan shug‘ullanishgan. Payg‘ambarlar o‘z qalbi va ruhini Allohning yodi bilan pok etib, halol mehnat bilan rizq topishgan. Jumladan, Odam alayhissalom dehqonchilik, Idris alayhissalom temirchilik, Muso alayhissalom cho‘ponlik qilganlar. Muhammad alayhissalom cho‘ponlik va tijorat bilan shug‘ullanganlar. Payg‘ambarlardan meros qolgan bu an’ana ma’naviy kamolotning cho‘qqisini zabt etgan komillik martabasiga erishgan avliyolik, valiylik, so‘fiylik, oriflik maqomiga erishgan zotlar tomonidan davom ettirilgan. Jumladan, Naqshbandiya shayxlari ishsiz, ma’lum kasb-hunar egasi bo‘lmagan insonlarni shogirdlikka qabul qilmaganlar, o‘zlari biror kasb-hunar bilan mashg‘ul bo‘lganlar. Xoja Ali Rometaniy – to‘quvchi, Muhammad Boboyi Samosiy – bog‘bon, Sayyid Amir Kulol – kulol, Bahouddin Naqshband – naqqosh, to‘quvchi va chorvador, Amir Kulolning o‘g‘li Amir Hamza – ovchi, Xoja Ubaydulloh Ahror – chorvador va savdogar bo‘lishgan. Mazkur an’ana tasavvufning ko‘plab tariqatlari va maqomotlarda o‘z aksini topgan. Masalan, futuvvat ahli ham kasb-hunar orqali topilgan halol mehnatni komillikka erishning asosiy yo‘li deb bilgan. Bu jamoaga birlashgan kishilarning ko‘pi javonmardlik, axiylik, fatiylik sifatlariga ega insonlar sanalgan. Ahli futuvvat jamoasiga birlashib pirga qo‘l bergan fatiylar ham ma’lum kasb-korga ega insonlar hisoblanishgan. Bu haqida Alisher Navoiy o‘zining “Nasoyim ul-muhabbat shamoyin ul-futuvvat” asarida avliyo va mashoyixlarning halol mehnat bilan kun kechirishini va ma’lum bir kasb bilan mashg‘ul bo‘lganligini e’tirof etadi: Abu Said Xarroz – etikdo‘z, Muhammad Sakkok – pichoqchi, Abu Hafz Haddod – temirchi, Abulabbos Omiliy – qassob, Ibrohim Ojiriy – g‘isht quyuvchi.

Tarixdan ma’lumki, tasavvuf ilmining eng gullab rivojlangan davri XI asr oxiri – XII asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Bu davrning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotida shaharlar aholisining asosini tashkil etgan hunarmandlar, kosiblar va o‘rta hol savdo ahlining ma’rifati va ijtimoiy mavqei yuksalib borgan. Natijada ularning ma’naviy ehtiyojlari va bilim darajasi keskin oshib, ijtimoiy faolliklari har sohada sezila boshlagan. Aynan mana shu davrda futuvvat va axiylik tashkilotlari faol ishlagan. Futuvvat va axiylik jamoalari borgan sari keng tarkib topdi. Futuvvat tasavvuf g‘oyalarini amaliy tadbiq eta boshladi va tasavvuf g‘oyalari futuvvatga qo‘l berib, xoslar doirasidan chiqib, xalq ichiga yoyildi. Xullas, jamiyatning ijtimoiy, ma’naviy ahvoli yangi bir bosqichga ko‘tarildi. Bu haqida eronlik tasavvufshunos olimi Muhammadkozim Yusufpur ham shunday yozadi: “Tasavvuf tariqatining ko‘p sonli

tarmoqlari ichida ko‘proq jamiyat orasida yoyilgan va rivoj topgan oqimlardan biri futuvvatdir. Tasavvuf xoslar (ma’rifatli tabaqa) orasida tarqalgandan so‘ng, futuvvat odobi bilan ko‘cha va bozorlarga kirib bordi. Darvoqe, futuvvat bu avomona tasavvuf bo‘lib, uning rasm-rusumlari oddiy va amaliy, ya’ni kosib hunarmandlar, dehqonlarga tushunarli bo‘lgan.”

Bu davrda jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar adabiyotga ham ta’sir eta boshladi. Adabiyot ilohiy ishq va ma’rifatni insonning aqli bilan emas, balki qalb oynasi orqali ko‘rishni kashf etdi. Adabiyot endi Xudo va inson, olam va odam bilan bog‘liq azaliy muammolarni irfoniy, ma’rifiy, tasavvufiy va ijtmoiy mezonlar asosida tahlil qila boshladi. Bu davr allomalari insonni komillikka erishish va tavhidning mohiyatni anglash yo‘lida shariat, tasavvuf, falsafa aslida yagona bir ilm ekanligini va bu yo‘lda irfon (bilish) barchasi uchun yagona mohiyatga eltuvchi komillik va oriflik yo‘li ekanligini anglashdi. Bu murakkab jarayonni tasavvuf ahli xoslar doirasida qoldirmasdan, futuvvat tashkilotlari orqali oddiy xalq ommasiga ham yoyishga o‘tdilar. Natijada bu evrilishlar sekin-asta badiiy ijodga maydoniga ham ta’sir ko‘rsata boshladi. Natijada bu jarayon xalq og‘zaki ijodiga ham, yozma adabiyotga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmadi. Xususan, Fors-tojik xalqlarining og‘zaki adabiyotida “Samaki Ayyor”, turkiy xalqlar og‘zaki adabiyotida Nasriddin afandi obrazlari aslida futuvvat va javonmard insonlarning umumlasha obrazlari jumlasidandir.

Yozma adabiyotda futuvvat, axiylik tashkilotlarining g‘oyalari ishq, saxovat, himmat masalalari bilan qorishib o‘ziga xos g‘oyaviy mazmun kasb eta boshladi. Natijada adabiyotda axiy, fatiy, javonmard, ayyor obrazlari shakllandi. Alalxusus, futuvvat haqida yozilgan ilmiy va badiiy asarlarda inson qalbining saxovati, mardligi keng yoritiladi. Xususan, Fariddin Attor, Jaloliddin Rumiy, Nasimiy, Abdulla Ansoriy, Nizomiy, Dehlaviy va Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiylar futuvvat mavzusiga bag‘ishlab, ilmiy va nasriy asarlar yaratdilar. Xususan, Alisher Navoiy javonmard, fatiy insonlarda komillikka xos sifatlarini ko‘radi. Bu “Xamsa” dostoning ikkinchi dostoni sanalgan “Farhod va Shirin” dostonida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan, “Hayrat ul abror” da abror insonning hayot yo‘li futuvvat g‘oyalari asosida yoritilgan va tub mazmuniga singdirib yuborilgan. “Xamsa”ning ikkinchi dostoni “Farhod va Shirin” da esa Farhod obrazini bosh obraz darajasiga olib chiqib, uni komil inson sifatida tasvirlaydi. Komillikning asosi esa insonning amaliy mehnati va hunar bilan shakllanishi quyidagicha tasvirlaydi:

Hunarni asrabon netgumdur oxir,
Olib tufroqqamu ketgumdur oxir.

Yoki:

Jahonda qolmadi ul yetmagan ilm,
Bilib tahqiqini kasb etmagan ilm.

Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostoni markazida komil inson tarbiyasi turadi. Shariat ahkomiga qurilgan tariqat rasmi rusumlari, pir muridlik an’anasi, solik odobi, poklanish, tavba tazarru, zikr-u samo – hamma hammasidan maqsad insonni komillikka yuksaltirish, ruhni yaratish, g‘aybiyotning sir-u asrorini kashf etish edi. Alisher Navoiy Farhod timsolida insonni ruhiy, ma’naviy va jismoniy kamol toptirish va poklash ilmi bo‘lgan futuvvat orqali poklaydi. Farhodning botinidagi barcha salbiy xislatlarni nafs tushunchasiga bog‘lab izohlaydi va unga qarshi jihod e’lon qiladi. Asarda temir odam, dev obrazlari nafs timsolidir. Navoiy shuning uchun insonning birinchi vazifasi o‘z nafsini jilovlab olishi, uni mahv etishidir deb biladi. Qanoat, saxovat va himmat bilan inson o‘zining ilohiy mohiyatini va ulug‘ligini anglasa, eng yomon dushman nafsi ekanligini ham anglaydi. Navoiy mazkur dostonda aynan komillikka yetishning bir yo‘li futuvvat ekanligi Farhod obrazi orqali ko‘rsatib beradi.

“Xamsa”ning uchinchi dostoni “Layli va Majnun” dostonida Navoiy Majnunni “futuvvat ahlidin erdi” deb ta’riflaydi. Navoiy Majnunning “ruh futuvvati”ni irfoniy darajaga olib chiqadi.

Navoiyning keyingi to‘rtinchi dostoni “Sab’ai sayyor” da yetti hikoyat futuvvat g‘oyalari bilan boyitiladi va bir-biri bilan mantiqiy bog‘lanib, yaxlit bir kompozitsiya hosil qiladi. Navoiy hikoyatlardagi Farrux va Axiy, Zayd Zahhob, Sad, Shoh Jo‘na va Ma’sud, Mehr va Suhayl, Muqbil va Mudbir timsollari orqali axiylik, javonmardlik, saxovat va himmat masalalarini keng ochib beradi. “Xamsa”ning so‘nggi dostoni yakunlovchi “Saddi Iskandariy” da esa adolatli shohning fatiyliklari va uning odamlarga ko‘rsatgan saxovat va himmati tasvirlanadi. Navoiy Iskandar timsolida yuksak darajaga erishgan komil, orif, javonmard insonni mahorat bilan tasvirlaydi.

Bugungi kunda o‘sib unayotgan yosh avlodning ma’naviy dunyoqarashini tarbiyalashda futuvvat nima ekanligi va bu mo‘tabar ilming mohiyatini Alisher Navoiy asarlari orqali yosh avlodga yetkazish lozim. Zero,Alisher Navoiy ijodi bir bog‘ bo‘lsa, unga hayot berib turuvchi tuprog‘i – bu futuvvat ilmidir. Futuvvatning ildizi esa pok ilohiy ishq sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zayniddin Muhammad G‘azzoliy. Kimyoyi saodat. T.: Kamalak, 1995. B.57.

2. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами.15-жилд, с. 68.

3. Алишер Навоий. Сабьаи сайёр. Нашрга тайёрловчи: С.Ҳасанов. Тошкент. Ғофур Ғулом номидаги нашриёт матбаа бирлашаси. 1991.

4. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik, Toshkent matbuot axborot agentligi G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 390-391-betlar.

5. Ҳасанов С. Навоийнинг этти туҳфаси. Тошкент: Ғофур Ғулом номидаги Нашриёт-матбаа бирлашмаси 1991.

6. Ҳусайн Воиз Кошифий. Футувватномаи султоний ёхуд жавонмардлик тариқати (Таржимон: Н.Комилов). – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2011.

7. Муҳаммадкозим Юсуфпур. Нақди муфтий. Теҳрон: Рўзна, 1380. Б:119.

8. Қуръони карим. Ўзбекча изоҳли таржима. Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур. – Т.: Чўлпон, 1992.

KOREYA RESPUBLIKASIDA QULAY INVESTITSIYA MUHITINI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Ikramova Mehribon Abdushukurovna
ToshDShU Koreyashunoslik fakulteti Stajor-o'qituvchisi
ikramovamehribonu@gmail.com
Sherov Rasul Ravshanovich
ToshDShU Koreyashunoslik fakulteti stajor-o'qituvchisi
Telefon:+(99897)7087660
sherov.rasul@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.7264499

Annotatsiya: Ushbu maqolada Koreya iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarning muhim ahamiyat kasb etishi, mamlakatning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarga nisbatan jozibadorligi, ishbilarmonlik muhitini yaxshilanishi, sarmoyalarni jalb qilishni rag'batlantiruvchi siyosati haqida atroflicha yoritilgan.

Kalit so'zlar: Investitsiya**,** xorijiy investitsiya**,** investitsion muhit, investitsiya salohiyati.

Har qanday mamlakatning investitsion faoliyatini yuksaltirishda investitsion muhit muhim ijtimoiy hamda iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Albatta mamlakat investitsion muhiti qanchalik qulay bo'lsa, iqtisodiy rivojlanishning barqaror sur'atlariga erishiladi hamda ijtimoiy muammolarni hal etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga zamin yaratiladi.

Koreya Respublikasi ham mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish yo'lida investitsiyalarni jalb qilish masalalarini ko'rib chiqib, sarmoyadorlar uchun qulay investitsion muhit yaratish va ularga imtiyozlar berish yo'li bilan investitsiyalarni faol jalb qilishni o'rinli deb hisobladi.

Xususan, bu yo'nalishda Koreya Respublikasi hukumati rivojlanishning yangi modelini taklif etgan holda, o'z milliy iqtisodiyotning rivojlanishida qo`shimcha ish joylari yaratishga, ishlab chiqarilgan mahsulotning raqobatbardoshligini oshirishga, ish amaliyoti sifatini xalqaro standartlargacha olib chiqishga, mehnat resurslari va texnologiyalarni rivojlantirishga, institutsion tizimning samarasini oshirish masalalariga alohida urg'u berdi. Mamlakat rahbariyati islohatlar yo`lidan borgan holda, kelgusida ham moliya va korporativ sektorda, ham investitsiya sohasida yangilash ishlarini olib borish tarafdoridir.

Ta'kidlash lozimki, mamlakatda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etish uchun eng qulay investitsiya muhitini shakllantirish maqsadida iqtisodiyotni liberallashtirish, davlat boshqaruvini isloh qilish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga

aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirish, tovarlar (ishlar va xizmatlar)dan erkin foydalanishni ta’minlash, shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish borasida keng ko’lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Shuni qayd etish lozimki, bugungi kunda Koreya Respublikasi o’zining jadal iqtisodiy islohatlari sababli ham makroiqtisodiy ko’rsatkichlari barqaror natijalarga erishib kelmoqda (1-jadval).

1-jadval

Janubiy Koreyaning asosiy makroiqtisodiy ko’rsatkichlari

Ko’rsatkichlar		**2015**	**2016**	**2017**	**2018**	**2019**
YaIM(Mlrd. AQSh dollar)		1,383	1,415	1,531	1,619	2,174
Aholi jon boshiga YaIM (AQSh dollar)		27,097	27,607	29,744	31,370	42,136
Iqtisodiy o'sish darajasi (%)		2.8	2.9	3.1	2.7	2.0
Iste'mol narxlari indeksi (%)		0.7	1.0	1.9	1.5	0.5
Savdo hajmi (AQSh dollar. Mil)		963,256	901,619	1,052,172	1,140,062	1,045,576
Eksport(AQSh dollar.Mil)	Miqdori	526,757	495,426	573,694	604,860	542,233
	O'sish darajasi (%)	8.0	5.9	15.8	5.4	10.4
Import(AQSh dollar.Mil)	Miqdori	436,499	406,193	478,478	535,202	503,343
	O'sish darajasi (%)	16.9	6.9	17.8	11.9	-6.0
Savdo balansi (AQSh dollar Mil)		90,258	89,233	95,216	69,657	38,890
Chet el Investitsiyalari		20,910	21,299	22,943	26,901	23,329

(AQSh dollar. Mil)					
Chet el valyuta zaxiralari(AQSh dollar.Mil)	367,962	371,102	389,267	403,694	407,460

Manba: IMF, Bank of Korea, Statistics Korea, KITA, MOTIE ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Jadval ma’lumotlaridan ko’rinib turibdiki, 2015-yilda Koreya Respublikasining YaIM miqdori 1 383 mlrd. AQSh dollarni tashkil qildi va keyingi yillarda esa biroz o’sish kuzatildi. 2019-yilda esa 2 174 mlrd. AQSh dollarni tashkil qildi. Jalb qilingan investitsiyalar miqdori 2015-yilda 20 910 mil. AQSh dollarni tashkil qilib, keyingi yillarda biroz o’sish holati kuzatildi. 2018-yilda esa 26 901 mil. AQSh dollarni tashkil qildi. Lekin, global investitsiyalarga talabning pasayishi sababli 2019-yilda 23 329 mil. AQSh dollarni tashkil qildi.

Shu bilan birga, hozirgi paytda Koreya Respublikasida iqtisodiy jihatdan qulay investitsiya muhiti yaratilganligini quyidagi omillar amal qilishi orqali ko’rishimiz mumkin[2]:

- samarali investitsiya siyosatini amalga oshirishda davlatning oliy o'rni;
- investitsiyalar oqimini rag'batlantiruvchi qulay investitsiya muhiti;
- bank tarmog'i va moliya bozorining barqaror rivojlanishi;
- investitsiya siyosatining tizimliligi va butunligi;
- investitsiya jarayonlarini tartibga solishning bir tartibga solinganligi;
- ijtimoiy kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalashga o'ziga xos ustuvorlik.

Koreya hukumati investitsion muhitni yaxshilash hamda bu boradagi muammolarnini hal qilish borasida quyidagi ishlarni amalga oshirdi. Xususan, Koreyaning savdo-sotiqni rivojlantirish korporatsiyasi (KOTRA) o'z nomini Koreya Savdo va Investitsiyalarni Rag'batlantirish Agentligi deb o'zgartirdi, bu uning transchegaraviy sarmoyalarni jalb qilish va texnologik va sanoat hamkorlik loyihalarini qo'llab-quvvatlashdagi yangi rolini aks ettiradi[3].

